

**UDK: 37.017.4**

**74.200.50**

**H99**

**Numonova Dildor**

**Barkamol avlodni** tarbiyalashda ta`lim-tarbiyaning roli.:

Ilmiy maqolalar / Dildor Numonova. - Navoiy: Alisher Navoiy nomli  
nashriyot, 2012....b

Taqrizchi: F.O.Xodjiyeva, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**ISBN 978-9943-383-61-6**

Ushbu to'plamda bugungi globallashuv jarayonida ta`lim-tarbiya ishi eng dolzarb ijtimoiy ahamiyat kasb etayotgani, unga oziga xos yondashuv lozimligi to'g'risida fikr yuritiladi. Muallif o'z ilmiy izlanishlarini yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi samaralari orqali tushuntirishga harakat qiladi. Tadqiqotlar ta`lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilar, keng jamoatchilik hamda talabalarga muhim qo'llanma sifatida asqotishi mumkin.

**UDK: 37.017.4**

**BBK: 74.200.50**

**H99**

**ISBN 978-9943-383-61-6**

© D.Numonova, 2012.

© Alisher Navoiy nomli nashriyot, 2012.





## MUSTAQILLIKKA ERISHGANIMIZDAN KEYINGI QADAMLARIMIZ

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng bir qancha ishlar, islohotlar amalga oshirildiki, ularni sarhisobi esa bugungi kunda yaqqol ko'rinib, yuksalib bormoqda. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, erkin va farovon hayot sari bilimdon, aqlli, tarbiyalanganlik darajasi yuqori bo'lgan yoshlarni, shijoatli, harakatchan, intiluvchan, eng muhimi, jamiyatimiz ravnaqi uchun o'zining ijobiy ishlari bilan hissasini qo'sha oladigan yosh kadrlarni voyaga yetkazish oliy maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Bugungi kunda har tomonlama yuksaklikka intilayotgan yoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, ular bilan hamkorlikda ish olib borish, ularga g'amxo'rlik qilib, to'g'ri yo'lga boshlash, ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik bilan yondashish, iste'dodli yoshlarni o'zi qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli bilimlarni bera olishimiz zarur. Yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz lozim.

Shaxs xarakterining ham tashqi va ichki belgilarini shakllantirilgandagina talaba dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yangicha yondashuv asosida talabalarning ma'naviy madaniyatini tarbiyalashda asosiy yo'nalish beruvchi metodologiya quyidagi muammolarni hal etishda yordam beradi:

- ta'lim-tarbiya tizimini milliylashtirish orqali komil insonni tarbiyalash;
- har bir talaba hatti-harakati, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirishda tayanch bo'lish;
- talabalarning milliy va umumbashariy madaniyat manbalari mohiyatini chuqur anglab yetishda dasturiy yo'llanma berish;
- talabalarning amaliy hayotida egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini to'g'ri tadbiiq eta olishga yo'llash.

Aniq maqsad sari ildam qadamlar bilan bosqichma-bosqich borar ekanmiz, yoshlarimiz ongida mustahkam iroda, o'z kelajagini yaratayotgan ekan, unga katta ishonchla odimlashsa, ozod hayotini o'z ma'naviy-ruhiy kamolligi bilan bezashsa, doimo izlanishda, intilishda bo'lishsagina yuksak samaraga erisha olamiz. Har bir insonda qat'iy intilish, harakat, ishonch bo'lsagina ijobiy natijalarga erisha olishi bu



hayotiy tajribalardan hisoblanadi. Nazorat, o'z-o'zini nazorat, maqsadlarning natijalari, faoliyatda faollik, berilgan nazariy bilimlar asosida amaliy faoliyatning olib borilishi, barcha hatti-harakatlarning o'quvchi yoshlar ongida chuqur anglanib, ularni bajarish uchun to'lig'icha imkoniyatlaridan foydalanish xohish-istagi paydo bo'lsa, mustaqil ravishda asosiy talabni bajara olish tuyg'usi shakllanib boradi. Berilgan nazariy bilim asosida qandaydir ish-harakatni bajara olishi, amaliy faoliyat bilan bog'lab, albatta, o'z bilimi asosida ishni bajarishi kuzatiladi. Darsda albatta muammoli savollardan foydalanib, ko'zda tutilayotgan bilimga qiziqishini uyg'otib, beriladigan bilimni bayon qilsangiz, muammoli savolni hayotdan olsangiz o'quvchilarni ishonchini yuqoriga ko'tarib, shuning bilan bilimi ham yuqori bo'lishi aniqlanadi. O'tilayotgan mavzularga moslab zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llash, pedagogning mahoratiga bog'liq bo'lib, o'quvchilar yoshiga moslanib tayyorlanadi. Oldindan rejalashtirib, tuzilgan darslar asosida avvalo, o'quvchilarda yoppasiga harakat, ichki harakat, intilish, izlanish paydo qilinib, unda har birining qisqacha javobi tinglanib bo'lingandan so'ng metodning natijasi aniqlab boriladi. Pedagogik texnologiyalar ham darsda o'quvchi (talaba)lar faolligini yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilab olinadi, maqsadga erishishga yo'l ochadi. O'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati o'quv jarayonida, ortiqcha harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga, ko'zlangan maqsadga, natijaga erishishga undaydi. Bugungi yoshlarimizni har tomonlama yetuk shaxs, haqiqiy kadr qilib voyaga yetkazishda axborot texnologiyasi, texnik vositalar, ko'rgazmali qurollar, slaydlar, kompyuter, electron aloqa, radio, televideniyadan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyaning eng asosiy belgilaridan bo'lib, milliy dasturda o'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarishning muhim vositasi bo'lganligi uchun, oldindan pedagogik loyihalangandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. O'quv-tarbiya jarayoni natijalarini ob'ektiv nazorat qilish va sifatli baholash pedagogik texnologiyaning o'z oldiga qo'ygan natijaviy maqsadidir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashuvi natijasida komil insonni tarbiyalash, har-bir talaba hatti-harakati, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirish, talabaning amaliy hayotida, bilim, malaka va ko'nikmalarini to'g'ri tadbiq eta olishga yo'llash, yuksak bilimga ega kadrlarni tayyorlab berish oliy maqsadimiz sari doimo izlanish va harakatda bo'lishimizni talab etadi. Mustaqilligimizning sharofati bilan Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam



o'rin egallab borayotgan O'zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'alariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat toboro ortib bormoqda"<sup>1</sup>.

Bizning har bir sohada bilimdon, tadbirkorligimiz, birdamlik, hamjihatlikka egaligimiz, ota-bobolarimizni ijodiy meroslari-yu, buyuk mutafakkirlarimizning shunday ozod, obod, erkin demokratik fuqarolik jamiyatini qurish uchun o'zlarining butun umrlarini baxshida etib, mustaqillikka tamal toshi qo'ib ketganlari kunday ravshan.

Mustaqil O'zbekistonning mamlakatlar ichida eng barhayotligi elimiz birligi, tinch-osoyishtaligi, gullab-yashnashi, barchasi yoshlarimizning hamfikir, hamjihatligidadir. Bugungi bilimdon, aqlli, zukko yoshlarimiz bor ekan, biz ular bilan faxrlanamiz, buyuk siymolar avlodi ekanligimizdan g'ururlanamiz, butun hayotimiz davomida bu bizga katta kuch beradi. Hayotda barcha o'zgarishlarga befarq bo'lmaslik, bo'layotgan ijobiy natijalarga o'zining hissasini qo'shish uchun mehnatini ayamaslik, o'zidagi e'tiqod, maslak, qiziqish hamda o'zi yashab va ishlab turgan jamiyatda muayyan kayfiyatni davomiyligi katta ahamiyatga egadir. Bardamlik, xushchaqchaqlik kayfiyati biz o'zbek xalqining asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi.

Mustaqillikka to'la erishib olgungacha bo'lgan vaqtlar ichida qancha uqubatli mehnatlarga duch kelindi. Endilikda ota-bobolarimiz orzu qilib kelgan ozod, obod, tinch, osoyishta, erkin demokratik fuqarolik jamiyatda hayot kechirishning o'zi katta baxtdir.

Hayotdan zavq olish hissi insonning aqliy faoliyati bilan bog'liq. Qiziqish, ishonch, kelajakni ko'ra bilish tuyg'usi, intilish, mehnat qilish tuyg'ularining paydo bo'lishi yoshlarni ilk kichik yoshdan boshlab ularga amaliy namunaviy tarzda ko'rsatib berish yoki yo'nalish berish orqali tafakkurini boyitib borish lozimligi, har doim faoliyat davomida ularni to'g'ri yo'nalish berilib borish, to'g'ri fikrlar berish, yoshlarni tafakkurini rivojlanib borishiga undaydi. Tafakkurni rivojlantirib borish texnologiyasi har bir pedagogda bo'lishi juda muhim va shart. Yangilik hissining ta'sirchanligi, ayniqsa kuchli bo'ladi. Insonning izchil, tizimli harakati ravshanlik bo'lib turganida mantiqiy tafakkurdan mamnun bo'lish, mamnunlik esa intilish, harakat, mehnatga undovchi intellektual hissiyotlarni vujudga kelishiga chorlaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008y, 139-bet.



Insondagi intellektual hissiyotlar aqliy faoliyat bilan bog'liq. Ma'naviy, axloqiy, insonparvarlik, vatanparvarlik, o'rtoqlik va do'stlik, estetik va hokazo hislarni yoshlar vijdonan yondashuvi bilan ular tafakkurida shakllanib borishi, mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ravnaqi, go'zallashib, qadr-qiymatini oshib borishi, uning qadriga yetishga barcha sohalarida rivojlanish san'ati yanada kuchayib borishini ta'minlaydi. Go'zallik hissi insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularda birdamlikning o'sishiga yordam beradi. Ma'naviy axloqlarni mustahkamlaydi va ularni axloqiy hatti-harakatlarini rag'batlantiradi, mustahkam kuch oladilar.

Agarda inson tafakkurini bolalikdan faoliyati davomida barcha turlarida to'g'ri yo'nalish berilib borilmasa, hayoti davomida to'g'ri fikrlar, to'g'ri hatti-harakatlarni vujudga keltira olmasa, mehnatini jonlantirilib borilmasa, insondagi fikrlar, his qilish, ishchanlik faoliyatining pasayib ketishiga olib keladi va buning natijasida dangasalik kelib chiqishi mumkin. Ijobiy hislar bolani g'ayratli qilishga, o'z mehnati orqali o'zidagi qobiliyatni o'sib borishi va uni rivojlantirib borishiga olib keladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim, oilada, maktabda, kollejlarda, institut, universitetlarda, ishlash sohalaridagi umumta'limiy ko'rsatmalarning barcha-barchasi ijobiy natijalarni beradi. Yangilik uchun, go'zallik uchun, Vatanimiz tinchligi, osoyishta turmush kechirishlik ularning doimo barhayotligi uchun kuchli his tuyg'ularni bo'lgandagina olib boriladi. Jamiyatimizga nisbatan yuksak ijobiy hislarni o'stirish, yoshlarni bilim, tafakkurini o'stirish juda muhim bo'lgan vazifalardan biridir.

Mana shu vazifani amalga oshiruvchilari oila, mahalla, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar kollejlar, akademik litseylar institutlar, universitetlar va boshqa sohaning xodimlaridir. Bunda birdamlik, hamjihatlik, do'stlik, birodarlik bo'lib doimo harakatda bo'lishlikni biz pedagoglardan ham talab etilayotgan jarayon bo'lib hisoblanadi.

“.... – hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi”<sup>2</sup>.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'z asarida aytganidek ma'naviyatimizni qanchalik yuqoriligi, tafakkur yuqoriligi bu yurtimizning oliy muvaffaqiyatlaridan biridir.

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008y, 116-bet.



Mustaqilligimizning abadiyligi, go'zalligi, mustahkamligi bundanda yanada yuqorilab boraversin, tarixda shunday ajoyib, go'zal O'zbekistonning bardavomligi asrlar, ming-ming yillab davom etsin va yurtimizning ko'rkiga ko'rk, mustahkamligiga mustahkamlik, go'zal ravnaqi va rivojiga yoshlarimizning har biri o'zining hissasini qo'shaversin.



## **UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI**

Go'zal va obod Vatanimizning bugungi jamoli butun dunyoga yuz tutgan bir davrda ulkan yondashuvlarni tadbqiq etib o'zining ulug' nufuziga ega bo'lib kelmoqda.

Mustaqil Respublikamizning yangi ijtimoiy-iqtisodiy, texnik rivojlanishining hozirgi bosqichida barcha sohalar kabi ta'lim jarayoniga ham yangicha tarzda ilm-fan, texnika taraqqiyoti hamda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi rivojlanishlar, jamiyatda yashovchi har bir kishidan, ayniqsa, yoshlardan teran bilim, yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtirib, axborotlar tizimi ichida erkin yo'nalish va ulardan eng zarurini tanlay olish, foydalana bilish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos o'zimizning "milliy model"ni hayotga tadbqiq qilishga, ma'naviyatimizni bundanda yuksaltirishga, yoshlarimizni jismoniy, aqliy, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, estetik-ekologik, madaniy-ma'naviy sog'lom o'sishi, zamonaviy, bilimli, zukko, o'z muammolarini o'zi yecha oladigan tadbqirkor, bugungi kun talblariga javob bera oladigan barkamol, uddaburon kadrlar qilib voyaga yetkazishga qaratilgan. Umuman olganda, bog'cha yoshidan boshlab, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarda, oliy ta'limda va boshqa muassasalarda ham o'qitishni modernizatsiyalash o'zining ko'p qirrali maqsad-vazifalari bilan ajralib turadi va ta'lim tizimida bir qator aksiomatik vazifalarni oldiga qo'ygan.

Ushbu kunda ta'lim-tarbiya tizimida kadrlar tizimi va mazmunini mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilmoqda. O'quvchilarning mantiqiy mushohada qilish jarayonida ta'limni samarali shakllari va usullaridan foydalanish, bu albatta yuksak natijalarga olib kelmoqda. O'quvchilarni interfaol usullardan foydalanish, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarini faolligini oshirishga doir tavsiyalardan foydalanish bu ta'lim samaradorligini yanada oshirish uchun o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ayniqsa, yoshlarimizda ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish, a'lo



darajaga ko'tarishda har bir bayram tadbirlarda o'tkaziladigan tadbirlar tsenariylari ishtirok etuvchi talaba-o'quvchilar erkin tafakkurini ko'rsatadi. Chunki, bugungi kunda axborotlashgan XXI asrda go'zal bir osoyishta Vatanda yashab kelmoqdamiz.

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov nutqida 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilganidan yaxshi xabardormiz.

"Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz"-deb ta'kidlaganlar.<sup>3</sup>

Ana shunday buyuk vazifalarni amalga oshirish uchun bajarilayotgan barcha ishlar Prezidentimizning ko'rsatmalari orqali muqaddas Vatanimizda farzandlarimizning baxti uchun mehnat qilish, burchimizni o'z vaqtida kechiktirmasdan bajarish kerak bo'lgan barcha ishlarni, harakatlarni paysalga solmay millatimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko'tarilishi, yangi qadamlar, xalqimizning shijoatkorona mehnati va barcha imkoniyatlarga ega ekanligi, yurt tinchligi, go'zal kelajak, mustahkam kuch-qudratga ega bo'lish, yangi-yangi muvaffaqiyatlarga erishish yo'lida amalga oshirilmoqda. Bu yo'lda butun O'zbekiston xalqi birdam bo'lib, hamjihatlikda xush kayfiyatda harakatda bo'lishib, bugungi kundan zavqlanib farzandlar ta'lim-tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratishmoqda.

Bizning yoshlarimiz uchun bugungi kunda maktablarda, kollejlarda, litsey, institutlar, universitetlar hamda boshqa muassasalarda har xil to'garaklarning faoliyati ham yoshlarni qiziqishi bo'yicha yo'naltirish, bugungi yoshlarning intellektual bilimlarga ega bo'lishi uchun imkoniyat yaratmoqda. Hozirgi kunda yoshlarimiz o'z bilim va sportdagi yutuqlari, san'at, madaniyat, musiqaviy ishlari bilan chet-ellarda oily o'rinlar olib, O'zbekistonimiz nufuzini yuqoriga ko'tarib, o'zlarining iqtidori, odob-axloqi bilan yuksak o'rinlarga, yuksak cho'qqilarga erishib kelmoqda.

Hatto, boshlang'ich sinf o'quvchilaridan ham kichik ijodkorlar chiqishi bu albatta quvonarli holatdir. "Istiqbol g'unchalari", "Yangi avlod" gazetalari, "Qalb quyoshi" jurnali "Bilimdon", "2x2" jurnallari sahifalarida ijodkor yoshlar uchun barcha sharoitlar bor. Yoshlarning har

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir", Toshkent, "O'zbekiston", 2010y



tomonlama zehnini oshirib bormoqda. Ta'lim-tarbiyaga bugungi yondoshuvlarning natijalari kundan-kun sezilib bormoqda.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI YANADA YUKSALTIRISHDA "KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI"NING O'RNI**

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning hayotga tadbiq etilishi bu har bir yoshlarimizning o'zi xohlagan kasb egasi bo'lib voyaga yetishida hamda hayotidan qoniqish hissini paydo qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'z-o'zidan o'z kasbiga sodiqlik, oilaga va Vatanga sodiqlikka chaqiradi. O'z kasbini, oilasini va Vatanini sevgan kishidan yomon fikrlar chiqmaydi.

Dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, hal qiluvchi omil bu intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg'or texnologiyalardadir.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan aytilgan: "Kuch - bilim va tafakkurda" degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol shaxs, inson va shu jumladan ongli jamiyatning shakllanishiga, ya'ni yangicha ongga, tafakkurga ega bo'lgan kadrlarni ko'payishiga va o'z navbatida haqli ravishda ularning ongli faoliyat ko'rsatishga olib keladi.

Har bir insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar har bir inson o'zidagi to'la ichki quvvatni to'la yuzaga chiqarish uchun o'zida barchasiga sabr, mehnat, qanoat va albatta intilish harakatida bo'lsa, yaratilayotgan imkoniyatdan vaqtida to'la foydalana olsa, bunda ijobiy natijalarga ega bo'ladi. Buning uchun mamlakatimizda yaratilayotgan bor imkoniyatlardan o'z vaqtida to'g'ri xulosa chiqarib, doimo yangicha izlanishda, harakatda bo'lgan, olgan ilmini ijobiy ishlarga sarflasagina jamiyatimizning ongli shaxsi bo'lib yetishadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarini amaliyotga tadbiq etish Respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan samarali ishlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi-tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma'naviy qiyofasi ham mahoratlarini yanada yuksalishiga bugungi attestatsiya, akkreditatsiyalash ishlaridan so'ng ijodiy salohiyatlarni to'la rivojlantirish ishlari jadal rivojlandi. Maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, kasb-hunar ta'limi, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlarida va barcha ta'lim muassasalarida



yangicha fan va texnika yutuqlari ta'lim-tarbiya sohasidagi yangiliklardan boxabar etib borishni amalga oshirdi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi hamda bu boradagi dastlabki yutuqlar qo'lga kiritildi. Bugungi kadrlarga qo'yilayotgan barcha yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri olib boorish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbolli vazifalarni ilgari qo'yib, ularni hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Shunday ekan, dastur kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda bajarib, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va jamiyat, davlat, oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelmoqda. Barcha muayyan vazifalarni hal etish va to'plangan tajribani tahlil etish, umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini yanada rivoji hamda ijobiy natijasini ta'minlash, rivojlantirish yoshlarimizning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyati, ta'lim tizimining mazmuni shaxsning har tomonlama rivojlanishi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topayotgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantirmoqda.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosini O'zbekistonning taraqqiyotini ta'minlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarishga hissa qo'shuvchi, mustaqil dadil fikrli, bilimli, malakali mutaxassis, ayni paytda insoniy va ijobiy sifatlarga boy bo'lgan kadrlarni tajribasi orqali kelajak avlodlarimizni voyaga yetkazishni tashkil etadi.

Barkamol avlodni va yetuk malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni yetkazib berish milliy model mohiyatini o'zida ifoda etadi.

Shuning bilan birga Prezidentimiz I.A.Karimov "Eng asosiy mezon-hayot haqiqatini aks ettirish" asarida "...., yosh avlodimizni qalbi va ongini asrash, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, farzandlarimizning, eng muhimi, o'z mustaqil fikriga ega,



sodda qilib aytganda, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lishiga erishish ta'lim-tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizning asosiy sharti va mezoni bo'lishi darkor",-degan edi.

Demak, bugungi barkamol avlodni va yetuk kasb egalarini voyaga yetkazishda Prezidentimiz yaratayotgan barcha imkoniyatlardan, davlatimiz qonunlari va amal qilish kerak bo'lgan ta'limiy va tarbiyaviy ko'rsatma va hujjatlari ijrosida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilayotgan nizomlar, qarorlarga asoslangan dastur, qo'llanmalar, nashr etilayotgan kitoblar va ta'limning yangi texnologiyalari asosida tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyani tizimli ravishda amalga oshirish biz pedagoglarning eng asosiy birinchi vazifamiz va maqsadimiz mazmunining tub negizidir.

## **YOSHLARNI MA'NAVIY YETUKLIKKA ERISHISHGA UNDOVCHI YO'LLAR**

Shaxs baxti va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda uning harakati, intilishi, ichki bilish, his qilish darajasiga bog'liq holda tashqi o'zlashtirmalarni ham hisobga olgan holda har bir narsalarni, voqea-hodisalarni ijobiy hal qilishni taqozo etadi. Tashqi o'zlashtirmalarda o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining mukammalligi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Muayyan sharoitda o'quvchi, yoshlarning ma'naviy yuksalishi, bilimni yanada oshirishning tub mezonlaridan har bir qonunlar xususiyati va ularning amalda qo'llanishi muhim, zaruriy, umumiy barqaror munosabatlarni ifodalanishini taqozo etadi. Qonunlar o'zining xilma-xilligi bilan hamda jamiyatda bajarilishi ob'ektiv jarayonlarni o'zida aks ettirishiga qarab, bir-biridan ajralmagan holda tizimli, izchil bajarilishini talab etadi. Jamiyat qonunlari esa inson faoliyatida paydo bo'lgan shart-sharoitlar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

Harakat qilish doirasiga qarab rivojlanib borayotgan keskin voqealar barchasi mamlakatimizning kelajagiga mustahkam poydevorimiz bo'lgan yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirib borishda unga amal qiluvchi qoida va qonunlarni o'z vaqtida bajarilishi ta'minlashini talab etadi.

Maktablarda o'qishning hamma bosqichlarini har bir predmetni o'zlashtirib borish bilan o'quv malakalarini egallash, tarbiyaviy jihatini yuksaltirib borish ham zarur. Ta'limiy ko'nikma va malakalarning tarkib topishida zo'r diqqat va irodani birinchi o'rinda turishini unutmasligimiz



lozim. O'quvchilarga berilgan vazifani mohirlik bilan bajarishni, ko'proq vaqtdan unumli foydalanishni, ichki intilishini, oldindan his qilishni hamda ijobiy munosabatlar, dadillik va mustaqillikni, onglilik kabi kommunikativ xislatlarini mujassamlashtirgan holda ularga katta e'tiborda bo'lishimiz, bu yoshlarimizni har bir qilayotgan ishning natijalari tub mohiyatini anglab yetishga chorlaydi. O'quvchilarning jismoniy tarbiya ko'nikmalari, mehnat qilish ko'nikmalari, ijodkorligi shakllanib borishida, sog'lom turmush tarzi, ya'ni turli oqimlar ta'siridan saqlashimiz bugungi kunda muhim vazifalardan hisoblanmoqda.

Bugungi tez sur'atlar bilan o'zgarishlar, yangiliklar, yangi davr yoshlari ta'lim-tarbiyasini bundanda yuksak darajaga yetkazishni, har xil salbiy oqibatlar oldini olishni talab qilmoqda.

O'ta shiddatli va murakkab bir jarayonda yashamoqdamizki, bunda albatta yoshlarni serqirra, ijodkor, tadbirkor, ongli, bilimdon qilib shakllantirish muhim omillardandir.

Har bir bola ta'lim-tarbiyasida unga oq va qorani, yomon va yaxshini, ijobiy va salbiy tomonlarni to'liq, aniq tushuntirib borish, bularning natijalari nimalarga olib kelishini anglatish kunning talabi bo'lib qolmoqda. Globallashuv - bu hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvidir. Bu jarayonda tobora tez kirib kelayotgan ijobiy o'zgarishlar davlatimizni rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga olib kelmoqda. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar o'quvchi o'z mustaqil fikriga, sog'lom negizda shakllanishiga, dunyoqarashiga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har qanaqangi tahdidlarga, tashqi kuchlar ta'siriga tushib qoladi. "Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda....."<sup>4</sup>

Erkin demokratik jamiyat qurish vazifasida qat'iy amaliy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishni hamda ularni og'ishmay amalga oshirishni birinchi vazifa deb bilishni har kim tushunib yetishi lozim. Beparvolik, loqaydlik illatlari oilada ham bo'lmasligi lozim. Ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yilishi har qanday salbiy oqibatlarning oldini olish uchun zamin yaratadi. Vatanimizdagi katta o'zgarishlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, barcha sohalaridagi kabi ta'lim-tarbiya ham o'z ijobiy yo'lini tanlab olgan, davlatimiz "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, DTS, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari"ning o'z vaqtida bajarilishi juda yaxshi

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008y, 114-bet.



samaralar bermoqda. Bugungi yoshlarimiz o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi tura oladigan, irodali, fidoyi va vatanparvar ruhdaki, kuchlarimiz shu yoshlardir. Faqatgina ularni o'z kasbini to'g'ri tanlab, shu kasbini ustasi bo'lib voyaga yetkazishga, har birini burchini, mas'uliyatini his qilib, ongli ijobiy harakatga undab turish, har doim nazoratda ushlash, ularni bugungi sermazmun hayotda ilm-fan, ijod, sport, tadbirkorlik va boshqa sohalarida ham chiniqtirib borish zarur. O'z muammolarini yechishida ozgina ko'maklar berish, orzu-istaklarini tinglab, to'g'ri yo'nalish berishimiz, ularga faqatgina har bir narsaga erishish yuksak mehnatni talab etishini tushuntirishimiz lozim.

**SHOIR VA MUTAFAKKIR, BUYUK ADABIYOTSHUNOS,  
O'ZBEK TILIMIZ ASOSCHISI BOBOMIZ  
MIR ALISHER NAVOIY**

Tarixda o'zining buyuk, go'zal doston va asarlari bilan butun dunyoga tanilgan bobomiz Mir Alisher Navoiy she'r tinglashni va aytishni juda ham sevgan. Alisher Navoiyning "Bolalik ajoyibotlari", "Yoshlik nodirliklari", "O'rta yosh go'zalliklari", "Qarilikning foydalari" to'rt qismdan iborat "Xazoyinul maoniy" to'plamiga jamlangan. Bobomiz Mir Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti va adabiy tiliga asos solgan. Badiiy asar yaratish uchun o'zbek tili ham fors va arab tillari kabi imkoniyatga egaligi, ayrim vaqtlarda esa ulardan ham ustunligini asoslab bera olgan.

Mir Alisher Navoiy barcha asarlarida axloq qoidalariga rioya qilgan. "Xamsa" asarini yaratib, unda inson barkamolligi masalalarini alohida ko'rsatib bergan. Insonni kamolotga erishishga yo'llovchi pandu-nasihatlariga boy didaktik asarlar ham yaratgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur to'g'ri aytganidek, tarixda hech kim turkiy tilda Navoiychalik "ko'p va xo'b" ("yaxshi") asarlar yozgan emas.

Navoiy butun turkiy adabiyotda eng katta lirik merosga ega shoir hisoblanadi.

Keyingi yillarda Tokio, Moskva va Bokuda ham ulug' bobomiz Mir Alisher Navoiyning haykali qad rostladi.

Navoiy davrida shogirdlik yo'li bilan ilm, hunar, san'at, fan o'rganish ancha keng tarqalgan bo'lib, o'sha davrlarda ham hunar-san'at ustalarining shogirdlari juda ko'p bo'lganlar. Mutaxassislardan tabib, kimyogar, shoir, san'atkor, hunarmand, hattotlar, me'morlar hunarini o'rganish avj olgan.



O'z tilini to'liq o'rganib, so'zlash odobini o'zida mujassamlashtirgan yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonini ham, ustoz berayotgan bilim va ko'nikmalarni, o'zligini anglashni, teran fikr yurita olishini ta'minlash bu muallimlarning oldida turgan birinchi chiroyli, eng asosiy burchi ekanligini aytgan ulug' kishilardan biri ham Navoiy bobomizdir. Mir Alisher Navoiy bobomiz amaliy ishlarida ham, badiiy va ilmiy asarlarida ham o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi masalalariga alohida e'tibor bergan.

Navoiyning fikricha, bolalarga tarbiya va ta'lim beruvchi kishilar ma'lumotli va o'qitish yo'llarini biladigan bo'lishi lozim.

Yosh avlodni tarbiyalash-o'qitishni o'z ishini puxta bilgan kishigina olib borishi uqtirgan, har qanday tasodifiy kishiga topshirishni esa qoralagan.

Navoiy bobomiz o'qituvchiga eng yuksak talablar qo'ygan, bolalarni tarbiyalash, unga ta'lim berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun nihoyatda bilimdon va usta tarbiyachi bo'lishi, yoshlarga ilm, odob o'rgatish mahoratiga ega bo'lishi, o'qitish yo'llarini puxta bilishi zarurligini aytganlar.

Mir Alisher Navoiy o'z asarlarida yana ichkilikni ham qoralagan. Bundan ma'lum bo'ladiki, ulug' mutaffakkir ichkiliklar barcha yomonliklarni olib keluvchi yomon illat ekanligini ham o'zining asarlarida asoslab berilishi, bizning buyuk bobomizning qanchalik o'z zamonasiga ham butun zamonlar uchun dolzarb bo'lgan masalalarni o'rtaga tashlaganligini isbotlaydi.

Mir Alisher Navoiyning ichkilikni qoralaganligi, qanchalik bugungi kunga ham ta'lluqligi, hozirgi paytda barcha illatlar mana shu ichkiliklar oqibatida ekanligidadir. Shoirning barcha fikrlari, pandu-nasihat, hikmatli so'zlari barchasi har qanday davrda ham o'z kuchini yoqotmasligi, o'z vaqtida har davrga mos holda o'z buyuk kuchga ega ekanligi tahsinlarga loyiq, qanchalar tasannolar aytib, ezozlasak va ularga amal qilsak, yashayotgan jamiyatimizda nufuzli o'rinlarga ega bo'lishimizni ta'minlaydi. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov yurtimizning barcha viloyatlarida ham Alisher Navoiyning haykallarini tiklashni ta'kidlaganlari buyuk mutafakkirga bo'lgan buyuk ehtiromning namunasidir. Biz shunday bobolarimiz avlodi ekanligimizdan faxr tuyg'usi bilan o'z zamonimiz buyuk-buyuk kishilariga o'xshashga harakatda bo'lsak, bunda albatta katta zafarlarni qo'lga kiritishimiz tabiiy.



Ichkilik, ya'ni spirtli moddalarning inson va jamiyatga qanchalik salbiy ta'sir va oqibatlariga olib kelishi boxabarlikni talab etadi.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan hozirgi davrda buyuk bobomiz Mir Alisher Navoiyning asarlari, dostonlari, ruboiy, barcha hikmatli so'zlarini yosh avlodga chuqur o'rgatib borishimiz zarur, chunki bobomiz asarlarida milliy iftixor, xalqqa, ona tiliga, Vatanga mehr-muhabbat o'ta kuchli tarzda ifodalangan. Ulug' shoir va mutafakkir yoshlarni eli-yurtiga, ota-onasiga sodiq bo'lishiga, sabot va matonat bilan bilim olishga, kasb-hunar o'rganishga, bor kuchu bilimini Vatan uchun, xalqimizga foyda keltiradigan har tomonlama aqlli, zukko bo'lishga, tinchlik, do'stlik, mehribonlik, kamtarinlikka chorlovchi yo'lchi yulduz bo'lib qoladi.

### **BUYUK MUTAFAKKIR ABU NASR FAROBIY ASARLARINING HOZIRGI ZAMONDA YOSHLAR TA'LIM- TARBIYASI VA MA'NAVIY KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI**

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy 879-yilda Movarounnahrning Forob viloyatida tug'ulgan. Forobiyning 160 dan ziyod asarlari mavjud. Arastudan keyin, "Sharq Arastusi" nomiga sazovor bo'lgan va dunyoga mashhur bo'lib, butun asarlari axloq usullari, tarbiya, tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, matematika, ijtimoiy hayot, bilishning shakllari, bosqichlari va she'riyatga bag'ishlangan. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida insonga bilim va tarbiya berishni asoslagan. Insonlarning diniy mazhabiga emas, tabiiy xususiyatlariga, avvalo iqtidori, ilmga qiziqishi, bilimi, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilimlari va ko'nikmalariga katta ahamiyat berib boradi. Forobiyning falsafasi ko'proq insonparvarlik g'oyalari alohida e'tibor bilan barcha millatlar tinchligiga, ozod, shodlik-quvonchla baxtiyor hayot kechirishi lozimligi, kishilar o'rtasida samimiy do'stlik, hamkorlik ularning kundalik hayotining mazmuniga aylanib borishiga yordam beradi. Insonni baxt- saodatga erishishida etika va siyosiy guruhlariga ajratgan. Etika-axloqshunoslikdan iboratligini, siyosiy fanlar esa davlatshunoslik, psixologiya, pedagogika muammolarini o'rganish, xushaxloqli bo'lishga, sadoqatli, aqlli, idrokli bo'lishini aytib o'tadi. Insonni barkamol bo'lishi uchun eng birinchi yuksak axloqqa, ya'ni ijobiy axloq egasi ekanligini o'zining axloqiy g'oyalari bilan hatti-harakatlarining boshqarilishi butun jamiyat jamiki a'zolari odob-axloq normalarini boshqarish haqida bilim beradi va Forobiy axloqni ezgulik-



yaxshi sifatlarga va yovuzlik-yomon sifatlarga ajratgan. Inson baxtga erishish uchun o'zaro yordamni, ahil-inoq yashashni, hamkorlikda yuksak axloqiy munosabatda bo'lishlikni, real hayot sharoitida erishiladigan, hamda intilish, ishtiyoq, qiziqishla intilishda yashashlikni aytadi. Forobiyning fikricha, baxt-aql va fan yordamida ma'naviy-madaniyatning cho'qqisiga erishishi uni keyingi yillar davomida, asrlar davomida ma'naviy-madaniyatni o'lmas boqiy bo'lib qolishiga xizmat qilaverishi insonlarga avloddan-avlodga o'tishi, yangi-yangi yutuqlarga erishish bilan boyitilib boraverishidan darak beradi. Forobiyning asarlari: "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Inson a'zolari haqida risola", "Bo'shliq haqida maqola", "Donolik asoslari", "Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi", "Hayvon a'zolari, funksiyasi va potensiyasi", "Mantiq ilmiga kirish", "Musika haqida katta kitob", "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Masalalar mohiyati", "Buyuk kishilarning naqlari", "Ihso alulum", "Hikmat ma'nolari", "Aql to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati", "Qonunlar haqida kitob", "Substansiya haqida", "She'r va qofiyalar haqida", "Ritorika haqida kitob", "Hajm va miqdor haqida so'z", "Musika haqida so'z", "Fizika usullari haqida kitob", "Fazilatli xulqlar", "Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima", "Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida", "Falsafiy risolalar", "Matematika risolalari", "Ijtimoiy-axloqiy risolalar", "Tadqiqotlar va tarjimalar" kabi asarlari nashr etilgan.

Forobiy ilk o'rta asrda, sharq Uyg'onish davrida ijod qilgan. Bu vaqtda hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining rivoji, yangi shaharlar bunyodkorligi, madaniy va ma'naviy hayotning ravnaq topish bilan ajralib turadi. IX-X-asrlarda ichki va tashqi savdo kuchaydi, ayniqsa Hindiston, Xitoy, Vizantiya, Afrika mamlakatlari aloqalari kuchaygan. Bu vaqtlarda qarama-qarshiliklardan, adovatliklardan holi emas bo'lgan. O'sha davrda olimlar fanlarni sharhlab, yangi g'oyalar bilan boyitib borgan. Forobiy Arastu asarlariga sharhlar bitgan va uning natur falsafiy g'oyalarining targ'ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan.

Forobiy o'rta asrda muammoli hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. Forobiy "Ilmlarning kelib chiqishi haqida", "Ilmlarning tasnifi haqida" nomli risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi. Mutafakkir tabiat va inson organizmiga xos bo'lgan tabiiy jarayonlarni o'rganuvchi ilm sohalarini birinchi o'ringa qo'yadi. Forobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi:



- 1). Til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she'riyat, to'g'ri yozuv va bilimni o'z ichiga oladi);
- 2). Mantiq (8 bo'limdan iborat bo'lib, tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o'z ichiga oladi);
- 3). Matematika (arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va o'g'irlik haqida ilmdan iborat);
- 4). Tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika;
- 5). Shar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, pedagogika, axloqshunoslik va kalom kiradi).

Forobiy fanlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etilishidan kelib chiqib tasniflaydi.

Forobiyning fikricha fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, uzoq vaqtda borliqni o'rganib shu asosida to'planib boradi va bu bilimlar ilm olishda bir-birini to'ldirib o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda yanada rivoj topadi. Ular dunyoni idrok qilish, baxtga erishishga qaratilgan. Forobiyning barcha asarlarida talqin etilgan fikrlarining hamma vaqt o'z kuchini yo'qotmagani bugunda ham katta ahamiyatga ega. Mutafakkir Forobiy bobomizning barcha asarlari hozirgi kunda yoshlar ta'lim-tarbiyasida ma'naviy kamol topishida juda katta ahamiyat kasb etadi. Har bir asarlari chuqur mazmunga egaki, unda barcha fazilatli, ijobiy xislat egalari ilm olish har doim insonparvarlik, axloqiylik, bilimdonlik, tarbiyalanganlik, umrining ezgu ishlar bilan boyitish kabi xislatlarni yanada rivojlanib borishiga, yuksak ijobiy natijalarga erishishga olib keladi.

Har bir vaqtda ham fan, madaniyat, ma'naviyatning oshib borishi yangi-yangi kashf etishlar, yoshlikda ilm olishga qiziqish, bilimlarni o'zlashtirib borish, odob-axloqqa jiddiy e'tibor qaratish, insonlarni makrhiyladan, yomon ishlardan yiroq bo'lishga, xiyonat va o'ziga bino qo'yishlardan, avvalo loqaydlikdan uzoq bo'lishga chorlaydi. Mutafakkir, alloma, buyuk olim, ulug' ustozlarning biri Farobiyning o'qitishga doir g'oyalari, asarlari yoshlar ta'lim-tarbiyasi, inson kamoloti negizlari, fikr-mulohazalarining rivojlanishiga faqat ijobiy ta'sir ko'rsatgan va bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Butun dunyo mamlakatlari XVI-XI asrlarda ham tinch-totuvlik va o'zaro hamkorlik, insonparvarlik, xalqni baxt-saodatga eltuvchi, xalqongida barcha ijobiy xislatlar to'planib borgan bo'lishi lozimligi bugungi kunda ham yuksak saodatga eltuvchi da'vat, kuch, harakat ekanligini anglamoqda. Bu esa buyuk bobomiz Farobiyning asarlari hech qachon o'z qadrini yo'qotmasligidan dalolatdir.



## **O'QUVCHILARDA TABIATGA EHTIYOTKORONA MUNOSABATDA BO'LIISH TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

Ekologik ta'lim-tarbiyaning asosi inson tug'ilibdiki, unga otabobolardan qon-qoniga singib kelayotgan tozalik, ayniqsa, o'zbek xalqiga xos bo'lgan bog' yaratish, uni o'stirib o'zidan ortganini barchaga ulashishdir.

O'zbek xalqining mehnatkash xalqligi tufayli O'zbekistonimiz obod-ozoda turmush kechirmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli yerlar xalqqa – fermer xo'jaliklariga berilishi, chorva bosh sonini ko'paytirish, suvdan unumli va oqilona foydalanish choralarining ishlab chiqilishi, mamlakatimiz tomonidan bog'dorchilik, g'alla, paxta ekin maydonlarining ko'paytirilishi o'zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Mahalliy sharoit inson faoliyati orqali go'zallashadi, tozalanadi. Bu go'zallikni saqlash o'z qo'limizda. Shuning uchun bu go'zal vatanni obodonligi bizning ijobiy ishlarimizni qanchalik o'z vaqtida bajarishimizga bog'liq. Bas, shunday ekan, biz o'sib kelayotgan yoshlarimizga tabiatni asrab-avaylash, uni muhofaza qilishni doimo o'rgatib borishimiz o'ta muhimdir. Chunki, bugun va ertamiz shu aziz yoshlar qo'lida. Bugungi kunda bog'cha, maktab, oila, kollejlari, litseylar, oliygohlar, tashkilot va korxonalarda ham tabiatga o'zgacha ijobiy ko'z bilan qaralmoqda. Barchamizning "Navro'z", "Xalqaro hashar" kunlarida daraxt ko'chatlari, gul ko'chatlari o'tqazishimiz, bog'lar yaratayotganimiz bundan dalolatdir. Shunday qilib, quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

1. Ilk oiladan bolani to'la aqli yeta boshlagan chog'idan boshlab, daraxt, gullar, nihollar ekishni o'rgatib borishimiz lozim. Ularni o'sishdavrida sug'orib turish, ishlov berishni kanda qilmaslikni o'rgatib borishimiz zarur.

2. Atrof-muhitdagi jarayonlarni doimiy ravishda kuzatib boorish va muhitni ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik.

3. Tabiatda sodir bo'layotgan hodisalar va ular bilan bog'liq ekologik oqibatlar haqida ma'lumotlar yig'ish.

Tabiatdan foydalanishni ongli ravishda boshqarish, atrof-muhitning tabiatga ta'sirlarini, o'zgarishlarini, ya'ni salbiy ta'sirlarni oldini olish, insoniyat hayotida ma'lum ijobiyliklarga erishish, atrof-muhitni toza saqlash va boshqa muhim sifatlarni oldindan o'rganib, amalda qo'llay bilish insonga xos xususiyatlar bo'lib hisoblanadi.



Mahalliy sharoitning barcha ko'rsatkichlari me'yoriy bo'lishi lozim. Tabiatdagi barcha kuchli va salbiy hodisalar og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bugungi yoshlarimiz ongida tabiatga mehr-muhabbat hissini yanada yuqori bo'lishi uchun ularga ta'lim-tarbiyada doimiy eslatib turishimiz lozim.

Tabiatga ehtiyotkorona munosabatlarni tadbirlar asosida tushuntib borish, ularni tabiat darslarida ekskursiyalarga olib chiqib turishimiz ham muhim o'rin tutadi. Masalan, 3-4 sinflarda tarbiyaviy tadbirlar "O'simliklar olamida", "Gullar bayrami", "Flora va fauna", "Navro'z", ko'chat, nihollar, gullar ekish tadbirlari o'tkazib turishimiz zarur.

"Gul bayrami" keng ma'noda, tabiat go'zalliklarini yanada ulg'aytirish, aholi istiqomat qilish joylarini ozoda va ko'rkam bo'lishiga, gullar ko'payib chamanzorlarga aylanishida, tabiat mo'jizaviy go'zalliklarni vujudga kelishiga sabab bo'lib, insoniyatga zavq-shavq bag'ishlovchi shodiyonalaridan biridir. Gullar bu – hayotga bo'lgan samimiy tuyg'ularni, shi bilan birga shodlik ulashuvchi, tabiatga mehr uyg'otuvchi go'zallik nishonasidir. Gullarga qarab insonlar baxtiyorlik, xursandchilik namunalarini ko'radilar, beixtiyor go'zallik shaydosiga aylanadilar.

"Gul bayrami"ni o'tkazishdan asosiy maqsad, shahar, ko'cha, hovli, bog'lar, maktablarni, chiroyli maskanlar atrofni gullarga to'ldirish, atrofning toza va go'zallashuvchiga o'z hissasini qo'shishdir.

"Gul bayrami"da tabiat go'zalligining mo'jizaviy manzaralarni inson o'z qo'llari, mehnati orqali yaratish, "go'zallik malikasi"- gullar targ'ibot qilinadi.

Bu bayramni jajji bolajonlar hamda maktab boshlang'ich sinflari bilan "Baxmal mavsumi" yozning oxirlari, kuzning boshlarida madaniyat va istirohat bog'larida o'tkaziladi. Maktab o'quvchilari yetishtirgan manazarali gullarni ko'paytirish, tabiatsevarlarni ko'paytirish, eng faol tabiat jonkuyarlarini sovg'alar bilan taqdirlab tabiatga qiziqish va hurmatini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu tadbirda o'quvchilar bir qancha rollar orqali gullar turlariga ta'rif berib, she'rlar o'qishadi. Ular haqida ma'lumotlar berishadi. Masalan: guldan atir tayyorlanadi, guldan sovun tayyorlanadi, guldan dori tayyorlanadi, guldan efir moyi olinadi, guldan asali asal to'playdi, gullar ob-havoni oldindan bilishga yordam beradi deya bir necha gullar haqida ma'lumotlar berishadi. Rollar orqali obrazli she'r, qo'shiq, matnlar o'qiydi. Bunday ertaklar o'quvchilarni nafaqat tabiatga qiziqishni, balki ularning go'zal ijobiy his - tuyg'ularining boyib



borishi, dunyoqarashi kengayib, nutq boyliklari, tabiatga mehr-muhabbat his-tuyg'ularining yuksak darajada rivojlantirib borish yo'llaridan keng foydalanib darslarda ta'lim-tarbiya berish, o'quvchilarda doimiy tabiatga mehr-muhabbatda bo'lishni o'rgatib borish biz pedagoglarga bog'liq bo'lgan vazifalardan biri. Albatta, biz pedagoglar bu masalalarni yechimlarini topib, bugungi yosh avlodni tarbiyalanganlik darajasini oshirib borish yo'llarini o'rganib boramiz. Bunda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tushunchalarini shakllantirib borishimiz zarur.

## **O'ZBEK TILIMIZ - BUYUK XAZINA**

Yaqin yillar ichida mustaqilligimiz tufayli biz o'z tilimizga asos solingandan buyon, tilimizni asoslab beruvchi olimu-allomalarimizning biz yoshlarga meros qilib qoldirgan qo'lyozmalarini o'rganish uchun zamonaviy taraqqiyotimiz bilan hamnafaslikda sa'y-harakat qilish biz pedagoglarning vazifasi deb bilaman. Shu yo'sinda biz har tomonlama o'quvchilar ongida hozirgi o'zbek tilimizning lotin alifbosi orqali so'z va so'zlar birikmalarining tuzilishi, ularni gaplarda qo'llay olish mahoratlarini oshirishimiz kerak.

Har birimiz fanning o'z usuliga, yo'nalishiga asoslangan ma'lum bir qoida, asoslariga egaligini ongli ravishda tushunib yetishimiz lozim.

Barcha fanlar kabi ona tilimizning ham alohida-alohida bo'limlarida o'z uslublariga tayangan holda tovushlar va so'zlar, gaplarning o'ziga xosligini, ularning tuzilish jarayonlarini biz ko'rib boramiz.

Bunda bir necha bo'limlarda gap bo'laklari, so'z birikmalarini tuzilish jarayonlarini ko'rib borish bilan bir qatorda ularning qanday qo'llanishlarini va har bir so'z va so'z birikmalari shiningdek gaplarni qanday qo'llanishlarini o'qituvchilar, fan nomzodlari, fan doktorlari va hatto professor o'qituvchilarimiz ham o'rganishadi. Biz pedagoglar ham kelajagimiz bo'lgan bolalarimizning bilimlarini oshirib, ularni mustaqil hayotga tayyorlay boramiz. Biz institutda olgan barcha, bilimlarimizni amalda qo'llab bugungi yoshlarimizga va kelajak avlodlarimizga o'rgatib, ularni kelajak sari dadil odimlar bilan to'g'ri, ravon, nurli yo'llardan shaxdam qadam tashlab borishga unday bilishimiz kerak.

Barchamiz ajdodlarimiz butun dunyoda tanilgan ulug' bir insonlar ekanligiga, ularning biz uchun qoldirgan ming-minglab qo'lyozma



asarlar va she'riy dostonlari orqali ham bizning o'zbek tilimiz juda boy va ulkan darajada ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

Qolaversa, o'rnak bo'ladigan, dunyoga tanilgan bir buyuk xalq vakili ekanligimizdan, shu yurtimizning musaffo osmoni beg'uborligidan, zamonamiz tinchligidan, va osoyishta yurtimizdan qancha faxrlansak arziydi. Agar har birimiz birgalikda bir tan, bir jon bo'lib ota-bobolarimiz qoldirgan asar-u qo'lyozmalardan o'z o'rnida foydalana bilsak nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Bizning ota-bobolarimiz qanchalik dono, qanchalik bilimdon bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz.

Bizda ham ota-bobolarimiz kabi buyuk xislatlar o'z aksini topsa, yomonlik qilish illatidan yiroq bo'lamiz.

Har birimiz yurtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimovning g'oyalariga asoslanib o'qisak, o'rgansak, o'z bilimimizni oshirib va uni hayotga qo'llay bilsak bu bizning yutug'imiz hisoblanadi. Barchamiz aziz vatanimizni rivojiga rivoj qo'shsak va o'zimizning odobu e'tiqodimiz, mehnatimiz bilan tashabbus ko'rsatsakkina bugungi zamon bilan hamnafas pedagoglar qatoriga qo'shila olamiz.

Shu jumladan biz ota-bobolarimizning, ayniqsa Mir Alisher Navoiy bobomizning ona tilimizga asos solganligi tilimizni boyitib o'zbek adabiy tilini muhim, katta ahamiyat kasb etganligi olamshumul voqeadir.

Shu qatorda hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi, asosan tavsifiy leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bo'lib turadi. O'zbek tili lug'at boyligining tarixiy va zamonaviy qatlamlarini, so'zlarning hozirgi va eskirgan ma'nolarining tarixiy va zamonaviy qatlamlarini, so'zlarning hozirgi va eskirgan ma'nolariga qaytish, tavsiflash kerak bo'lganda shunday qilinadi. Leksikologiya tilshunoslikning semasologiya, onamasalogiya, etimologiya va frazeologiya kabi bo'limlari bilan hamkorlikda ish ko'radi. Bunday hamkorliksiz tilning lug'at boyligi, leksik, semantik hodisalariga, lug'at tarkibi taraqqiyotiga oid tilning faktlarini mo'g'ri yoritib bo'lmaydi. Semasolgiya lug'aviy birliklarning mazmun plani-semantik tarkibi va shu bilan bog'liq masalalarga tadbiq qilinadi. Onomasologiyada narsa-hodisalarni yoki tushunchalarni nomlash prinsiplari o'rganiladi. Etiomologiyada so'zlarning kelib chiqishi aniqlanadi. Frazeologiyada tilning lug'at boyligidagi ko'chma ma'noli turg'un konstrukciyalar, frazmalar xususida bahs yuritiladi. Tilning leksik, fonetik va grammatik sathlari ham o'zaro bog'liqdir. O'zbek adabiy tilining tom ma'nodagi bunyodkori Alisher Navoiy eski o'zbek adabiy tili so'z boyligini qadimgi (XII-X asr) va eski turkiy til (XI-XIV) leksimalariga yangidan-



yangi semalar yuklash qobiliyati bilan kishini hayratda qoldiradi. Navoiy davrida o'zbek adabiy tili leksik-semantik tizimining rivojlanishi va shakllanishida semantik jarayonlar muhim. Bu jarayonlar asosan ikki jihatdan xarakterlanadi:

1. Mavhum leksik qatlamlarda turli ko'chma ma'no aks etishi.

2. Ma'nolardagi aniqlik va differensiyaga bo'lgan moyilligi ushbu ikki hodisada o'z xarakteri va yo'nalish jihatidan 2 turga bo'lib o'rganishni taqozo etadi.

Birinchi tur jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq yangi tushuncha va voqealarni atash ehtiyoji tufayli yuzaga chiqadi. Semantik jarayonlarning ikkinchi turi til leksik tizimida sodir bo'lgan ichki munosabatlarda vujudga keladi. Biz bunda o'zbek adabiy tilining Mir Alisher Navoiy ochib bergan qirralarga e'tibor qaratmog'imiz lozim.

Leksikologiya bo'limiga kiritilgan ko'p ma'noli so'zlar mavzusi ustida izlanish jarayonida bunday ma'no nozikliklarini farqlash, ulardan nutqda foydalanishni kitob so'zi misolida ko'ramiz.

1. Ma'lumki kitob predmet sifatida avvalo kishi ko'z o'ngida qanday tushuncha hosil qilishi boshqa predmetlardan qanday belgisi bilan farqlanishiga tushunishimiz kerak. Bunday kitob bosma holdagi matnlardan iboratligi bilan farqlanadi. Ko'p ma'noli so'zlar ustida fikrlash so'z ma'nolarining barcha nozikliklarini teran anglay olish malakasining rivojlanishiga olib keladi. Madaniy va ma'naviy meros qo'lyozma asarlar, dostonlarini, ruboiy, she'rlarini Xamsa-yu hikoyalarini o'rganish hayotiy tajribalar orttirishimizda muhim rol o'ynaydi.

Barchamiz o'zbek adabiy tilining qanchalik ajoyib qirralariga ega ekanligiga amin bo'lamiz. O'zbek adabiy tilini mehr bilan o'rganib, kelajak avlodlarning ongiga singdirish, ularga bilim berish biz pedagoglarning vazifamizdir. Bunda biz har tomonlama bilimimizni mustahkamlab borishimiz va zamonamizga mos ravishda har tomonlama yetuk shaxslarni voyaga etkazishimiz zarur deb bilaman. Biz pedagoglar o'z ustimizda qayta-qayta ishlab bilim va malakalarimizni oshirib borsakkina o'sib kelayotgan yoshlarimizni dunyoqarashini yanada go'zal, ongli ravishda fikrlay olishiga ko'maklashgan, bilim darajalariga yana bilim qo'shgan bo'lamiz.

Ona tilimiz so'zlarga boy, ulkan, behisob xazina bo'lib foydalanganimiz sayin ko'proq boyib boradi. Biz ona tilimizni yaxshi, mukammal o'rganib o'z bilimimizni yanada boyitib borishimiz zarur va bugungi kun talabi ham shuni taqozo etadi.



## TIL - BUYUK NE‘MAT

Har bir inson o‘z aqli, taffakkuri bilan o‘z bilim darajasini yuqori cho‘qqilarga olib chiqsa va o‘z bilimini o‘zgalarga o‘rgata bilsagina u inson xaqiqiy bilim egasidir. O‘zbek xalqi qadimdan o‘z aqli, bilimi bilan barcha xalqlar bilan qardosh, do‘st bo‘lib birgalikda tinch-totuv, ahil yashagan.

Bizning ota-bobolarimizdan qolgan bir qancha asar, dostonlar, ruboiylar bugungi kunda ham sevib o‘qib kelinmoqda. Mir Alisher Navoiyning ulug‘ ishlari, adolatlilikda, ma‘rifatlilikda olib borgan har bir ishi bugungi hayotimizda ham o‘z ijobiy ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda. Bobomizning bir qancha ruboiy va she‘rlari shunchalik umrboqiy yozilganki, bu umrboqiylikning sababi ulkan bilim va ulkan aql boyligidandir, albatta.

O‘zbek adabiy tili asoschisi, mutafakkir Mir Alisher Navoiy tilimizni har bir jihati, talaffuz jarayonlarini, unli va undosh tovushlarning ishlatilish o‘rnini ham ochib berib ketganlar. Tilimizning nechog‘lik buyukligi va shu tilimiz tuyg‘ularimiz, bir-birimizga bo‘lgan samimiy munosabatlarimizni ifodalovchi vosita ekanligi, shu tilimiz ravonligi bilan biz barcha avlodlarimizga o‘z bilimimiz mevalarini yig‘ib qoldirish xususiyatiga egamiz. Tilimizdagi zamonamiz zayliga qarab ishlatiladigan yangi so‘zlar namulalari ham yangicha usullar yo‘nalishida o‘z aksini topmoqda. Buning bilan biz tilimizdagi so‘zlarning qanchalik qadriga yetib, uni buzmasdan talaffuz qilsak, bu bizning bilim darajamizdan kelib chiqqanligi natijasi bo‘ladi. Tilimizni qanchalik mukammal o‘rganib borsak, shunchalik keng doiraligiga ishonch hosil qilamiz. Tilning talaffuzi jihatidan uni buzmasdan o‘zining ma‘naviy jihatidan ham to‘g‘ri qo‘llab, yoshlarimiz ongida tilimiz vazifasini yoritib ularga saboqlar berish biz pedagoglarni burchidir. So‘zlashuv jarayonlarida tilimiz shunchalik go‘zallashib, ravonlashib boraveradi. Inson o‘z bilimi, aqli va tili bilan, madaniyati va ma‘rifati bilan go‘zal.

Biz ustozlarimizdan o‘rganamiz va yoshlarga o‘rgatamiz. Hamjihatlik, hamfikrlilik, bilimlar birligi mukammalligi ziyo, nur taratuvchilik bu pedagoglarga xos xususiyatlar bo‘lib, barcha pedagoglar qancha-qancha shogirdlarni ulg‘aytirib, oliyhimmat egalari timsoli bo‘lib kelmoqda. Bugungi kun pedagoglarining barchasi xoh katta, xoh kichik bo‘lsin u ziyo, nur taratuvchi buyuk shaxslar qatoriga tengdir.



## O'SMIRLARNING MA'NAVIY QIYOFASINI SOTSIOKORREKSIYALASH

Guruhiy shaxslararo munosabatlarda, jamiyatimiz tarkibiy qatlamlarida demokratiya tamoyillarining qaror topishi, fuqarolar o'rtasida sub'ektlilik, hamkorlik, hamdardlik mezonlari turmush tarziga aylana boshlashi barqaror e'tiqod, qat'iy iroda, bukilmas g'oyani egallashga imkon yaratmoqda. Ana shunday umumbashariy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy voqelik, hodisa, ijtimoiy tasavvur va ehtiyoj mamlakatimizda shaxsni taraqqiyot rivojlanishining harakatlantiruvchisi tarzida baholanishi **sotsiokorreksiya** zaruratga aylanganligini anglatadi. «Asrlar davomida inson aql-zakovati ila bunyod etilgan boy ma'naviyat tufayli, - deydi Prezidentimiz Islom Karimov, - xalqimiz mag'rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki, yozma ijodiyot, Hadisi-shariflar, xalq pandnomalarida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan iymon-e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlar haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim»<sup>1</sup>. Demak, barkamol inson uchun zarur bo'lgan quyidagi xususiyatlarni shakllantirishni davr taqozo etadi:

- ijobiy fazilatlar mohiyati, mazmunini tog'ri tushunish hamda tahlil qilib munosabat bildirish olish;
- jamoada yashash, jismoniy va intellektual mehnat qilish malakalarini egallash;
- barkamol inson obrazini tasavvur etish, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirish usullarini izlash.

O'smirlarning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiya qilish va shaxsning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiya qilish, xususan, xulq-atvordagi nuqsonlarini bartaraf etish masalalari bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo'lib borishi bilan belgilanadi va u quyidagilarda o'z aksini topadi:

- ijtimoiy yangilanish tarbiyalanganlikka yangicha qarash, mezon taqozo etishi;
- sotsiokorreksiya uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol yondashuv asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug'ilishi;
- pedagogik tadqiqotlarda psixologik nazariya va amaliy-ilmiy apparatni qo'llanilishi, muhitga muvofiqlantirilishi tendensiyasi kuchayishi;

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», Toshkent, "O'zbekiston", 1995y, 223-bet



• xulq-atvorda og'ish, ya'ni deviant holati ko'lami kengayishi va uni bartaraf qilish ehtiyoji umumbashariy ahamiyat kasb etishi kabilar.

Yoshlar jamoasida korreksiya ishlari metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning har bir a'zosi ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda, mafkuraviy immunitet hosil qilishda, ularning o'zligini anglashda, vatanparvarlik va fidoiylilik tuyg'ularini, millatlararo totuvlikni, diniy bag'rikenglikni, tolerantlikni shakllantirishda hamda komil insonga xos bo'lgan fazilatlarni: sofdillik, tog'riso'zlik, adolatparvarlik, saxovatlilik, or-nomuslik, tantilik sifatlarini tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin.

Bu mustaqil O'zbekistonning har tomonlama rivojlanishida, jamiyat a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy hayotida paydo bo'lgan muammolarini muvaffaqiyatli hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu masalani tahlil qilishda horijiy olimlar: Karlxayns Ingenkamp, Ingo Xartman, Linert, respublikamiz olimlari: M. Quronov, V. Karimova, X. I. Ibragimov, O. Musurmonova, K. Zaripov va L. Maxmudova, Sh. Abdullaevalarning pedagogik diagnostika va korreksiyaga oid tadqiqotlari chuqur qiziqish uyg'otadi.

Shaxsning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga bag'ishlangan ilg'or pedagogik tajribalar tahlili o'smir yoshidagi shaxslarni diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalash orqali ularda axloqiy fazilatlar: mehribonlik, to'g'riso'zlik, adolatparvarlik, matonat, shijoatkorlik, xushmuomalalik va shu kabi xislatlarni o'stirish ko'p hollarda o'qituvchining mahorati va mutasaddiligiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatimizdagi o'smir yoshidagi shaxslarning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash yo'llari, vositalarini aniqlashda turli metodlardan foydalanish zarur:

- a) pedagogik-psixologik suhbat;
- b) kuzatish, qiyoslash;
- c) yoshlar jamoasini, ta'lim maskanlari hujjatlarini tahlil qilish;
- d) oilalardagi muhitni aniqlash;
- e) guruhlardagi mikromuhitni o'rganish, so'rovnoma, testlar, interv'yu, sotsiometriya, interpretatsiya, shkalalash, eksperiment-tajriba, matematik-statistik tahlil, bashorat va boshqalar kiradi.

O'smirlarning ma'naviy qiyofasini diagnostika qilish va sotsiokorreksiyalashning shart-sharoitlarini aniqlash, samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni belgilash uchun avvalombor



xulqdagi nuqsonlarni korreksiyalash ko'lamini va uning samarali natijasini eksperimental ravishda tasdiqlash zarurati oshadi.

O'quv muassasalarida tahsil olayotgan o'smirlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning mazmuni, shakli, vosita va usullari hamda ularning tizimini takomillashtirish orqali ularning ma'naviy qiyofasini o'stirish imkoniyati yaratiladi.

Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar, o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, darsliklar ishlab chiqilishi ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi sohalaridagi bilimlarni boyitishga, jamiyatimizdagi o'smir va o'spirin yoshidagi shaxslarning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiya qilishga xizmat qiladi.

## **SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KASBGA YO'NALTIRISHDAGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARINING AHAMIYATI**

Boy tarixga ega bo'lgan xalqimizdan bizga meros bo'lib qolgan son-sanoqsiz asarlar, qo'lyozmalar bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmay yosh avlodga ham ilmiy, bilimli bo'lishda o'zining katta ahamiyatiga ega bo'lib, e'zozlanib kelinmoqda.

Sharq mutafakkirlarining meros qilib qoldirgan asarlari haqida prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida alohida ta'kidlab deydi: "Xalqimiz tayanchi - ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi bir xazina. Bu xazinadan oqilona foydalanishimiz lozim".

Bizning ajdodlarimiz sanalgan Abu Nasr Forobiy, al-Buxoriy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Abu Iso at-Termiziy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimizning barcha asarlarida pedagogikada ham, o'quvchilik davrida ham pedagoglar va o'quvchilar faoliyatida, ulardagi psixologik ongning rivojlanishida va ta'lim-tarbiyaning yuksak cho'qqilarga qanday erishilishi haqida ham qo'l keladigan fikrlar aytiladi. Shu asarlar orqali dunyoviy bilimlarga ham ega bo'lasiz, albatta. Yuqorida aytib o'tgan bobolarmiz ta'limotida matematika, tibbiyot, falsafa, ma'naviyat, madaniyat, adabiyot, ona tili fanlariga bo'lgan muhabbat ortib, o'qiganingiz sayin unga bo'lgan qiziqishingiz orta boradi. Ularni har bir so'zlari, jumalari qanchalik biz uchun qadr-



qimmatga ega ekanligini sezib, ularga bo'lgan ehtiyoj yanada ortaveradi.

Uular shu qadar kuchli ilmiy yondoshuvlar bilan yozilganki, bugungi kunda ham ulardan samarali foydalanishlar o'z natijalarini berib kelmoqda. Ba'zi yoshlarimiz she'riyat sultoni Mir Alisher Navoiy she'rlaridan ilhomlanib she'rlar yozib, o'z biliimlarini yanada mustahkamlab borib, o'z she'riy to'plamlarini yaratmoqdalar. Bunday yoshlarimiz ko'paymoqda va buning natijasida yoshlarimizning ilm-fanga qiziqishlari yanada kuchaymoqda.

Bugungi kunda "Zulfiya" mukofoti sovrindorlari ortib, sport maydonlarida o'z tajriba va bilimlari bilan ham yoshlar chempionlikni qo'lga kiritib kelmoqda. Respublikamiz hamda jahon miqyosida o'tkailib kelinayotgan fan olimpiadalarida yuqori o'rinlarni egallab vatanimiz bayrog'ini yuqorilarga ko'tarmoqdalar. Bu esa mamlakatimizning jahonga yuz tutayotganiga yana bir dalildir. Bunday muvoffaqliqlarga erishishda barcha pedagoglarimizning, qolaversa tirishqoq yoshlarimizning mehnatlari samarali bo'lmoqda.

Mana shu o'rinlarga erishishida ham sharq mutafakirlarining asarlari, yaratib ketgan ilmiy meroslari bizlarga qo'l kelmoqda va bunga aslo shubha yo'q. Hatto bizni Arab davlatlari mustamlaka davlat qilib olishganda ham Mahmud Zamaxshariy o'zining buyuk-buyuk asarlari bilan arab davlatlarini lol qoldirganlar. Bobomiz 70 dan ziyod asarlarini shunday yuksak bilimlari bilan yaratgan ekanki, chet el olimlari ham "XV asrda yaratilgan "Dugoh" kuyining ta'rifi kuylanmagan, Xorazm xonadonining beshigidagi go'dagining ham qulog'ida yangramagan xonadonning o'zi bo'lmasa kerak"- degan ekanlar. Bundan tashqari "O'git va nasihatlarining shodalari", "Nozik iboralar", "Rabbiul Abror" va boshqa ajoyib asarlari bizning bugunimiz, ertangi kelajagimiz uchun ham o'zining qimmatiga ega ekanligi ko'rinib turibdi.

"Kashshof tafsiri", "Navobil-karim", "Joylar, tog'lar" kabi qo'lyozmalari ham bugungi kunda o'rganilib, hayotga tadbiiq qilinmoqda.

Arab tiliga ilmiy yondoshib, Mahmud Zamaxshariy ajoyib qirralarini zo'r bilimlari bilan ochib bergan ekanki, hatto arab xalqining olimlaridan ham yuksak cho'qqilarga ko'tarilgan buyuk olim sifatini olgan ekanlar. Bunday yuksak bilimga ega bo'lgan mutafakkir bobolarimizning barcha yaratib ketgan asarlari kasbga intilayotgan har bir inson uchun o'zining juda katta qiymatiga ega.



Yoshlarimiz bobolarimizning barcha ilm-fanlar, ta'lim-tarbiya, bilim olishining foydasi haqidagi asarlari, qo'lyozmalarini e'zozlab, bir umr yonlarida asrab-avaylaydilar. Albatta, mutafakkirlarimizning asarlari orqali ular yangi-yangi kasblarni egallab, yangiliklar yaratib, vatanimiz yanada gullab yashnashiga o'z hissalarini qo'shadilar. Sharq mutafakkirlarining barcha asarlari bir umrga o'zining qadr-qimmatini yo'qotmaydi.

## **KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va huquqiy himoya qilinishi, tadbirkorlik erkinligining kafolatlanishi, qonunda tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishining barchasi, yurtimizning gullab yashnashi uchun, insonlar baxti-saodati, go'zal hayoti, sog'lom turmush tarzini yanada yaxshilashga qaratilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bugungi kunda qo'llab-quvvatlanishi, fuqarolarning erkin ishtirok etishi, eksport qiluvchi korxonalarning moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun kredit va soliq siyosati borasida imtiyozlar berish, bank sektori kapitallashuvini yanada kuchaytirish davlatimizning oliy maqsadlaridan biridir.

Har bir ro'yxatda turgan kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxona, jismoniy shaxslarga beriladigan kreditlar ma'lum muddatlar asosida berilar ekan, ulardan foydalanish va o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishi uchun soliqlardan 3 yilgacha ozod qilininish imtiyozi beriladi. Undan tashqari ular mahsulotini o'z vaqtida sotishi yoki chet ellarga eksportini yo'lga qo'yishda qulayliklar yaratish ham mulkiy huquqlarining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanishi, o'zgartirilishi va bekor bo'lishi bilan bog'liq oldi-sotdi, garov, ijara va boshqa bitimlar asosida qulayliklar yaratilgan.

Davlatimiz har bir korxona yoki jismoniy shaxslar kichik biznes, tadbirkorlikda o'zi iqtisodiy faoliyat yuritishi, tadbirkorlik erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi va undan foydalanadi, uni tasarruf etadi. Tadbirkorlarga o'z huquq va erkinliklarini



sud orqali himoya qilish, davlat organlari, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishlari mumkin. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari o'zlari ishlab chiqargan mahsulotning (bajargan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning) hamda ularni realizatsiya qilishdan olgan daromadlarining ya'ni foydaning mulkdoridir. Tadbirkorlik faoliyatida sub'ektlar ularga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalari hisob varaqalaridagi mablag'larini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul shaklida olishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat erkinligi kafolatlari mavjud. Fermer va dehqon xo'jaliklarining yerdan foydalanish huquqlari, fermer va dehqon xo'jaliklarining moddiy-texnik resurslari, urug'lik, ko'chatlar va zotdor chorvadan erkin foydalanish, axborot olish imkoniyatlari, tadbirkor faoliyatiga noqonnnuniy aralashmaslik, tadbirkorlik sub'ektining obro'sini himoya qilinishi, intellektual faoliyat natijalarini himoyalaniishi, faoliyatini tekshirishning cheklanishi, tijorat siri va oshkor etilmaygan axborotining himoya qilinishi tadbirkorlarimiz safini kengayishiga xizmat qilmoqda. Chunki, yaratilayotgan qulaylik va berilayotgan imtiyozlar, ularlarning faoliyat yuritishini rivojlantirish orqali vatanimizning yuqori mavqelarga erishishiga va insonlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini to'g'ri yo'ldan rejalar asosida baxt-saodatga, sog'lom fikrlashga, o'zining ma'naviy yetukligini yanada oshirib borishga va unga erishishga intilib yashashga undaydi.

Yuqorida aytgan barcha qo'llab-quvvatlashlardan tadbirkorlar g'ayratiga g'ayrat, kuchiga-kuch qo'shilib, baxtli hayot tarzini kundan-kun go'zallashtirib borishga katta yo'l ochilmoqda. Davlatimizning tomonida bunday imkoniyatlarning yaratib berilishi bugungi kunda tinch-osoyishta, ozod va obod, gullagan yurtda baxt-saodat nashidasini totayotgan xalqimizning ijodkorligiga, bilimiga rivoj berayotganligining yaqqol ko'rinishidir.

## **TA'LIM JARAYONIDA INTEGRATSIYALAB O'QITISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.**

Hozirgi zamon pedagogik jarayonlarda fan va amaliyot birligi amalda faoliyat ko'rsatishda "yangi pedagogika", "test-reyting", "pedagogik diagnostika", "kibernetik pedagogika" va boshqa ko'pgina



tushunchalarning tub mohiyatini o'zlashtirmasdan, ulardan ta'lim-tarbiyada foydalanmasdan turib, biz jahon pedagogik integratsiyasida o'z mavqeyimizga erishishimiz qiyinroq bo'lishi mumkin.

Davlatimizning har tomonlama yuksak cho'qqilarga erishishida bugungi yosh avlodni o'ta bilimdon, mukammal shaxs darajasiga yetkazib ta'lim – tarbiya berish, ularni oily maqsad sari yetkazish pedagoglarning oldidagi eng birinchi vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida, ta'lim mazmuni, uning ta'lim to'g'risidagi qonunlarda aks etishi, DTS oily ta'lim mutaxassislari saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilaydi. Ta'lim mazmunining tub mohiyatini belgilab, standart vositasini aniqlab, ta'lim jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan barqaror darajasini ta'minlash sharti o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar o'quv rejasi o'qitishdagi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratishda asos bo'lib kelmoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'lim integratsiyasi haqida shunday degan edilar: "Jahon bozoridagi integratsiya, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlari xalq ta'limining barcha bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashni talab etmoqda. Binobarin, bu hol tarbiya, ta'lim, siyosiy va kasbiy tayyorgarlik masalalarini hal etishda jamuljam yondashishni taqozo etadi".

"Intergratsiya" so'zi birlashtirish degan ma'noni bildiradi, albatta.

Shunday ekan bugungi kunda umum ta'lim berishni intergratsiyalab o'qitish pedagog uchun izlanishga va yangi-yangi, xilma-xil tushuntirishning oson yo'llarini qidirib topishga undaydi.

Kompyuterda diskka tushirilgan tasviriyl ta'lim, hikoyani qiziqarli hayotiy hodisalar bilan tushuntirilgan dars o'quvchilarga zo'r qiziqish uyg'otadi.

Masalan: o'tilgan darsga boshqa fanlarni ham bog'lab o'tish albatta azaliy ahamiyatli bir-biri bilan bog'lanishi muhim. Lekin hozirgi kunda taraqqiyotning yuqori bosqichlarida barchani birgalikda bo'lishi ham rivojlanishning bilim darajasini yuqoriga odimlashidan darak.

Ham tasviriyl, ham amaliyl, ham mustaqil harakatning faolligini oshirish bu ta'limda yaxshi samara beradi. Ta'limda yuksak ijobiy maqsadni amalga oshirishda pedagogik jarayon o'ta muhim rol o'ynaydi. Pedagogning faoliyat yuritishda uning bilimi, tajribasi katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni ko'proq darsga jalb etish uchun yangi mavzuni tushuntirish uchun shu mavzuga ta'lluqli, hayotiy voqealar asosida haqiqiy kasb egalari yoki ijtimoiyl – iqtisodiy metodik qo'llanmalardan foydalanish, faol bo'lishga undash, peagogning mahoratiga bog'liq.



**Bunda** yangicha usullar qo'l keladi. Masalan o'quvchilarga; a) oilasi haqida matn tuzib, unda ham tasviriyl rasmlarini chizishni; b) oila byudjetiga oyida necha so'm pul kelishi va bu pul qancha oyga, kunga yetishi to'g'risida; v) har oyda nimalar xarid qilishni qancha pul sarflashni; g) inson salomatligi uchun zarur vitaminli ovqatlar uchun qanday mahsulotlar olishi; d) daftar, ruchka, qalamga, va nonushtaga qancha pul sarflashi; y) ekonom qilish yo'llarini topishni uyga topshiriql qilib tayinlash.

Dars jarayonida matematika, ona tili, mehnat, tabiat va boshqa fanlarni integratsiyalab o'qitishning shart-sharoitlarini keng qo'llash imkoniyatidan foydalanish lozim.

Hozirgi zamonda ilm-fan taraqqiyoti jadallashgan bir paytda yangi pedagogik qo'llanmalarni qo'llash bugungi kun yoshlarini har tomonlama bilim egasi bo'lishga undaydi. Ta'lim jarayonida fanlarni integratsiyalab o'qitishning pedagogik shart – sharoitlari bizning rivoj topib kelayotgan Vatanimizda yuksak bilimli insonlarni yetishib chiqishi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Men bugungi kunda bunday o'qitishda fanlarni o'zaro bog'lab o'qitish o'z tariximiz to'g'risidagi bilimlarimizni, dunyoviy bilimlarimizni har tomonlama rivojlantirib borishga turtki bo'lib xizmat qiladi, deb o'ylayman. Chunki bugungi kunda mehnatsevarlik, insonparvarlik, kasbini ustasi bo'lishlilik to'g'ri yo'lni tanlash, ijobiy fazilatlilik, yuksak madaniyatli bo'lishlilik va ma'naviyatli, sadoqatli, vatanparvarlikka undovchi oliyjanob fikr mulohazalarga to'la boy ma'lumotlar berishida qo'l keladigan jarayondir.

Bugungi kunda pedagogika fanining zamonamiz rivojidan bir qadam oldinda yurishi mamlakatimiz ahlining o'ta yuksak ong egasi bo'lishida namoyon bo'lishidir. Biz barchamiz kelajakda har tomonlama bilimdon pedagog bo'lishda o'zimizning insoniy fazilatlarimiz bo'lgan vatanparvarlikni, bag'rikenglikni, osoyishtalikni, komil insonni kamol toptirish burchimiz ekanligidan faxrlanishimiz lozim. Biz pedagoglar uchun bunday burchni bajarish sharaflidir.

## **TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING MURAKKAB YECHIMLARI**

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan vaqt ichida Vatan ravnaqi yo'lida ancha ishlar qilindi, lekin oldinda juda ko'p muammolar bor ekanligi ham ayon bo'lmoqda. Amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudratining



oshib borishi jamiyat ijtimoiy sohasida markaziy qismni ta'lim-tarbiya tizimining negizini mustahkamlab borishiga olib bormoqda. Ta'lim-tarbiyada yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada takomillashtirish, ularga berilayotgan bilim mazmunini boyitish va uzluksizligini ta'minlab beruvchi yangi hujjatlar qabul qilinmoqda, dars berishning ilg'or pedagogik usullari yaratilmoqda.

Bilimlarni o'z vaqtida berish, ularni ona-Vatanga, milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi sa'y-harakatlar tufayli ta'lim-tarbiya ishining bugungi qiyofasi tubdan o'zgarmoqda.

Mamlakatimizda barcha ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonining barcha akadem guruhlaridagi samaradorligini birday oshirish uchun, rivojlangan mamlakatlar ta'lim amaliyotiga sinovdan o'tgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruriyatlari paydo bo'ldi.

Har bir pedagog o'z kasbini ustasi sifatida o'zining innovatsion usullarini ishlab, amaliyotga tinmay qo'llab borsagina jamiyatimiz oldiga qo'yayotgan ijtimoiy buyurtmani faxr bilan bajara olishga muvaffaq bo'ladi.

Eng birinchi navbatda har bir o'qituvchi ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'zini har bir yoshni ta'lim-tarbiyasini yo'lga, ya'ni to'g'ri yo'lga qo'yishda o'zining farzandi yoki bir necha minglab yoshlarning kelgusida haqiqiy biror kasb egasi bo'lib yetishtirish eng oliy maqsadi ekanligini vijdonan his qilsa juda ko'p izlanishda bo'ladi. Berilayotgan bilimlar bilan birgalikda tarbiyani ham ahamiyati juda katta o'rinda turganligini e'tiborga olgan holda yondashsa, bu albatta ijobiy natijalarga olib keladi.

Bog'cha yoshidan boshlab toki oliygohlarga kelgungacha bo'lgan ayrim muammolar to'g'risida fikr yuritish va bu muammoni vaqtida bartaraf etish yo'llari barchasini amalga oshirish lozim. Bu muammolar shundan iboratki, bog'cha yoshidan ayrim tarbiyachi yoki o'qituvchilarning noo'rin harakatlari tufayli yoshlar ongida, hayot va tafakkurda noto'g'ri tushunchalar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Chunki, o'qituvchilarning ayrimidan tarbiyalanuvchilarda salbiy vaziyatlarning ham paydo bo'lishi, yoshlarning ongini zaharlamoqda. Bunday vaziyatlarning barchasi bartaraf etilsa, ya'ni pedagoglarning ayrimining kamchiliklaridan bo'lgan sovg'aga qarab bilimni baholashi, keyingi tayyorlov uchun harakatni kech boshlashi bolani loqaydlikka, sustkashlikka, his qilishning kechroq paydo bo'lishlikka olib kelmoqda. Har-bir ta'lim-tarbiyani o'z vaqtida vijdonan yondashuv orqali amalga



oshirish bo'lgan joyda, doimo samara, ishonch, harakat bo'ladi. Yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlarning barchasi ongli insonlarni, yoshlarni vaqtida bilimni va tarbiyaviy ahamiyatli tomonlarni o'ziga o'zlashtirib, to'g'ri xulosalar chiqarib olishga chorlamoqda.

Doimo jamiyatimizning taraqqiy etishida har bir kichik yoshdagi yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasini hech bir muammolarsiz rivojlantirib borish har bir pedagogning eng muhim dolzarb vazifasi bo'lib qolsa, shu vazifani vijdonan amalga oshirsa, bu kelajakni belgilab beradi. Bunda har bir o'qituvchi, tarbiyachi o'zining ishiga vijdonan yondoshsa, ayrim muammolarni kelib chiqishini oldini olgan bo'lar edi. Chunki, yosh avlod, hali bog'cha yoshidagi yoki maktab yoshidagi bolalar o'qituvchisi amalga oshirayotgan ishlarni barchasini to'g'ri deb, hayotda ayrim paytlarda yaxshilik ishlarini ham pul olish evaziga qilish lozim, deb xulosa qiladilar. Maktabda majburiy ta'lim-tarbiyaning eng muhim bosqichli bilimlari berilmas ekan, yoshlarimizda ayrim holatlarda bilim pastligi kuzatilaveradi.

## **YOSHLARDA KASB-HUNARGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI UYG'OTISHDA PSIXOLOGIYA FANINING AHAMIYATI**

Yoshlarda o'qish, ta'lim-tarbiya olishda eng muhim, ahamiyatli tomon o'quvchilarning qiziqish, intilish, harakat jarayonida pedagogning o'z shogirdiga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning to'g'ri rejalashtirilgan holda bo'lishi lozim. Barcha javobgarlikni mujassamlashtirib ijobiy tarbiyalash, shirin so'zlar bilan birga ruhiy madad, ko'mak berilsagina kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarni uyg'otishda pedagogik metodlar yordamida ta'lim-tarbiya berish mumkin. Inson mukammal bir g'oyalar, ya'ni kelajakda "Men haqiqiy insoniy fazilatlar egasi bo'lib yetishaman, oilamga va barcha insonlarga yordami tegadigan bir kasb ustasi bo'laman" –degan har qanday ta'lim oluvchining to'g'ri yo'lni topa olishga erishish maqsadida intilib yashash uchun harakat qilishni burchi deb bilishi bu ulug' bir ne'matdir. Har bir inson o'z taqdirini, o'z nurli yo'lini to'g'ri tanlab ola bilsa, shu yo'lda barcha imkoniyatini ishga solib intilishda, doimo harakatda bo'lsagina yaxshi natijalarga erisha olishi mumkin.

Albatta, insonning aqli to'la rivojlanganligi, sog'lom turmush tarzi, xushmuomala, xushkayfiyati, irsiyatlari ham inobatga olinishi, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi. O'zida qiziqishi bor har qanday o'quvchining biror bir



kasb egasi, shu kasb ustasi qilish uchun butun qiziqishini uyg'otish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, yoshlarni o'qitishda ustozning roli, psixologik jarayonning, intilish va qiziqishning ahamiyati juda katta, albatta. Bola maktab, bog'cha ostonasidayoq, oiladan boshlab o'zi biror bir kasbli bo'lish uchun harakat qiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga xushmuomala, o'z kasbining fidoyisi, rostgo'y, o'z burchini va fanini bilish bilan bir qatorda, toza-ozoda yurish, turishda o'rnak bo'ladigan, adolatpesha inson bo'lishi shart. Shuning bilan o'z navbatida psixolog ham bo'lishi juda ahamiyatli bugungi kunda, ta'lim berishda turli yo'llardan, shakllar va metodlardan qo'llab o'quvchilarni zeriktirmasligi juda ham muhimdir. Chunki, yosh o'quvchi xilma-xil narsalarga qiziqadi va bilishni istaydi. Har bir yangi yo'l, metodlar yosh o'quvchiga zavq bag'ishlab, uning qiziqishini, intilishini oshiradi.

Ilm olishda psixologiya fani ham katta ahamiyatli deyishimizga sabab, barcha do'st, yaxshilik qila bilish, umuman xushmuomala va samimiy insonlar bilan chiroyli muomalada bo'lish va shu o'rinda unga ham shunday ijobiy muomalada bo'lishni o'quvchi o'zi o'zgalardan kutadi. Chunki bunday jarayonlarda har bir o'quvchining psixologiyasini bilgan holda muomalada bo'lish pedagoglarga bo'lgan eng oliy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. Fan-texnikaning rivojlanishi, insonning zamonaviy, atroflicha bilishi zarur bo'lgan psixologik jarayonlar bugungi kunda pedagogning o'quvchi shaxsini to'g'ri yo'lga boshlashi, sezgir va talabchan, intiluvchan bo'lishi lozimligini talab etmoqda. O'sha o'quvchi va o'qituvchi shaxsining bir-biri bilan fikrlar almashuvi, dars jarayonida uning nimaga qiziqishi, qanday kasb egasi bo'lishiga daxldor nuqtalarni aniqlab, unga shunga qarab kuchli bilimlar berish bugungi ustozlarning o'quvchida mustaqil qobiliyatini rivojlantirish, olgan barcha bilimlarini amalda ham qo'llay bilish juda ham zaruriy, albatta.

O'qituvchi eslatib turuvchi qiziqishlarni ham uning psixologik holatlarini hisobga olgan holda muomalada bo'lishlik, asosiy maqsad bilan birgalikda uni ruhiy madad, ko'mak berib turishi, ajoyib kasb egasi bo'la olish qobiliyatlarini uyg'ota bilish ham o'ta muhim sifatlardan biridir.

Aqlli bola tarbiyasida kasb-hunarga qiziqishlari berilayotgan bilimlar asosida kasbga, ya'ni biron o'zining qiziqqan kasbga intilib borishi, mustaqil qobiliyatini o'qituvchi o'rtasida, oilada, oilaviy muhit ta'siri ostida rivojlanib boradi. Agarda qiziqishini amaliyotda qo'llab, jismoniy



rivojlanib borishda insonning miya mahsulini qirralari ochilib, ya'ni ijobiy qirralar ochila boraversa, bu o'quvchidan ajoyib kasbining ustasi chqishi, uning ma'naviy tarbiyasi kamolotga yetishiga o'quvchida va o'qituvchida katta ishonch paydo bo'ladi va bu ishonch, umid, intilish, albatta harakatlar ilm, ta'lim-tarbiyalar olish orqali a'lo natijalarga erishish mumkinligi sezilib boradi. O'zida intilish mavjud bo'lgan har qanday ta'lim-tarbiya oluvchi shaxsda ulug' maqsad, ya'ni eliga, mamlakatiga, oilasiga va do'stlariga foydasi tegadigan kasb egasi bo'lish, kasb-hunarning sirlarini puxta egallashga bo'lgan harakati tobora ortib boraveradi. Buning natijasida har bir kasbni egallashi juda muhim bo'lgan sirlarini, kerakli bo'lgan bilimlarini to'plash zarurligi va tobora ko'proq bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlar, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlashlar, bilim va ilm olish, kerakli bo'lgan sharoitlarni yaratib borish, har bir kishini o'z qiziqqan kasbga nisbatan mavjud bo'lgan qobiliyatini oshishiga va ijobiy natijalarga erishishiga olib keladi. Har bir inson ma'lum bir kasbga qiziqib harakatda bo'lar ekan, unda bilim beruvchi uning qiziqqan kasbiga barcha kerakli bo'lgan fanlar asosida bilim berishi hamda o'qitishda barcha usullardan to'g'ri foydalanishi va kasbga to'g'ri yo'naltirilishi, muomalasi, ruhiy ko'magi, nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda ruhiy madad, intilish, ishonchi, umidini so'ndirmasligi balki uni qo'llay olish xususiyati ham psixologiya fanining tadqiqotlarida o'qishda ijobiy tarbiyalarni berishda, bilimlarni rivojlantirishda tafakkur va talabni ijodiy, mustaqil faoliyatni qo'llab-quvvatlash, uni rivojlanib borishiga erishadi.

Psixologiyada insonning turmush tarzida farq qiluvchi belgilar, mavjud hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar, amal, fe'li, odatlari, ichki kechinmalarini o'rganib muomalada bo'lishlik, o'rganish, bilish, mavjud haqiqiy hissiyotlarni rivojlantirib unga ko'mak berishi kabilar mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

## **YOSHLARIMIZNING BUGUNGI KAMOLI**

Insoniyat vujudga kelibdiki u tarixan butun mavjudotlar ichida ongli va go'zal xislatlar, yuksak orzulariga erishish uchun mehnat qilish, kelajakka intilib, farzandlari uchun har doim o'zini mehnatini ayamaydiganlardan biri bo'lib hisoblanadi. Kelgusida nima ishlar qilishni va har bir qadamini o'ylab tashlaydigan, qilayotgan ishini oqibatini ham oldindan biladigan insonlarga bu faoliyatidan ko'ngli to'liq yashaydi. Kelajakka ishonch, go'zal hayot nashidasini surib, umrining har daqiqasi



qadriga, insonlar qadriga yetib, hayotdan zavq olib, o'z yo'lini to'g'ri tanlab olganlar baxt nima ekanligini chinakam his qiladilar.

Har bir insonda dunyoqarash har xil, har bir narsaning, vaqtning, kishining qadrini bilgan dunyoqarashi keng insonlar jamiyatimizga o'zlarining beminnat ishlari bilan juda katta foyda keltiradilar. Bizning institutimizda ming-minglab talabalar ilm olib, o'z bilimlarini yanada oshirib, har biri o'zining kasbi orqali oilasiga, jamiyatimizga foyda keltiradi. Yoshlarimizni har tomonlama zukko, aqlli, mehnatsevar, vatanimizga sodiq, o'z oilasiga, yoru birodarlariga mehribon bo'lib, yurtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shishiga Prezidentimizning, Oliy ta'lim vazirliklarining, rektorimizning yaratib berayotgan imkoniyatlarning cheki-chegarasi yo'q, albatta. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Barkamol avlod yili" deb, yilimizni nomlab berishining o'zi ham yoshlarimizning buguni va ertasi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradi.

Rektorimizning talabalarimizga madadkor bo'lishi tufayli bir qancha yoshlarimiz juda yaxshi, tahsinga loyiq muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Masalan, yoshlarimiz ichidan yetishib chiqayotgan nomdor stipendiantlar, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati orqali sport musobaqalari g'oliblari, yuksak muvaffaqiyatlar sohiblari bo'lishi uchun puxta tayyorgarliklari, yaratib berilayotgan imkoniyatlari tufayli minglab yoshlarimiz yuksak natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Barcha fakultetlarda talabalarimiz bugungi kunimizdan juda mamnun holda, kim o'zarga musobaqalar, bayram tadbirlarida bilimlarini o'zaro kuch sinashish yoki bo'lmasa bayram tayyorgarlik ssenariyalari orqali, KVNlar, "Zakovat"lar, muzeylarga sayohat yoki yodgorlik namunalarini tomosha qilishlari, bayramlarimizda qadriyatlarimizdan o'z o'rnida foydalanish sirlarini ilgari suradilar. Ularni bugungi aqlli, zukko, mustaqilligimiz mevalari, haqiqiy bilimli yoshlarimiz deb to'la ishonch va faxr tuyg'usi bilan ayta olamiz. Albatta, buni bosh-qosh bo'lib, ularni hamjihatlikka, birdamlik va bir tanu bir jon bo'lishiga sababchi bo'lgan oliygohimizning butun ahlining mehnati mahsuli deb bilaman.

Bugungi kunda oiladan boshlab, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylarning, maktab va maktabdan tashqari faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarning, mahallalarning, ota-onalarimizning beminnat mehnati va yordamida vujudga kelgan baxtli turmushimiz mustaqillik nashidasidir. Bundan juda rohatlanasan kishi, bunday rohatlanish o'zbek xalqining hayotga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshiradi va faqat yaxshilikka, doim bir-biriga mehr,



sabr-toqat, matonat, shijoat, tinib-tinchimay mehnat qilishga, Vatan uchun jonini fido qilishga, yuksak sadoqat va ishonchga chorlaydi. Biz ko'rkam yurtida yashab ijod qilayotganimizdan va shu yurt O'zbekiston yoshlari ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bilan darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar orqali bilimlar berayotganimiz bilan o'zimizni cheksiz baxtiyor his qilamiz. Bizning yoshlarimiz go'zal, obod, mangu serquyosh, tinch osoyishta va buyuk yurtning farzandlari mamlakatimizning ko'rkiga-ko'rk qo'shib, bir umr baxtli, saodatli, go'zal hayotning zavqini yuragidan his etib, jo'shqin, shijoatkorona, doimo shaxdam, rivojlangan mamlakatlardan ham o'zib birinchilarning ham birinchisi, eng oliy o'rinlarda shodu-xurram bo'lib yursinlar va oliygohimizning jamoalari faxrlanib, butun O'zbekiston xalqi zavqlanib yashasinlar.

### **OBOD VA OZOD VATAN FUQAROSI BO'LGANLIGIMDAN FAXRLANAMAN**

Biz o'zbek xalqining buyuk xalq farzandi ekanligimizdan, mehnatkashligi, mehmondo'stligi, bolajonligi, mehri daryo, qalbi keng, oq ko'ngil, aqlli, dono va boshqa ijobiy fazilatlari butun jahonga tanilgan yurt bilan qanchalik fahrlansak arziydi.

Biz hozirgi davrda shunday ajoyib bir go'zal, serqiyosh, hur o'lkada baxtli turmush kechirmoqdamiz. Shunday qisqa vaqt ichida yurtimiz go'zallashib, shunday ajoyib sharoitlar barcha o'zbek xalqining ravnaqi uchun yaratildi. Avvalambor yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov bugungi kun yoshlarining bilim olishiga katta sharoitlar yaratib berdi. Butun ta'lim maskanlarini yangi zamonaviy tarzda qayta tiklab, ularni rivojlangan fan-texnikalar, ilg'or texnologiyalar va har bir ta'lim muassasalarini oliy ma'lumotli va o'ta bilimdon pedagoglar bilan ta'minlanishida o'z sa'yi harakatlarini ko'rsatib, barcha yosh-u qarini xursand etdilar.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning elkadosh bo'lib turgan barcha buyuk kishilar o'zlarining astoydil harakatlari bilan yurtimiz ravnaqi uchun o'z mehnatlarini ayamadan, o'zlarining bir qancha ijobiy ishlari bilan el-yurt ichida hurmatga sazovor bo'lib kelmoqda. Yurtimizning savodxonligini oshirishda pedagoglarimizning mehnati cheksizdir. Maktablarda jajji bolajonlarning bilimini oshirish, ularni hayotda bir ajoyib kasb egalari bo'lishga tayyorlab, ularga bilim beruvchi oliy ma'lumotga ega bo'lgan pedagoglar tayyorlashda universitetlar va institutlar vazifasi katta ahamiyat kasb etadi. Har bir



universitetlar va institutlar rahbarlari o'z mehnatlarini ayamadan vatanimiz ravnaqi, yoshlar kelajagi, farovon turmush uchun, baxtli hayot uchun o'zlarining yuksak ishlari bilan barchaga namuna bo'lib kelishyapti.

Butun bilimlari va o'z mehnatlarini ayamagan holda, vatanimiz ravnaqi, yoshlar kelajagi uchun ulkan bir faoliyat ko'rsatib kelayotgan fidokor, faxrli pedagoglarimiz ham borki, biz ularni hurmat bilan tilga olmay o'ta olmaymiz. Institutimiz rektori va fakultetimiz dekani bizlar uchun shunday ajoyib, ulkan binolarda bilim olishimiz uchun juda katta ulkan ishlar olib bordilar. Rektorimiz Ibragimov Xolboy Ibragimovichning bugungi kun yoshlari uchun olib borgan ishlari beqiyos.

Institutimiz yonidagi sport zali barcha imkoniyatga ega. Institutimizning atrofi kundan-kunga obod bo'lib, uning ko'rkiga ko'rk qo'shilib bormoqda. Uzoq viloyatlar Toshkent, Namangan, Andijon, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va boshqa viloyatlardan kelgan barcha mehmonlar tashrif buyurishdilar va barchasi a'lo kayfiyatda, havasla ko'rib bu mehnatlarga tahsinlar o'qishdi.

Mana shunday yurtda va mana shunday institutlarda tahsil olayotganimiz bilan juda faxrlanamiz. Bizning institutimizning shunday tayyor holga kelishigacha bo'lgan vaqt zaminida qancha-qancha mehnat va cheksiz harakatlar yotadi. Shunday ajoyib institutda tahsil olayotganimizdan va shunday ulug' kishilar qo'lida tahsil olayotganimizdan judayam baxtiyorman.

Bizning institutimiz shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib, bugungi zamonaviy, oliy maskan qatorida yangicha ko'rk, yangicha hayot bag'ishlab turibdi. Biz institutimiz bilan faxrlanamiz. Insoniyatning bu olamda bir marta dunyoga kelib, shu umri davomida bor imkoniyatlarini ishga solib, o'zining barcha ezgu, yaxshilik ishlarini insonu-jonzotlar uchun go'zalliklar yaratish bilan buyuk ishlarni amalga oshiradigan ulug' insonlar hamisha o'z mehnati, jonkuyarligi, fidoyiligi bilan ming-minglab, millionlab kishilarga sof, beg'ubor hayot kechirishlariga sharoitlar yaratadilar.

“Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o'rin egallab borayotgan O'zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo'lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma'naviy ildizlari, urf-odat va an'alariga, bir so'z bilan aytganda, o'zbek xarakteri, o'zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda”<sup>5</sup>.

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma'naviyat”, 2008y, 138-139-betlar.



Jumladan bizning har bir sohada o'zaro bilimdonlik, tadbirkorlik, puxta kuchga, birdamlik, hamjihatlikka egaligimiz mehribon, mehmondo'stligimiz, ota-bobolarimizni ijodiy meroslariyu, buyuk mutafakkirlarimizning shunday ozod-obod, erkin demokratik fuqarolik jamiyatini qurish uchun, o'zlarining butun umrlarini baxshida etib, ijod namunalarini yaratib ketgan buyuk siymolar yurti O'zbekiston yurtimizni mustaqilligini o'lmas, barhayot ekanligi va shu el farzandlari, yoshlari mustahkam mevalar beruvchi izdoshlarimizdir.

Mustaqil O'zbekistonning mamlakatlar ichida eng barhayotligi elimiz birligi, tinch-osoyishtaligi, gullab-yashashi, barchasi yoshlarimizning hamfikir, hamjihatligidadir. Bugungi bilimdon, aqlli, zukko yoshlarimiz bor ekan biz ular bilan faxrlanamiz, shu buyuk siymolar avlodi ekanligimizdan butun hayotimiz davomida yaratgan asarlari, ta'limiy-tarbiyaviy ko'rsatmalari bizga katta kuch beradi.

## **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shu jamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlash tayyorlash milliy dasturi"da ham barkamol shaxs tarbiyasiga asosiy e'tibor qaratilgan. Chunki, o'z bilimi, salohiyati, imkoniyatlarini jamiyat taraqqiyotiga to'liq sarflab, mustaqil fikrlay oladigan ijodkor shaxslarni shakllantirish, jamiyatda tub o'zgarishlar bo'lishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib qolaveradi... Inkori etib bo'lmaydigan ushbu haqiqat shu muqaddas zaminimizda yashaydigan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishini istardim"-deb ta'kidlashi ta'lim sohasini yangilashda ham ustuvor vazifa bo'lib sanaladi. Chunki shu jamiyatda yashaydigan inson keng faoliyatga tayyorlanar ekan, uning rivojlanishi, tafakkurini yangilashda o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni kiritish, o'quvchilarning erkin mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit bo'lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni



idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rnini to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarmiqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining faoliyatida ijodkorlik uning samarali ta'lim faoliyatini belgilab beruvchi ilmiy tasavvurlari evristik ta'limning pedagogik asosi sanaladi. O'quvchidagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o'quvchida atrof-olam ob'ektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati, fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M. Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G'oziyev, G'.SHoumarov, O. Roziqov, B. Adizov ta'kidlashlaricha, bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. Mazkur yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatlari bir-biridan farq qilar ekan, ularning iste'dodi ham turlicha namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mayl va intilishlari bilish va ijodiy faoliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

**Ijodkorlik** - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda



paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Shaxsning **ijodiy faoliyat** ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta'lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o'qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarish, kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish - kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o'tkir zehni, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo'lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g'oyasiga mos keladi.

**Faoliyat** – atrof-olamga nisbatan insonning o'ziga xos faol munosabatidir. Chunki insonning hayotda namoyon bo'lishining muhim shakli uning voqea-hodisalarga bo'lgan faol ishtirokidir. Har qanday faoliyatda hayotiy tajriba to'planadi, insonda o'z atrofini o'rab olgan borliqni bilish jarayoni kechadi, ma'lum bilimlar egallab olinadi, malaka va ko'nikmalar hosil bo'ladi, natijada inson faoliyati rivojlanadi.

Shaxs rivojlanishiga irsiyat, muhit, tarbiyaning ta'siri bilan birga unga faoliyatning ta'siri ham o'ta muhimdir.

“Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir. **Faollik** – (lotincha “aktus”)- harakat, “aktivus” –faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha hatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir”,- deb ta'kidlaydi o'zbek olimasi V. M. Karimova. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

**“Ijodiy faoliyat”**, - deb ta'kidlaydi A. M. Matyushkin – bilish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan tizimdir “.



Bir qator psixolog olimlar - N.P. Shcherba, V. S. YUrkevich, ye. L. Yakovlevalar: “Ijodiy faoliyat –inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayonidir. O’quvchi shaxsi aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi” [111,23,46],-deb hisoblaydilar.

A. N. Leontev fikricha, faoliyatning asosiy psixologik nazariyasi va ta’limga faoliyatli yondashuv quyidagi g’oyalar va tamoyillarni o’zida qamrab oladi:

1. Faoliyatga metodologik asos bir tomondan ob’ektiv dunyo, ikkinchi tomondan miyaga ruhiyatning ta’siri natijasida vujudga keladi.

2. Ruhiy ta’sirning faollik kasb etishi – bu sub’ektning ehtiyoji asosida amalga oshadi.

3. Moddiy dunyoda sub’ektni faoliyatga yo’naltirish, faoliyatning o’zi ham ijtimoiy munosabatlarda tarkib topadi.

4. Inson faoliyati ruhiyatining ijtimoiy tarixiy tabiatiga bog’liq bo’lib, bu jarayon ijtimoiy hayotning o’zida amalga oshadi.

5. Inson faoliyatida ruhiyat ichki faoliyat sifatida namoyon bo’ladi.

Barcha tahlillarni umumlashtirib, quyidagi fikrga kelindi: **faoliyat** – inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, o’quvchi shaxsining ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, hamda egallangan bilimlarni tatbiq etish, o’zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o’ziga xos faollik shaklidir.

Faoliyat jarayonida inson shaxsining har tomonlama yaxlit rivojlanishi, atrof- olamga munosabati shakllanadi. Inson faoliyati maqsadga muvofiq amalga oshishi uchun uni to’g’ri tashkil etish va to’g’ri yo’naltirish lozim. Lekin ko’p hollarda shaxsning rivojlanishi imkoniyatlaridan foydalanilmaydi, tarbiyalanuvchilar ko’pincha ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatini faol tashkil eta olmaydilar, hayotda sust harakat qiladilar.

O’quvchilar faoliyatining asosiy turlariga o’yin, o’qish, mehnatni kiritgan holda uning asosiy yo’nalishlarini bilish, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik, emotsional faoliyatlariga ajratish mumkin.

Faoliyat faol va passiv bo’ladi, faqat faol faoliyat insonning barcha imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga yordam beradi. Bunday faoliyat insonda qoniqish hosil qiladi, inson kuch-quvvatga to’ladi.

O’qishda faollik ijtimoiy tajribalarni tezroq o’rganib, anglab olishga, kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishga, o’zini o’rab



turgan atrof-olamga munosabatini shakllantirishga olib keladi. Bilish faolligi esa bolaning intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Mehnatda faollik shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishga undaydi, uni yanada muvaqqiyatli mehnat qilishga yo'llaydi. Rivojlanayotgan shaxsni doimiy faollikka ancha murakkab va qiyin kechadi. Zero, o'quvchining turli yoshda uning faoliyati o'zgarib turadi. Shuning uchun bu borada maktabdagi ommaviy tadbirlar bilan birga har bir o'quvchining inividual va yosh xususiyatlarini hisobga oladigan ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Inson qobiliyati va iste'dodi muvaffaqiyatlarga erishishining asosiy sharti ham insonning faolligidir. Chunki o'qituvchi qay darajada mahoratli bo'lmasin, agar o'quvchining o'zi faol bo'lmasa, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Chunki o'qituvchi o'quvchini o'qitish jarayonida uni boshqarib boradi. Shuning uchun ham o'quvchi o'z faoliyatida o'ziga ahamiyatli bo'lgan, o'ziga jalb eta oladigan hayot mummolari bilan shug'ullana borib, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlanadi.

Xullas, shaxs faolligi uning rivojlanishida vosita emas, balki uning natijasi hamdir. Ta'lim-tarbiya shu vaqtda maqsadga erishadiki, qachon u o'ziga ham boshqalarga ham quvonch keltira oladigan ijtimoiy, faol, tashabbuskor, ijodkor shaxsni shakllantira olsa. Ana shunda shaxs faoliyati jarayonida uning barcha potensial imkoniyatlari ro'yobga chiqadi. Faoliyatga faylasuflar sub'ektning ob'ekt bilan o'zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha sifatida ta'riflaydilar. Faoliyat inson uchun atrof-olam bilan o'ziga xos aloqa, ular o'rtasida vosita bo'ladigan, tartibga soladigan, nazorat qiladigan, o'zaro munosabatlardir, deb ta'rif beradilar.

Faoliyatga uni qanoatlantiruvchi ehtiyoj sabab bo'ladi va harakatlar tizimida amalga oshadi. Insonda ruhiy holatning mavjudligini ko'zlaydi va uni paydo bo'lishining asosiy sharti hisoblanadi hamda uning rivojlanishida harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Faoliyatning oddiy va oliy shaklini farqlay bilish zarur. Oliy shakl instinktiv (instinkt) moslashuvidan iborat. Ikkinchisi, oliy shakl birinchisidan o'sib chiqib, uning ko'rinishini o'zgartirib insonning ongli harakatiga aylanadi. Faoliyat oliy shakllanishning o'ziga xos xususiyati uning atrof-muhitni ongli ravishda o'zgartirishdan iborat. Inson faoliyati ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi. Inson o'zini faol sub'ektga, o'zi munosabatga kirishgan tabiat hodisalarini esa o'z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi.



Har qanday faoliyat maqsad, usul, natija va jarayonlardan iborat bo'ladi. Faoliyatning ongli ravishda amalga oshirilishi uning asosiy xususiyatidir. Zero, faoliyat bir tomondan jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa aqliy harakat vositasida ongda sodir bo'ladi. Mehnat inson faoliyatini amaliy va nazariy shakllarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Inson faoliyatining boshqa turlari (o'yin, o'qish va boshqalar) ham genetik jihatdan mehnat bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida mehnat asosida maxsus ijtimoiy-zaruriy nazariy faoliyat sifatida aqliy mehnat paydo bo'lgan. Faoliyatning ham moddiy, ham ma'naviy tuzilmasining tahlili uning mazmunini tashkil qiladigan quyidagi asosiy elementlarini aniqlab beradi: faoliyatga undovchi sabablar; maqsadga yo'naltirilgan natijalar; faoliyat yordamida amalga oshiriladigan vositalar. Shunga muvofiq ravishda sub'ektning borliq bilan o'zaro harakat jarayonining o'zida muayyan tarzda yaxlit motivlashtirilgan faoliyat, uning tarkibida maqsadga qaratilgan harakat va nihoyat, mazkur harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismlari-operatsiyalar ajralib chiqadi.

Psixolog olimlar: A.N.Leontev, S.L. Rubinshteyn va boshqalarning tadqiqotlariga ko'ra turli xil psixik jarayonlarning o'tishi va rivojlanishi "faoliyatlarining mazmuni va tuzilishi, uning motivlari, maqsadlari va amalga oshirish vositalariga bevosita bog'liq". Shuningdek, P.YA.Galperin, B.D.Elkoninlar o'z tadqiqotlarida tashqi moddiy ta'sir asosida ularning izchil o'zgarishlari orqali aqliy jihatdan sodir etiladigan va insonni atrof-olamga har tomonlama mo'ljal olishini ta'minlaydigan ichki ideal harakati shakllanadi degan fikrni ilgari suradilar. Harakat davomida faoliyat bolaning psixofiziologik imkoniyatlarining o'sishi, uning hayotiy tajribalarining ortishi munosabati bilan o'zgarib turadi, zarur paytda atrofidagi odamlarning murakkabroq talablarini bajaradi. Bola rivojlanishining har bir yosh bosqichida muayyan faoliyat (masalan, maktabgacha yoshda o'yin, maktabda-o'qish) yangi psixik jarayonlar hamda shaxs xususiyatlarining shakllanishida yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Insonning hayotda namoyon bo'lishining muhim shakli uning atrof-olamga bo'lgan faol munosabatidir. Faoliyatga inson turli ehtiyojlar sababli majbur bo'ladi. Bu ehtiyojlar uning ongida unga tegishli bo'lgan ob'ektlar, uning ehtiyojlarini qondirilishiga olib keladigan harakatlarning obrazi tarzida ifodalanadi. Faoliyat motivatsiyalar xarakteriga ko'ra ko'p jihatdan uning bajarilishidagi harakatga shu bilan birga maqsadga erishishdagi natijaga bog'liq. Faoliyatning motivi va maqsadi inson



hayotining ijtimoiy sharoiti va uning individual rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Individ tomonidan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish faoliyatning individual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Faoliyat bir qator o'zaro ichki bog'langan harakatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq yaxlit holda har bir faoliyat ongli xarakterga ega bo'ladi. Ongli maqsad qonun sifatida inson harakatining usul va xarakterini belgilab beradi. U istalgan natijaga erishish yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlarni faol yengib o'tishga undaydi. Inson faoliyatining asosiy turi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning jismoniy va aqliy mehnati hisoblanadi. Jismoniy, unumli mehnat jamiyat va har bir inson hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar yaratishga qaratilgan. Aqliy mehnat borliqni o'rganishga, ilmiy nazariyalar yaratishga, adabiy, badiiy va boshqa ma'naviy boyliklar yaratishga yo'naltirilgan. Inson faoliyatining muhim turi- o'rganishdir.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikma hosil qiladi. Ana shular yordamida faoliyatning o'zi ham rivojlanadi. A.Leontev, S.Rubinshteyn, B.Teplova va boshqalarning tadqiqotlaridan ma'lumki, faoliyat va psixik jarayonlar rivojlanadi, insonning aqliy, emotsional va irodaviy sifatlari, uning qobiliyati va fe'l-atvori shakllanadi.

Falsafiy jihatdan ta'riflaganda faoliyat – sub'ektning ob'ekt bilan o'zaro harakati jarayonidagi vazifasini xarakterlaydigan tushuncha. Faoliyat – atrof-muhit bilan o'ziga xos aloqa inson bilan muhit o'rtasida vosita, uni tartibga soladigan, nazorat qiladigan o'zaro munosabat. U insonda ruhiy holatning mavjudligini ko'zlaydi va shu bilan birga uning paydo bo'lishining asosiy shartini tashkil etadi hamda rivojlanishida harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Ma'lumki, inson biologik va sotsial (ijtimoiy) jihatdan rivojlanadi.

Uning biologik jihatdan rivojlanishi go'daklik, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, yoshlik, qarilik davrida namoyon bo'ladi va o'ziga xos tabiiy xususiyatlari bilan farq qiladi. Insonning biologik xususiyatlari negizida uning ijtimoiy sifati va xususiyatlari - nutqi, yurish-turishi, moddiy ne'matlardan foydalanishi ko'nikmalari, xulq-atvor me'yorlarining tarkib topishi, bu me'yorlarga rioya qilishi mehnat faoliyati va kasb-hunar, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishi, ongli intizom kabilar shakllanadi.



Rivojlanishni L.S.Vigotskiy talim jarayoni bilan birgalikda qaraydi. Lekin ta'lim va tarbiya bola rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa ham, ammo hech qachon bir-biri bilan teng va parallel holda sodir bo'lmaydi. Ular bevosita bir-biriga bo'ysunmagan holda dinamik tarzda sodir bo'ladiki, buni bir xil ta'riflash mumkin emas.

Bolaning rivojlanishida yuqori psixik xususiyatlar ikki holatda paydo bo'ladi: birinchisi, jamoaviy, ijtimoiy faoliyat, ikkinchisi esa, individual, bolaning ichki tafakkuri usuli sifatida. Birinchisi, bolada qator ichki rivojlanuvchi jarayonlarni qo'zg'atib, uni rivojlanishga undaydi.

Ikkinchisi esa bolaning ichki tafakkuri usuli sifatida individual tarzda paydo bo'ladi.

Demak, ta'limda rivojlanish yo'llanma bo'lib, bolani hayotga tayyorlaydi. Ichki rivojlanish jarayonlarini harakatga keltiradi, shunga ko'ra ta'lim rivojlanish emas. lekin to'g'ri tashkil etilgan ta'lim bolalarda aqliy rivojlanish va hayotda ta'lim-tarbiyasiz amalga oshirib bo'lmaydigan jarayondir. Xullas, ta'lim bolaning rivojlanish jarayonining eng muhim pallasi sanaladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, an'anaviy boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarning to'liq rivojlanishini ta'minlay olmaydi, balki ularda maktabgacha ta'lim davridan boshlab hissiy kuzatuvlar, empirik tafakkur amaliyotga tayyorlaydi xolos.

Shuning uchun ham V.V.Davidov tomonidan fikrlash faoliyatiga asoslangan ta'lim mazmuni ishlab chiqildi. D.B.Elkonin tomonidan esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda nazariy bilimlarni o'rganish jarayonida tahlil qilish, rejalashtirish, refleksiya, o'quv faoliyati nazariyasi va uning sub'ekti masalalari asosida rivojlanishi masalalari tadqiq etildi.

Qator yetakchi psixologlar: V.V.Davidov, D.B.Elkonin va boshqalar ta'kidlashicha, o'quvchilarning o'quv faoliyatini amalga oshirish ularning bilishga doir va shaxsiy xislatlarini har tomonlama, to'liq rivojlanishini ta'minlaydi. Sub'ektning mazkur faoliyati uning kamol topishi, ya'ni bolaning o'quvchiga aylana borishi va o'z-o'zini anglay boshlashi bilan rivojlana boradi. O'quv faoliyatiga ehtiyojning ortishi esa uning o'qishiga bo'lgan qiziqishini mustahkamlay boshlaydi. O'quv faoliyatini egallay olishi bilim olish malakasini shakllantiradi. Xuddi ana shu o'qishga bo'lgan istak va ko'nikma o'quvchini o'quv faoliyatini sub'ekti sifatida namoyon etadi. Bu esa L.S.Vigotskiyning ta'lim va rivojlanish haqidagi



nazariyasini tan olishga yo'llaydi. Insonning faoliyati ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'limda har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga – predmetga qaratilganligi uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchisi daftarga muayyan yozuvni tushirayotganda, uning harakati yozuvga qaratilgan bo'ladi va yozuv orqali bilim ko'lamini kengaytirishga harakati oshadi.

Mehnat asosida boshlang'ich sinf o'quvchisi faoliyatining amaliy va nazariy shakllari rivojlanadi. Bunda amaliy faoliyatining xususiyati shundan iboratki, bu xususiyat u yoki bu vaziyatlarni qayta o'zgartirishga bevosita yo'naltirilgan bo'ladi. Nazariy faoliyat bu maqsaddan farq qilgan holda qayta o'zgartirish usullarini aniqlashga, qonuniyatlarni ochishga ta'sir ko'rsatadi. Nazariy faoliyat amaliy faoliyat vazifalariga ta'sir etish bilan ortib boradi va rivojlanadi hamda mazkur vazifalarni yanada samaraliroq hal etishga yordam beradi.

Inson va jamiyat ehtiyojlarining xilma-xilligiga qarab kishilar faoliyatining xilma-xilligi vujudga keladi. Bu xilma-xillikning har biri odatda o'zida faoliyatning ham tashqi, ham ichki, ham amaliy, ham nazariy elementlarini namoyon etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z g'oya, fikr va qarashlarini faoliyati davomida amalda qo'llaydi va yangilik yaratadi. Ana shu yangilik yaratish ijodkorlik bo'lib, tafakkurning eng oliy shaklidir. Qo'yilgan vazifani hal etishda ma'lum bo'lgan usullardan foydalanmaydi. Faoliyatning maqsadi va usullarning tarkibi sifatida mahorat va tashabbuskorlikning asosiy sharti sifatida uni ijodiy faoliyat darajasiga ko'taradi.

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda “ijod”, “ijodkorlik” kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas.

**“Ijod”** so'zining lug'aviy ma'nosi: “yaratish”, “yangilikni kashf etish” so'zlariga monand keladi.

**Ijodkorlik** - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi.



Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir.

Ijodkorlik - sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi mehnati, ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta'lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o'qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi. Psixolog olim V.A. Krutetskiy bu haqda haqqoniy fikr bildirgan: "Qobiliyat faqat mehnatda namoyon bo'libgina qolmaydi, balki mehnatda shakllanadi, kamol topadi, barq urib yashnaydi ham. Aksincha harakatsizlik halokatga mahkum etadi".

A.V. Petrovskiy fikri bilan aytiganda "Qobiliyat faqat o'sishdagina mavjud bo'ladi. Qobiliyat inson faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi, ta'lim va tarbiya sharoitlarida esa u shakllanadi". B.M.Teplov esa "Qobiliyat inson faoliyatidan tashqarida paydo bo'lishi mumkin emas", - deb ta'kidlaydi.

Biroq ma'lum bir faoliyat tufayli iste'dod belgilari va qobiliyatlar har doim ham bolalikdan namoyon bo'lavermaydi. Shuning unun qobiliyati bor deb bolani bir yoqlama tarbiyalash bolani bezdirib qo'yib, faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullanishini bo'g'ib qo'yish mumkin.

Ta'lim-tarbiyada bolalarning har tomonlama kamolga yetkazish asosiy maqsad qilib qo'yilgani ham tarbiyaning ana shu qonuniyatlariga asoslanadi. Har tomonlama ta'lim-tarbiya berish bolalardagi yashirin iste'dodlarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Buning uchun



o'quvchilarni kichik maktab yoshidan boshlab o'z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat berilishi maqsadga muvofiq. Har bir bolaning qobiliyatini namoyon etuvchi faoliyatga yo'llashning eng maqbul yo'li ularda ijodkorlikni rivojlantirishdir.

O'quvchi ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot yarata olmaydi va bu maktabning vazifasiga kirmaydi ham. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtirgan bilimlari, mahoratini o'z saviyasi darajasida qo'llaydilar. Aqliy faollik, o'tkir zehn, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon etadi. Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning ijodiy faoliyati u yaratayotgan o'quv jarayonida masalalar yechish, muammolarni hal etishda, insholar yozishda rivojlana boradi. O'quvchi bu borada maktabgacha ta'limda va undan keyin shu vaqtgacha olgan bilimlarini tadbqiq etadi. Bunda o'quvchi yangi usullarni qo'llaydi. Topshiriqni bajarish uchun faollik ko'rsatish, zehniligi, zukkoligi, kashfiyotchiligi, zarur bilimga ega bo'lish uchun harakat qilishi, muammolarni yechishda harakatchanligi, mustaqilligi, mehnatsevarligi, voqea-hodisalar ichida eng muhimini tanlay bilishi, umumiyisini ko'ra bilish qobiliyati kabilarni rivojlantirishga imkon beradigan faoliyat ijodiy faoliyat, samarali faoliyatdir. O'quvchi mustaqil holda bajargan ijodiy ishlar: she'r, insho, hikoya, model, maket, o'yinchoqlar, badiiy mehnat mahsulotlari ijodiy faoliyatni rivojlantiruvchi samarali natijalardir. Ayniqsa ijod, san'at, mehnat namunalarini yaratishda umumiy ma'lumot bilan birga, ularni yaratish texnologiyasini bilish kasb-hunarga oid bilim ham kerak bo'ladi. Bu borada bolalarning qiziqishlari, qobiliyati, mayllarini hisobga olgan holda mehnat turlarini o'quv jarayoniga kiritish, ijod turlarining rang-barangligi va xilma-xil bo'lishiga sharoit yaratish talab etiladi.

Sharq mutafakkirlari: Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'iloniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish va boshqalar asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iste'dodini takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan. Masalan, az-Zamaxshariy insonning faolligini oshirishda quyidagilarga e'tibor berish lozimligini uqtirgan:

Birinchisi - fahm-farosat tezligini tarbiyalash; inson diqqatini zarur va muhim narsalarga, ya'ni hal etilayotgan masalalarning ichidan eng muhimini ajratib olish qobiliyati;



ikkinchisi - bilimlarni tez egallash qobiliyati. Bunda bilimlarni egallashda butun diqqatini o'rganilayotgan muammoga qaratish va uni o'zlashtirib olishga erishish;

uchinchisi - qo'yilgan muammoni tez anglab olishga butun diqqatini qaratish;

to'rtinchisi - o'rgangan bilimlarini esda saqlash qobiliyati va boshqalar.

Abu Rayhon Beruniyning "aql asosida erishiladigan natijalar" haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha "buyumlarni chinakam bilish - tashqi ko'rinishini tahlil qilish sababalarini aniqlash asosida idrok etishga erishiladi".

Abu Ali ibn Sino "aql" deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni – "insoning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlaydigan kuch",- deb ta'riflaydi. Aql insonning hatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni aniqlaydi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi,- deb uqtiradi.

Demak, ulug' mutafakkirlarimiz ham shaxs rivojlanishida faoliyat va ayniqsa ijodiy faoliyatning ahamiyatiga alohida e'tibor berishganlar. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ularga o'ziga xos yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har bir bola o'ziga xos, betakrordir. Shaxsning o'ziga xosligi uning turli xil individual va ijtimoiy rivojlanish omillari ta'sirida shakllanadigan psixikasining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirilayotgan hozirgi paytda ijodkor, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, ijodiy faoliyatini shakllantirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Ta'lim shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Hozirgi davrda ayniqsa, ta'limni insonparvarlashtirish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishidagi shaxsiy faolligini oshirishga qaratilgan. U bilim olish uchun shaxsiy ijodiy izlanish qobiliyati va imkoniyatini shakllantiradi. Hozirgi talablarga ko'ra, o'qituvchi bilim berishda passiv ob'ekt bo'lib qolmaydi, balki o'quvchining mustaqil va ijodkor bo'lishiga intiladi. Insonparvarlik yondashuvi maktabni bolaning shaxsiyatiga, uning ichki olamiga, hali namoyon bo'lmagan qobiliyat va imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.



1. O'quvchilarda insonparvarlik munosabatlarini tarkib toptirish. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda ta'limni yangilashda inson qadr-qimmatini yuqori qo'yuvchi, o'zaro munosabatlar madaniyatini tarkib toptiruvchi muhitni vujudga keltirishni talab etmoqda.

2. Ta'limni insonparvarlashtirish shaxs jamiyatni yangi talablariga ko'ra tarbiyalashda ta'limni ham ana shu talablar asosida tashkil etish, ya'ni ularni milliy va madaniy an'analarga hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasiga mos holda shaxsni hurmat qilishi, uning qadr-qimmatini saqlash, imkoniyati va qobiliyatini to'liq namoyon etishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi

3. Ta'limni insonparvarlashtirishda o'quvchilarning ruhiy, jismoniy, intellektual, axloqiy rivojlanishida pedagogik hamkorlik ustuvorlik kasb etadi. O'quv jarayoni va boshqa hayotiy vaziyatlarda erkin, mustaqil fikrlaydigan va faoliyat ko'rsatadigan shaxs insonparvar fuqaroni shakllantirishga qaratiladi va barcha pedagogik shart-sharoitlar o'quv jarayonini insonparvarlik yo'nalishida tashkil etadi.

Ta'limga differensial yondashuv. Bu o'quv faoliyatini o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatini hisobga olgan holda tashkil etish kiradi. Bu borada quyidagilarni hisobga olinadi:

- o'quvchilarni jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra;
- ularning qobiliyati, ma'lum fan sohasiga oid qiziqishiga ko'ra;
- o'quv fanlari mazmuniga ko'ra;
- o'quvchilarning qobiliyati va manfaatlariga mos keladigan ta'lim darajasini farqlashga ko'ra.

Ta'limda individual yondashuv bu bolalarni bir-biriga taqqoslash emas, balki har bir bolaning o'quv-biluv jarayonida, hayot yo'lining turli bosqichlarida taqqoslashdan iboratdir. Harakatlanish xususiyatlariga qarab farqlanishlar har qanday teng sharoitlarda individning umumiy faolligi, uning harakatchanligi va emotsionalligiga qarab yuz beradi. Bolalikdan ulardagi individual farqlar ma'lum bo'la boshlaydi. Bu farqlar ularning xulq-atvori va faoliyatining turli shakllarida ko'rinadi. Ta'limda individual yondashuv bolaning psixik holati, qiziqishi, yashash va o'qish sharoitlarini hisobga olgan holda uni amalga oshirishni talab etadi. Demak, individuallik bolalarning o'ziga xosligini, uning boshqalardan farqini ifodalovchi xislatlari majmuidir.

O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish ham eng muhim talablardan sanaladi. Bu esa hozirgi fan-texnika sohasida taraqqiy etgan globallashuv jarayoni kechayotgan ta'limni jahon taraqqiy etgan davlatlari ta'lim tizimi darajasiga



tenglashtirishni taqozo etadi. Zero, bugungi kunda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qitishning an'anaviy usulidan, texnologik, ijodiy-izlanuvchanlik usuliga o'tish bilimlarni tayyor holda o'quvchiga yetkazishdan, o'quvchining intellektual qobiliyatini amalga oshirishga yordam beradigan texnologik, ijodiy-izlanuvchanlik usuliga o'tish sharoitida texnologik yondashuv aynan o'quv maqsadlariga erishuv imkonini beradi. Natijada ta'lim oluvchilar faoliyatini rag'batlantirish, tashabbuskorlikda faoliyat yuritishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'z-o'zini anglash, yoki shaxs "men" ini shakllantirish ham o'ta muhimdir. Bu o'quvchida o'z xulqini tarkib toptiradigan, o'z-o'zini anglagan va anglamagan tasavvurlari tizimi sanaladi.


O'quvchini o'z "men"ini anglashi ta'lim natijasi, o'z-o'zini anglashning yakuniy darajasi.

Olima Sh.Abdullayeva ta'kidlaganidek, o'quvchi "men"i bilan bog'liq barcha holatlar shuni ko'rsatadiki, o'rganish bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar ijodiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar sabablarini tushunishi uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchi "men"i yoki boshqacha aytganda o'z-o'zini anglashning mazmuni, psixologlar ta'kidlaganidek, ta'lim va tarbiyaning eng muhim natijalaridan biridir. Bu esa bolaning ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etadi. Demak, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qilishda ularning tashqi va ichki faolliklarini inobatga olish lozim. Bunda **tashqi faollik** – tashqaridan va o'z ichki istak-hohish ta'sirida o'quvchining bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlari tushuniladi. **Ichki faollik** esa – u yoki bu faoliyatni o'quvchi tomonidan bajarish mobaynidagi psixik jarayonlarni o'z ichiga oladigan faoliyat tushuniladi. Faoliyat pedagogikada psixologik qonuniyatlarga tayangan holda o'ziga o'quv-biluv jarayonida turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tamoyillarni qo'llash asosida tashkil etiladi. Chunki o'quvchi faoliyati o'quv jarayonida bilimlarni o'rganish, malaka va ko'nikmalar hosil qilishi asosida bilishga oid, yaratuvchilik, estetik, kommunikativ vazifalarini bajaradi. Shuningdek, mazkur vazifalar maqsad, faoliyat predmeti, vositalari, bajarish usullari, natija bilan amalga oshadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish modelini quyidagicha tavsiya etishni lozim topdik.(1.1. 1-rasm)



### 1.1.1-rasm. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish modeli



Demak, shaxsning rivojlanishi bevosita uning faoliyatida ro'y beradigan o'zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo'llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog'liq holda kechadi va o'zgarishlar asosida inson faoliyatining faolligi shakllanadi. Agar ta'lim o'quvchilar faoliyatining faolligini shakllantirmay, uning rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratilmasa, shaxs har tomonlama kamol topishi qiyin.



Ta'limda faoliyat uni boshqarishga yangicha yondoshuvni talab etadi, didaktik tamoyillar yangi mazmun kasb etadi va o'qitish texnologiyasini o'zgartiradi. An'anaviy didaktikada buni amalga oshirib bo'lmaydi. "O'quv faoliyati", "Aqliy faoliyat" hozirgi davr pedagogikasining eng muhim konsepsiyasi sifatida maydonga chiqmoqda. Uning asoschilari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin, V.V.Davidov, P.Ya.Galperinlar pedagogik-psixologiyada ta'limga faoliyatli yondoshuv nazariyasini yaratdilar.

Ta'lim jarayoni o'quvchilar faoliyatini tizimli tashkil etishni taqozo etadi. Ta'limning barcha tarkibiy qismlari uning o'quvchi faoliyatini tizimli tashkil etish - bu ta'lim maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, ta'lim mahsuli, bilim, ko'nikma va malakalarning o'zaro aloqasida amalga oshadi.

Faoliyatning rivojlanishi ta'limda ma'lum didaktik prinsiplar asosida yuzaga keladi. Bular ilmiylik, uzviylik, tizimlilik, qulaylik, ta'limda faollik, ongliklik kabilardan iborat bo'lib, ta'lim tizimidagi nuqsonlarni bartaraf etib, unda o'zgarishlar qilishni taqozo etadi.

## **1.2. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari**

Ta'limning dastlabki kunlaridanoq kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishini harakatga keltiradigan turli ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, ichki ixtiloflar vujudga keladi. Ana shular zamirida boladagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yotadi. Talablarning toboro ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi va shu rivojlanish zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Ta'lim mazmuniga, bilimni egallashga qiziqish o'quvchining o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istagi, ehtiyojini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonish hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi, rag'batlantirish va jazolash me'yorida bo'lsagina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi.



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch hissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'qituvchining bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql-idrok sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon, hatto donishmand inson deb biladi. O'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati, orzu istagi, ajoyib his-tuyg'ularini ro'yobga chiqaruvchi mo'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchisining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obro'sidan oqilona va omilkorlik bilan foydalanib, o'quvchilarda uyushqoqlik, mehnatsevarlik, o'qishga ijobiy munosabat, o'z diqqatini boshqarish, xulqini idora etish, o'zini tuta bilish, qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak.

Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, uquvliligi, esda saqlab qolish, esga tushirish imkoniyatlarini rivojlantirishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi; bolalarda o'qish, yozish, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari kengayadi, bilishga qiziqishlari ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. O'quv fanlariga ijobiy munosabat, qat'iy shug'ullanish niyati, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatni his qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyatini anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

O'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolishi uchun muayyan intilishni tarkib topishi, ularga eslab qolishning fikr yuritish yo'llarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o'rgatishdan iboratdir.

Bu vazifani eng avvalo maktab psixologlari qatorida boshlang'ich sinf o'qituvchilari amalga oshirishlari shart. Tafakkur –atrof-muhitdagi voq'elikni nutq yordami bilan bevosita umumlashgan holda aks ettiruvchi jarayon.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilish, o'rganilgan materialni takrorlash orqali tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa, ular materiallarni bevosita takrorlashda uzoq



vaqt to'xtalib qoladilar. Lekin o'quvchilar materiallarni eslashni xush ko'rmaydilar va uni osongina tiklash yo'lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.

Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvurlari fikr yordamida muayyan voqelikka aylanadi. O'rganilayotgan fan materiallaridan eshitilgan va o'qilgan badiiy obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi obrazlar, ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy tasavvurni takomillashtiradi. Ijodiy tasavvurning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolligi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi, g'ayritabiiy, ajoyib-g'aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o'quvchi tasavvurida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar holati tobora kengayadi. Bu esa o'quvchilarda hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada u taassurot qurshovidan qutuladi. Yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi.

O'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamolga yetkazish uchun ularni boshlang'ich sinflardan o'qitish ijodiy faoliyatini kamol toptirish zarur. Chunki boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning didi, dunyoqarashi, salohiyati barcha psixik jarayonlar individual-psixologik xususiyatlari jadal shakllanadi.

Psixolog olimlar - S.A.Rubinshteyn, B.G.Ananov birinchilar qatorida umumiy, aqliy rivojlanish umumiy intellekt bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tdilar. Masalan, B.G.Ananov murakkab psixik xususiyatlarni tadqiq qilish bilan birga, o'qish va mehnatdagi muvaffaqiyat ana shu xususiyatga bog'liqdir, - degan farazni ilgari suradi. Olim bu kategoriyalarni bilishga oid turli vazifalarning qo'yilishi va hal etilishi bilan bog'liq yo'llarini ko'rsatib beradi. Keyingi yillarda muammoni turli yo'nalishlarda intensiv tarzda tadqiq etishga qiziqish uyg'ondi. Bu tadqiqotlar borasida N.S.Leytesning tadqiqotini qayd qilib o'tish muhim. Leytes avvalo aql sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiy aqliy qobiliyatlar (garchi ular jiddiy ravishda iroda va emotsional xususiyatlarga bog'liq bo'lsa ham) odamning nazariy bilish va amaliy faoliyat imkoniyatlarini xarakterlab beradi,- deb ta'kidlagan. Odam intellekti uchun eng muhim narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va



munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkoniyatini beradi. N.S.Leytesning ko'rsatishicha, oliy nerv faoliyati xususiyatlarida faollik va o'z-o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo'lib, bular umumiy aqliy qobiliyatlari tarkib topishinig muhim ichki shartlaridan biridir.

Hozirgi davrda psixologlar ta'lim jarayonida o'quvchilarda faol mustaqil ijodiy faoliyatni mustaqil bilish faoliyatiga, mustaqil holda bilimlarni egallashga yo'naltirishga harakat qilmoqdalar.

O'quvchilarning bilish faolligini maksimal darajada faollashtirish, ularning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish maktab ta'limining muhim vazifasiga aylanib bormoqda.

Ta'limning asosi - o'qitishning o'quvchilarga yetkazadigan mo'l-ko'l axborotni esda saqlab qolish emas (garchi bu muhim vazifa bo'lsa-da), balki bu axbortni qabul qilish jarayonida o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etishi, ularning mustaqil bilim olish qobiliyatini asta-sekin shakllantirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Bugungi kunda pedagog olimlar L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oya, ya'ni ta'lim berish o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini qo'llamasdan, o'quvchining tafakkuriga uning imkoniyatlarini birmuncha oshiradigan talablar qo'yilishi, u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilishi kerak, degan qoidaga asoslanadilar. A.S.Vigotskiy ta'limning aqliy rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim, - deb hisoblagan edi. Ta'lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo unchalik tarkib topmagan va shunday ta'lim ta'siri asosida taraqqiy etgan narsalarga tayanmog'i lozim. Vigotskiy boladagi aqliy rivojlanishning ikki darajasi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Birinchi daraja, ya'ni Vigotskiy aytganidek, aktual rivojlanish darajasi o'quvchi tayyorgarligining mavjud darajasi bo'lib, u o'qituvchining topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Ancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (Vigotskiy uni eng yaqin rivojlanish zonasi deb atagan) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan (yo'l-yo'riq beruvchi savollar, aytib berishlar, ishora qilishlar) umumiy ko'rsatmalar ta'lim jarayonida aktual rivojlanish darajasiga o'tadi deb ta'kidlagan edi. Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;



- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

U. Nishonaliyev aqliy rivojlanishning asosiy mezonini - to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati tuzilmasining (tarkib topgan o'quv faoliyati) hamda uning tarkibiy qismlarining to'g'ri rejalashtirilishidir, degan g'oyani ilgari suradi.

O. Hasanboyeva kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fikrlash faoliyatining quyidagi xususiyatlari: o'zlashtirishning tezligi yoki sustligi; fikrlash jarayonining o'zgargan sharoitlarga moslashtirish osonligi yoki qiyinligi; fikrlash doirasining o'zaro bog'liqligi; analitik-sintetik faoliyatning turli darajalari sifatida qaraydi.

Ijodiy faoliyatda muammoli vaziyatlar yaratish bu muammoli vaziyatlarni yechishga o'quvchilarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

1. Maktab o'quvchilari shaxsini rivojlantirish, uning qobiliyati, o'qishga qiziqishi, hohish va istagini shakllantirishi;
2. Axloqiy va estetik hissiyotini tarbiyalash, o'zi va o'z atrofini o'rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirish.
3. Bilimlar tizimini, malaka va ko'nikmalar, faoliyatning turli shakllarini egallab olish.
4. Bolalarning jismoniy va psixik salomatligini muhofaza qilish.
5. Bola shaxsining individualligini himoya qilish.

Zero, ta'lim faol, ijodiy, mahsuldor, intellektual faoliyatni o'zaro aloqadorlikda amalga oshiradi. Ijodkorlik boshlang'ich ta'limda o'qituvchi faoliyatining asosiy turi bo'lishi zarur.

Muammoli vaziyatlar o'qitishning har qanday bosqichida ta'lim mavzusini tushuntirish, uni mustahkamlash, natijalarini nazorat qilishda ham yaratilishi mumkin.

O'qituvchi muammoli vaziyatni yaratar ekan, o'quvchilarni uning yechimini yo'llashga yo'naltiradi. Shunday qilib, bola ta'limning sub'ektiga aylanadi va unda yangi bilimlar shakllanadi, u harakat qilishning yangi usullarini egallaydi.

Pedagogik o'yinlar ayniqsa, o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Aynan shunday o'yinlar vositasida kattalar va kichiklar o'rtasida muloqot o'rnatadi. Bu



muloqotlar shaxsiy yondashuv asosida qurilishi kerak. O'qituvchi bolani faqat o'quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o'ziga xos inson deb yondashuvi lozim. O'yinlarda bolaning shaxsiy sifatlari boyib, o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi hamda o'quvchilarning hulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi.

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuv, dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda yangicha yondashuv hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o'zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo'naltiradi. Masalan, integratsiyalashgan ta'limni yo'lga qo'yishda sof ilmiy bilimlar, adabiyot, musiqa, san'at yordamida har tomonlama mukammal ko'rsatib berish imkoni tug'iladi. Bu esa bola shaxsining emotsional va axloqiy rivojiga, unda ijodiy tafakkurning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga integratsiyali yondashuvni bir dars emas, balki mazmuni, metodik va tashkiliy tomondan o'quv fanining ma'lum bo'limi olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda o'quvchilarda aqliy qobiliyatning rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega.

Aqliy qobiliyatni rivojlantirishda boshlang'ich ta'lim muhim o'rin tutadi, chunki xuddi shu davrda shaxs uning qiziqishlari, moyilliklari shakllanishi uchun poydevor yaratila boshlaydi. Jamiyat uchun mustaqil tanqidiy fikrlay oladigan harakat qila oladigan ijodkor shaxslarga talab hozirgi kunda o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish pedagogikaning dolzarb muammosi bo'lib turibdi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dastur”ida: Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi “Inson uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlari ta'sirchan mexanizmlarini yaratish”dan iboratdir.

Bu muhim masalani hal etishda “Kadrlar tayyorlash milliy modeli”ning asosiy tarkibiy qismlari shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy aloqasi shaxs rivojlanishining yaxlit tizimini yaratishni nazarda tutadi.



Masalaning bunday qo'yilishi ta'lim-tarbiya maqsadlari, mazmuni, uslublari, shuningdek, vositalarini aniqlashda hal qiluvchi mezon. Bunday yondashuv ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar munosabatlarining o'zgarishiga-o'quvchilarning faolligi ortib va mustaqilligining kuchayishiga, ta'lim jarayonining takomillashib borishini taqozo etadi. Bunda o'quvchi ta'lim-tarbiya ob'ekti sifatida o'z-o'zini kashf etishning sub'ekti ham bo'lib maydonga chiqadi.

Bunday yondashuv maktab ta'limini bola shaxsi, uning ichki dunyosiga - hali ochilmagan qobiliyatlari va imkoniyatlariga erkinlik berib, ta'lim-tarbiyaning axloqiy negizlarini shakllantirishga yo'naltiradi. Maktab ta'limining maqsadi hamda ichki kuch va imkoniyatlarini uyg'otish, shaxsning erkin ijodiy rivojlanishi uchun ulardan to'g'ri, unumli foydalanish kabilardan iboratdir.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy salohiyat va uning ijodiy faoliyat bilan o'zaro aloqada tuzilma tarkibini quyidagilarga ajratish mumkin.


1. Motivli-maqсадli o'quvchi faoliyatiga shaxs sifatida munosabatda bo'lishi. Uning qiziqishlari, maqsadlari, intilish ehtiyojlarini hisobga olish.

2. Mazmuniga ko'ra – olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari hamda integratsion bilimlarni hisobga olish.

3. Bilim, ko'nikma malakalarni egallashda tashkiliy-metodik faoliyatni amalga oshirish.

4. O'z faoliyatini baholash - o'z tassavvurida o'z-o'zini, o'z ijodiy faoliyati va uning natijalarini baholash orqali o'z imkoniyatlarini aniqlash.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shaxs ijodiy salohiyati tuzilmasini quyidagicha tavsiya etish mumkin:



Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsi ijodiy salohiyatini rivojlantirishga dasturlarda ifodalangan ta'lim mazmunini saralashni taqozo etadi. Chunki, hozirgi davrda dastur va darsliklar o'quvchining ijodiy qobiliyati va salohiyatini rivojlantirishga doir talabga javob bermaydi. Vaholanki, ijtimoiy gumanitar, ilmiy tabiiy fanlar o'quvchilar ongiga ta'sir etib, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga turtki beradi. Shaxs ijodiy salohiyati tinimsiz va uzluksiz mehnat natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'qitish va tarbiya jarayonida ijodiy ta'lim mazmuni (o'quv-biluv, tashkiliy, pedagogik hamkorlik kabi pedagogik texnologiyalar) asosida shaxsga yo'naltiriladi.

O'quvchi ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi ham umuman olganda ijodiy faoliyatni rivojlantiradi.

Maqsadga yo'nalganlik quyidagi aniq vazifalarni o'z oldiga qo'yadi: o'quvchining o'z odiga qo'ygan maqsadini anglab olganligi, ijodiy faoliyatda ijobiy rag'bat va ijodkorlikka ehtiyojni his etishi, bilimlar tizimiga ega bo'lishi, ijodiy faoliyatni tashkil etish, malaka va



ko'nikmalarga erishilgan natijalarni baholashga doir bilim va tasavvurga ega bo'lishi.

Mazmuniga ko'ra ijodiy salohiyatni rivojlantirish esa bilimga oid amaliy va ijodiy komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ijodiy faoliyatning texnologik jarayoni esa tushuntirish ilmostrativ, reproduktiv, muammoli, qisman izlanuvchan va izlanuvchan kabi metodlar asosida kechadi. Mazkur jarayon tabiatga, muzey va ko'rgazmalarga ekskursiyalar, videoko'rsatuvlardan foydalanish, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, individual ijodiy loyihalar, to'garaklar, klublar, praktikumlar, turli mavzularda suhbatlar, o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalari tanlovlari kabi an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limda birlamchi vazifa keyingi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshlang'ich umumiy ta'lim malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning va shaxsning xislatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning turli o'quv-biluv, amaliy, ijtimoiy faoliyatlari tajribasiga tayaniladi. Shuning uchun ham ta'lim standartlarida ta'limning faol, amaliyotdagi mazmuni, faoliyatning aniq vositalariga real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor berilgan.

Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligi bilan farqlanishidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'limda har bir o'quvchining ijodiy qobiliyatini va uning o'ziga xos individualligini namoyon etishga sharoit yaratishdan iboratdir.

Buning uchun boshlang'ich ta'lim dasturlari va darsliklaridagi materiallar muhim ahamiyatga ega. Navbatdagi bandda boshlang'ich ta'limda ta'lim standartlari, dastur va darsliklarini tahlil etish orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

### **1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini boshqarish**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini boshqarish uchun maktab rahbariyati, boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan o'quvchilarning



tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni aniq va ravshan bilishlari lozimdir. Boshlang'ich ta'limda davlat ta'lim standartlariga asosan 1-4 sinflarda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Agar ona tili o'quv predmeti bo'yicha o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri yozishni, ravon fikrlab, yozma matnni tuzishni; son, ot, fe'l so'z turkumlari va boshqalarni aniqlashni bilishlari lozim bo'lsa, o'qish darslarida to'g'ri talaffuz etib o'qish va h.k., matematikadan esa sanoq texnikasini egallash, natural sonlarni o'zaro taqqoslash, matematik atamalar ma'nosini tushunish va sonli ifodalarni o'qishda ularni qo'llay olish, miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni qo'llab, amaliy mazmundagi masalalarni yechish, geometrik figuralarga oid tevarak-atrofdagi shakllarni tanish va topa olish kabilar talab etiladi.

Tabiat o'quv fanidan esa jonli va jonsiz tabiatni tasavvur etish va bilish; o'z bilganlarini amalda qo'llay olish, inson va jamiyat sohasi bo'yicha jismoniy kamolotga oid, musiqaga oid, tasviriy san'atga oid, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojiga oid, inson mehnati, faoliyat turlarini anglashga doir talablar qo'yilgan. Mazkur talablar bilimlarni egallab olish jarayonida bajariladi.

Amaldagi dasturlarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir muncha topshiriqlar keltirilgan, ammo ularning barchasi ham boshlang'ich sinf o'quvchisini ijodiy faoliyatga yo'naltiradi, deya olish qiyin. Quyida ayrim fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni tahlil qilamiz. Masalan, 3-4-sinflar uchun tuzilgan matematika o'quv fani dasturida o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan. Unda topqirlikka doir masalalar, mantiqiy mashqlar, geometrik shakllar yasash va ularni bir-biridan farqlash, rasmlar, modellardan, atrofdagi narsalardan eng sodda shakllarni topa olish, vaqtni idrok etish va ko'z bilan chamalashga, aqliy topqirlikka doir o'yinlar; 4-sinfda amaliy ishlar, rivojlantiruvchi mashqlar: matematik o'yinxona, matematik fokuslar, arifmetik musobaqalar, she'riy masalalar, hazil masalalarni qo'llashga yo'llanmalar berilganki, fanni o'qitishda o'quvchilarning qiziqishlari albatta, ularning ijodiy faoliyatlarini faollashtiradi.

1-4 sinflarda o'rganiladigan atrofimizdagi olam, ayniqsa o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Unda o'quvchilar bilishi zarur bo'lgan tabiatdagi o'zaro bog'liqlik, ob-havoni kuzatishlariga asosan uning



natijalarini aniqlash, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini qo'llash kabilar nazarda tutilgan.

Fikrimizcha, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda, ayniqsa, tasviriy san'at darslarida keltiriladigan topshiriqlarning ahamiyati katta. Mavzularga doir kompozitsiyalar (1-2-sinflarning 2-3-choraklari), dekorativ haykallar ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlar (3-sinfning 3-4-choragi), xalq ertaklariga, o'yinchoqlar yasashga doir topshiriqlar (4-chorak); mevalar va gullar, hashoratlar, qushlarga qarab alohida rasmlar ishlash (2-3-choraklar), natyurmortlar chizish; rangtasvir kompozitsiyasi (4-sinfning 4-choragi), mavzularga jamoa bo'lib va individual ravishda rasmlar ishlash, ijodiy qobiliyat va badiiy didni yanada o'stirishga doir mashqlar bajarish, bayram tabriknomalari eskizini tayyorlash kabi topshiriqlar ustida ishlash shular jumlasidandir.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish dasturlar talabalarida belgilangan, ammo amaliyotda o'qituvchilar har doim ham ularni qo'llayvermaydilar. Ayniqsa, mehnat ta'limida badiiy mehnat rivojlanuvchi maqsad sifatida mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy, estetik tarbiya va ta'lim berish orqali ularning barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga katta e'tibor berilgan. Bu borada bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi asosiy mezon sifatida milliy hunarmandchilik sohasida shakllangan ijodkorlik belgilangan. Ayniqsa, umumiy va badiiy mehnat, naqqoshlik asoslari, dizayn asoslari, umumiy texnologiya asoslari va boshqalardan amaliy topshiriqlarda buyumlar yasash, zargarlik, gilam to'qish, kulolchilik va boshqa kasblarga doir har xil materiallardan qo'l hunarmandchiligi buyumlari va qo'g'irchoqlar tayyorlash, qo'g'irchoqlarga kiyimlar tikish, hamda kashta gullari bilan bezash kabi o'quvchilarda ijodkorlik faoliyati rivojlana boradi.

Musiqqa madaniyati bo'yicha o'quv dasturida esa musiqqa ijodkorligi madaniyati ilk bor kiritilgan. Bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini o'sтира borish uchun katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosida jo'rovozlik qilish, sinf ijrosida dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlarni, raqs harakatlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajarish talab etiladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish va badiiy rivojlantirish uchun



ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin uslublaridan keng foydalanish tavsiya etilgan. Chunki ushbu faoliyatlar zamiri ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq.

Dasturdagi har bir sinf bo'yicha musiqa ijodkorligiga doir mashg'ulotlarda ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda, ayniqsa, katta imkoniyatlarga ega.

Haqiqatan ham faoliyat shaxsning dunyoni anglab olishning barcha shakllarini, aqliy faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantiradigan kategoriya sanaladi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishning boshlang'ich ta'limda qanday holatda amalga oshirishni o'rganish maqsadida Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 8-, 12-maktablarda qator o'qituvchilarning darslarini kuzatdik. 4-sinfda tasviriy san'at darsida "Naqsh rozetkasini chizish" mavzusi yuzasidan o'quvchilar ijodiy faoliyatga yo'naltirildilar.

Dekorativ-amaliy san'at mavzulariga doir loyihalashtirilgan topshiriqlar o'quvchilarga amaliy-bezak san'ati, xalq amaliy-bezak san'ati, liboslar bezagi, xalq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish ustida olib borildi. Masalan, 4-sinfning 4-choragida "Choynak eskizini ishlash" mavzusidagi darsda loyihalangan topshiriq darsning: "O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini va estetik didlarini o'stirish, tasviriy malakalarini rivojlantirish, badiiy fikr doirasini kengaytirish" maqsadidan kelib chiqqan holda loyihalanadi. Bunda taqdim qilinadigan topshiriqlar quyidagi xarakterga ega bo'lishi mumkin:

1. Choynak eskizini bajaring. Buning uchun quyidagilarga e'tibor bering:

- a) rang haqida oldingi dars mavzuida o'tilgan ma'lumotni yodga tushiring. Ularning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
- b) ranglardagi eng muhim xususiyatlardan biri - undagi elementlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor bering.
- s) choynak chizishni doira shaklidan boshlang.
- d) naqshlarning ikki xildagisidan foydalaning: birinchisi - naqsh bo'laklari doira radiusi yo'nalishida joylashadi va ular markazga tomon torayib boradi; ikkinchisi - naqsh elementlari aylana bo'lib joylashadilar.

2. O'zbek naqshlari o'zining serjiloligi, jim-jimalarining ko'pligi, o'simliksimon elementlarining boyligi bilan boshqa xalqlarning naqshlaridan farq qiladi. Ushbu panjara namunasini tahlil qiling.

3. Tanlangan shaklga mos holda naqsh kompozitsiyasini toping.



4. Eskiz ishlashda panjara naqshlarining xususiyatlarini hisobga oling.

5. Eskizni tugallash uchun uni bo'yoqda ishlab tugallang.

Bu alfozda andozalangan topshiriqlar o'quvchilarning ijodkorligini oshirishga qaratiladi. Ba'zan o'zlashtirishlari past o'quvchilar bilan yakka tartibda ish olib borish, ularga maxsus topshiriqlarni taqdim qilish mumkin. Mazkur vazifalar o'z mazmuniga ko'ra ijodiy bo'lganligi sababli, ularni o'quvchilar uyda yoki kelasi darsda davom ettirishlari mumkin.

Tasviriy san'at ta'limida loyihalangan topshiriqlarning o'quvchilarni darsga qiziqtirish yo'llari xilma-xil. Samarali shakllardan biri muammoli vaziyatni o'zida mujassamlantirgan topshiriqlarni yaratish va ularni baholash monitoringini tashkil qilish. Muammoli vaziyatlar o'zida o'quvchining muammoni qanday anglashini ifodalaydi va uni yechish yangi bilimlarni, yangi usul va harakatlarni izlab topishni talab etadi.

Tajribaviy bosqichlarda loyihalangan darslarning va muayyan mavzularga tuzilgan topshiriqlarning monitoringini olib borish maqsadida dars yakunida o'quvchilarga maxsus blankalar tarqatiladi va ular asosida istiqboldagi oydinlashtirilgan ta'lim maqsadlarini belgilashga imkoniyat yaratiladi.

Boshlang'ich ta'limda har bir ijodiy faoliyat uchun ma'lum baholash o'lchovi belgilanadi va ekspertlar tomonidan baholab boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilish faoliyatining bosqichlari bo'yicha rivojlanib, yoshi, hayot sharoitlari va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda yetakchi pedagogik g'oya-umumbashariy qadriyatlarining eng muhim qoidasi - bolalarda o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlovchi dastlabki e'tiqodining shakllanishi hamda o'quv faoliyatida shart-sharoitlar yaratish bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish "Odobnoma", "O'qish", "Ona tili", "Tabiat", "Musika", "Tasviriy san'at", "Mehnat" o'quv predmetlarida amalga oshiriladi.

Inson shaxsining har tomonlama kamol topishida, ularning bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishida, atrof-olamga munosabat shakllarini va xulqi, odob me'yorlarini egallab olishida faoliyatning o'rni katta.



Har qanday faoliyat maqsad, uslub, natija va jarayonlardan iborat bo'ladi. U bir tomondan jismoniy harakatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan aqliy harakat vositasida ongda sodir bo'ladi. Mehnat, o'yin, o'qish inson faoliyatining asosiy turlari sanaladi.

Inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun zarur sharoit, ana shu sharoit jarayonida hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o'zlashtiradi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi. Ana shular yordamida faoliyat rivojlanadi. Ijodkorlik esa sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni bo'lib, u o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning vazifalaridan biri ham o'qishga bo'lgan ijodiy munosabatni tarbiyalashdir. Bilimlar tizimi, ko'nikma va malakalar, mustaqil fikrlash hamda ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olingan sharoitda bunday faoliyat ijodiy faoliyat kasb etadi.

Bu jarayon ma'lum shart-sharoitlarda, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarni bilishga doir ijodiy faoliyatini diagnostika qilish asosida o'quvchining ijobiy “men” ini shakllantirishga yo'naltiriladi. Nazariy g'oyalar boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish modelini yaratishga yordam berdi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular asosan ta'limda muammoli vaziyatlar yaratish bilan bog'liqdir:

1) Bu borada integratsiyalashgan ta'lim, ijodkorlik o'yinlari, o'quv to'garaklari kabilar asosida maqsadli yo'nalish, ta'lim mazmuni orqali tashkiliy metodik yondoshuv asosida o'quvchi o'z faoliyatini baholash bilan ijodiy salohiyat rivojlana borib, faoliyatga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim standartlari, dasturlarda ta'limning faol , amaliyotdagi mazmuni, faoliyatining aniq vositalariga, real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan bilim, malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor beriladi;

2) Boshlang'ich ta'limning o'ziga xos xususiyati ham bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy tajribasi, psixofiziologik rivojlanishi bir xil emasligidadir. Shunga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari dasturlaridagi topshiriqlarda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor berilgan bo'lsa-da, ammo o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai-nazaridan ularni takomillashtirish zarurligi ayon bo'ldi.



## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

### **II**

#### **2.1. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari**

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushuniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.

2. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.

3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda evristik-muammoli vaziyatlar yaratish.

4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi :

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarga quyidagi talablar qo'yiladi.

- dastur materiallarni qay darajada o'zlashtirganligi ;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi ;
- o'rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;
- topshiriqlarni bajarishda o'quv ashyolari va texnika vositalari, axborot texnologiyasidan foydalana olishi ;
- o'z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;
- mavzu bo'yicha o'z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;
- mavzularni o'rganishda o'z fikrini dalillay olishi;
- o'z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o'qituvchiga o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlari, ularning o'quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo'ladi va bu borada o'quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Yuqoridagi talablar asosida muammoga doir ta'limni maqsadga muvofiq tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olinadi.



Maqsadga muvofiq yondashuv deganda o'quv-biluv jarayoni yoki ta'lim mazmuni, metod va shakllari tizimining ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir maqsadli yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan tuzilmasi tushuniladi.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarida chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash.
2. O'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish.
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Bularning har biri yuzasidan tadqiqot davomida tayyorgarliklar amalga oshirildi :

Hozirgi davrda o'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan evristik va muammoli ta'lim o'quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

V. Karimova o'z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo'lgan sifatleri :

- 1) O'quvchilar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo'ladigan sifatleri;
- 2) O'quvchilar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta'minlovchi ijodiy faoliyat sifatleri ;
- 3) O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda - bilish va ijod holatida ko'rinadigan sifatleri namoyon bo'ladi.

Quyida sanab o'tiladigan sifatlar ijodiy izlanishli ta'lim turini rejalashtirish, tashkil etish va samaradorligini nazorat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijodiy faoliyat sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin :

- ehtirosli-obrazli sifatlar : ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, jo'shqinlik; obrazlilik, uyushganlik, yangilik va g'ayrioddiylikni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy



moyillik, ichki kurashlarni sinashga bo'lgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik va boshqalar.

- tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, o'ziga xoslik, har xillik, nostandartlik;
- g'oyalarni topishga, ularning individual, o'zga insonlar bilish ob'ektlari bilan munosabatlariga nisbatan qobiliyati;
- maktabda, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me'yorlarini saqlab qolish ko'nikmasi bilan uyg'unlashadigan fikrlar, tuyg'ular va harakatlar erkinligi;
- sezgirlik, tanish narsalarni notanish narsalarda ko'ra olish va aksincha; muammolarni hal etishda stereotiplarni yenga olish, o'zgacha makonga chiqish qobiliyati;
- o'rganilayotgan ob'ekt bilan dialog olib bora olish ; bilish metodlarini tanlay olish; ob'ektning o'xshash ob'ektlar bilan vazifa va aloqasini topish; ob'ektlarning o'zgarishi, uning o'sish yoki rivojlanish dinamikasini aniqlash; ob'ektning xossalariga ko'ra bilishning yangi metodlarini yarata olish ;
- gipotezalarni ta'riflay olish, taxminiy fikrlar, qonuniyatlar, formula, nazariyalarni, konstruksiyalash: intuitsiya, meditatsiyaga ega bo'lish ;
- -o'z qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirish, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etish tajribasiga ega bo'lish.

Bilishga doir sifatlar :

- fiziologik sifatlar: o'rganilayotgan ob'ektni ta'lim yordamida ko'rish, eshitish, sezish, his eta bilish; ish qobiliyati, shijoatni tarbiyalash;
- intellektual sifatlar: qiziquvchanlik , zehnlilik, mulohazalilik, ziyraklik, mantiqiylik, onglilik, dalillash, analitik, sintetik o'xshashini topa olishga qodirlik, isbotlashning turli shakllaridan foydalanish, ishqibozlik ;
- sinchkovlik, zakovatlilik, muammolarda izlanuvchanlik, tajribalarga moyillik, savollar bera bilish, ziddiyatlarni ko'ra olish, muammo va gipotezalarni ta'riflay olish, nazariy va amaliy tadqiqotlarni bajara olish, turli xil topshiriqlarni yechish usullariga ega bo'lish, xulosa va umumlashmalar qilish, harakatning tezkorligi tafakkurining xilma-xilligi;
- shaxsiy faoliyatida aks etgan madaniy me'yorlar va an'analarga ega bo'lish; o'z bilimlari va olgan natijalarini dalillay bilish ; tanlash vaziyatlarida tanlay bilish ;



- paydo bo'lgan har qanday muammo bo'yicha o'zining tushungani yoki tushunmaganini bildirishga qodirlik; o'zgalar nuqtai nazarini tushunish va baholay olish, mazmunli dialog yoki munozarali chiqishlar qilish;

- o'rganilayotgan sohalarni tizimli ko'ra bilish; ob'ektlar aloqalari, ularning sabablari, ular bilan bog'liq muammolarni izlab topish; har qanday ob'ekt va hodisa (tabiat, madaniyat, siyosat va hokazo) mohiyatini aniqlashga to'g'ri yondasha bilish ;

- ob'ektlar orasidan asosiysini tanlay bilish, ular orasidagi bir-biriga bog'liqlikni izlash; tanilgan ob'ektlarning yangi vazifalari va aloqalarini ko'ra bilish; ob'ektning kelib chiqish sabablarini izlashga qodirlik, ob'ektning ma'nosi, uning manbaini topishga qodirlik;

- o'rganilayotgan fanlar bo'yicha ma'lumotga, tayanch bilimlarga malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish; o'rganilayotgan bilimning asosiy muammolarini mo'ljalga olish;

- ta'lim samarasi va sinfdoshlarining erishgan natijalarni qiyoslay bilish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ajratish, shaxsiy ta'limiy natijalarni qayta aniqlash yoki qayta ishlash ;

- madaniy-tarixiy o'xshashliklarning kelib chiqish (namoyon bo'lish) sabablarini izlashga qodirlik, uning tuzilishini aniqlay bilish, o'xshash ideal ob'ektlar bilan aloqalarni topish, ideal ob'ektlar tizimini tuzish, ularning shakllangan tamoyillar va mezonlar asosida madaniy-tarixiy o'xshashliklarning tegishli real ob'ektlar bilan aloqalari tizimini anglay bilish ;

- ma'naviy, moddiy va faoliyat shaklida erishilgan bilimlarni ro'yobga chiqarishga qodirlik.

Tashkiliy faoliyat- sifatleri :

- o'quvchi tomonidan o'zining individual xususiyatlarini, fe'l-atvoridagi belgilarini, har bir o'quv fani va ta'lim sohasidagi mashg'ulotlarning maqbul shakllarini bilish ;

- mavzu yoki boshqa o'quv fanidan o'z mashg'ulotining maqsadini anglab olish va tushuntira bilish, nimalarni bajarayotganini aniq tushuna bilish;

- yangi yoki erishilmagan yaxshi maqsad, unga erishish dasturining mavjudligi, ishni oxirigacha yetkazish uchun qat'iyat, maqsadga sodiqlik; maqsadni qo'ya bilish, maqsadga intiluvchanlik maqsadga erishish uchun qat'iyatlilik;



- berilgan bilim sohasiga yoki faoliyatga o'quv maqsadini qo'ya bilish, unga erishish rejasini tuza olish; o'zining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan rejani bajarish; o'z natijasini olish va anglash; uni sinfdoshlarining shunga o'xshash natijalari bilan qiyoslash;
- egallangan malakada ifodalanadigan faoliyat qoidalari, uning qonunlari tizimini shakllantirish, faoliyat natijalarini prognozlash ;
- o'z-o'zining faoliyatini rejalashtirish, harakatni dasturlash, faoliyat bosqichlari va usullarini yaxshilash, harakatning o'zgaruvchanligi, rejalarning bajarilishi; faoliyatga yondashuvning xilma-xilligi, ayni paytda turli xil muqobillarini esda saqlash ;
- o'zining keyingi o'qish rejasini tuza bilish; faoliyati ma'no mazmunini aniqlash, natijalarni maqsadlar bilan birlashtira olish, o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholay bilish;
- ta'limning boshqa sub'ektlari bilan hamda atrof-olam bilan o'zaro harakatga qodirlik; o'z g'oyalarini himoya qila bilish, atrofdagilarning mulohazalarini tinglay olish, "zarbaga dosh berish"; mustaqillik, intiluvchanlik, qat'iyatlilik, kirishimlilik;
- o'zgalar ijodiy faoliyatini tashkil etishga qodirlik, boshqa o'quvchilar bilan birgalikda g'oyalar yaratish, unda ishtirok etish; g'oyalar, bahs, munozaralarni qiyoslash va chog'ishtirish.

Shunday qilib evristik ta'lim, kam deganda o'quvchining uchta integratsion qobiliyati; ijodiy qobiliyati bilishga doir va faoliyatga oid qobiliyatiga tayanadi. Demak, evristik ta'lim deyilganda o'quvchining ta'lim samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi kompleks imkoniyatlari tushuniladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda o'quvchilar maqsadlarni quyidagicha guruhlash mumkin;

Shaxsga yo'nalgan maqsad - ta'lim maqsadini idrok etish, o'zida ishonch hosil qilish, o'zining potensial imkoniyatlari, aniq individual qobiliyatlarini amalga oshirish;

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir maqsad majmuini tuzish; sharhli insho, texnik modellarni konstruksiyalash; rasmlar chizish va boshqalar.

Bilishga oid maqsad - atrofdagi borliq ob'ektlarini bilish; paydo bo'lgan muammolarni yechish usullarini o'rganish, birinchi manbalar



bilan ishlash malakasiga ega bo'lish, tajriba qo'yish, tajribani o'tkazish;

Tashkiliy maqsad - o'quv faoliyatini o'zi tashkil etish malakasiga ega bo'lish, o'z oldiga maqsad qo'ya bilish va faoliyatni rejalashtirish, jamoada ishlash malakasini rivojlantirish, munozara olib borish texnikasini egallash;

Fanga oid maqsad - o'rganilayotgan fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; o'rganilayotgan mavzuga kirgan asosiy tushuncha, voqea-hodisa va qonunlarni bilish; oddiy asboblardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish; mavzu bo'yicha ijodiy topshiriqlarni izlanishli ta'limning asosiy texnologik elementi-darsda izlanuvchan ta'lim vaziyatini yaratish, ya'ni dolzarb faollashtiruvchi vaziyat, yaratishdan iborat an'anaviy darsga muqobil holatda bo'ladi. Uning maqsadi maxsus tashkil etilgan faoliyat davomida o'quvchilar tomonidan shaxsiy ta'limiy natijalar (g'oya, muammo, gipoteza, chizma, tajriba, matn) ni ta'minlashdan iborat.

Izlanishli ta'limiy vaziyat o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yoki o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, uning barcha ishtirokchilaridan evristik faoliyat orqali o'z yechimini talab qiladigan ta'limiy harakat bilan baholanadi. Ta'lim samaradorligi natijasini oldindan aytib bo'lmaydi, avvalo, muammo qo'yiladi, so'ng faoliyat texnologiyasi yaratiladi, o'quvchilarning ta'limiy harakati kuzatib boriladi, biroq oldindan olinishi lozim bo'lgan ta'limiy natijalari ma'lum bo'lmaydi.

Izlanishli ta'limiy vaziyatlarning asosiy texnologik elementlari: motivatsiya, muammolar qo'yish, vaziyat ishtirokchilari tomonidan muammoni yechish, ta'limiy natijalarni namoyon etish, ularni birlari bilan qiyoslashdan iborat.

Ta'limiy vaziyat o'qituvchi tomonidan quyidagi tarzda tashkil qilinadi: kerakli material va ta'limiy ob'ekt ajratiladi, ular o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi, asosiy tushunchalar tanlanadi. Tadqiqotning umumiy ob'ekti, uning ma'nosini izlash, faoliyatning yangi usullari hamda turlarini izlash zarurati evristik vaziyatning asosi bo'lishi mumkin.

Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish bolalarning ijodiy qobiliyati qanday bo'lsa shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir. Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo'yicha texnologik harakat - bolalar ijodkorligi natijalarini ta'minlash yo'lidir. Quyida evristik vaziyatlar tayyorlash va o'tkazish bo'yicha o'qituvchilar uchun texnologik yo'l-yo'riqlar haqida fikr yuritamiz:



1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta'limiy ob'ekti (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an'ana, buyum va boshqalar). Bunda ob'ekt va bolalar uchun qiziqarli bo'lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o'rganilayotgan ob'ekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo'yicha o'ylashga yo'naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o'quvchilarning qo'yiladigan ta'limiy natijalari taxminlanadi.

2. Bolalarga yechimi noma'lum bo'lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ta'limiy ko'tarinkilik hamda o'quvchilar topshiriqni bajarish orqali o'zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo'ladi.

Topshiriqning ta'riflanishi muammoni jamoa bo'lib muhokama qilishning natijasi bo'lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta'riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o'qituvchi uchun yangilik bo'lsagina maqsadga erishilgan bo'ladi.

3. O'quvchining o'zi paydo bo'lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta'lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. O'quvchilarning ta'limiy ijod namunalarining namoyish etish: she'rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta'riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoada muhokama etib, ko'rgazmalar tashkil etish, o'zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta'limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta'riflar, olimlarning fikrlari, darsliklardagi ma'lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

6. Bolalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo'yicha faoliyatini tashkil etish. O'quvchilar tomonidan o'z qarashlari yoki ijod namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o'z nuqtai nazarlarining o'zgarish sabablarini tushunishlarida ko'maklashiladi. Ta'limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta'minlanadi.

7. O'quvchilarning bilishga oid qo'llanilgan usullarni, paydo bo'lgan muammo va uni yechish yo'llarini tushunishi bo'yicha fikr yuritish, tahlil etish. O'quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko'maklashishi. Jamoa bo'lib yaratilgan ta'limiy natijalarini aniqlash.



Izlanuvchi ta'limiy vaziyatlarning davomiyligi o'zgarib turadi, ular o'zaro aloqadagi vaziyatlar zanjiri ham bo'lishi mumkin. Izlanuvchi vaziyatlar tamoyillarida izlanuvchi ta'limni tashkil etish darajasi:

Boshlang'ich ta'lim dasturlari, o'qitilayotgan o'quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4-sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo'naltirilgan o'quv materiallarini to'g'ridan -to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og'zaki so'rash; yozma ishlar o'tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o'yinlar o'tkazish orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarning «O'qish» darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o'quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o'rganilishi va o'qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o'quvchilar avval o'qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o'rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so'ngra o'qituvchi rahbarligida ta'rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo'li ayniqsa quyi sinflarda o'z samarasini beradi. Bundan tashqari konkret induktiv yo'l orqali tushunchalarni kiritish jarayonida muammoli vaziyatlar hosil bo'ladi, buning natijasida o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Fikrimizning dalili sifatida 4-sinflarga mo'ljallangan "O'qish" o'quv predmetida keltirilgan Kaykovusning "Ota va ona haqini bilmak" hikoyasini o'rganish konkret – induktiv metod orqali olib borildi.



| <b>O'rganish jarayonining bosqichlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Tushuncha shakllanishining psixologik bosqichlari</b>                                                                                                                                     | <b>O'rganilayotgan tushunchaning aniq modeli</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>1. Odob va axloqqa doir tushuncha va misollarni kundalik hayotimizdan olish.</p> <p>2. Ana shu tushunchani ifodalovchi asosiy va asosiy bo'lmagan xossalarini aniqlash</p> <p>3. Agar mavjud bo'lsa, bu tushunchaning muhim holatlari ham qaraladi</p> <p>4. So'zning asosiy mazmuni</p> <p>5. G'oyaning asosiy mazmunini ajratish va uni ta'riflash</p> <p>6. Odob-axloq tushunchalarini chuqur idrok etish</p> | <p>Sezish va idrok qilish</p> <p>Idrok qilishdan tasavvur qilishga o'tish</p> <p>Tushunchani hosil qilishga o'tish</p> <p>Tushunchaning hosil bo'lishi.</p> <p>Tushunchani o'zlashtirish</p> | <p>“Aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdir”<br/>(Kaykovus,154).</p> <p>1) Ota-onani nima uchun hurmat qilurman, deb ko'nglingga keltirmagil. Bilgilkim, ular sening uchun o'linga ham tayyor turadilar</p> <p>2) Ota-ona farmonbardordir</p> <p>3) “Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa intil”.</p> <p>4) Bilgilki, aql bir moldirki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvda cho'kmas.</p> <p>5) Ota-ona seni aslida jon va dil ila parvarish qiladi.</p> <p>6) Ota-onangga izzat va hurmat qancha ko'p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur.</p> |



## 2. Ijodiy faollikni shakllantirishning abstrakt-deduktiv metodi

Bunda o'rganiladigan tushuncha uchun ta'rif tayyor ko'rinishda oldindan konkret misol va masalalar yordamida tushuntirilmasdan kiritiladi. Masalan, 4-sinflarga mo'ljallangan "O'qish" o'quv predmetida keltirilgan Husayn Voiz Koshifiyning "Salomlashish odobi" (2-chorak), Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" (3-chorak), Nizomiy Aruzi Samarqandiyning "Sulton Mahmud va Beruniy" (4-chorak), Xondamir qalamiga mansub "Tanbeh" kabi hikoyatlar abstrakt-deduktiv metod orqali quyidagicha taqdimot qilindi:

### Taqdimot qoidasi

- Chiqish reglamentiga rioya qilish
- Chiqish navbatiga rioya qilish
- Guruh a'zolari o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular hatti-harakatini ijodiy faollikka chorlash
- Ma'lumotlar grafik ko'rinishida ( sxema, jadval, grafik) taqdim etilishi lozim bo'ladi;
- Har qanday grafik ko'rinishdagi ma'lumot sharhlanishi talab etiladi.

### Taqdimotda nimaga yo'l qo'yilmaydi:

- Holatni tasvirlash va uni qayta so'zlab berishga;
- Ishtirokchilarning so'zga chiqishlaridagi qarama-qarshiliklarga;
- Tushunarsiz, noaniq, o'rinsiz iboralarga.

O'ylab ko'ring va guruhda taqdimotni baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini muhokama qiling.

Taqdimotni muvaffaqiyatli o'tkazish qoidalari va sirlariga asoslanib o'quvchilarning o'z ish natijalarini taqdimoti samarali o'tkazildi.

Yoki 4-sinfning "Odobnoma" darsida "So'z – noyob gavhar" ertagini o'rganish jarayonida o'quvchilar "*andisha nima?*", "*andishali inson fazilatlarini qaysilar?*" kabi savollarga javob berish uchun innovatsion metodlardan biri klasterdan foydalanildi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyat yuritishga yo'naltirildilar. Ular ertak asosida ijodiy fikrlashga harakat qilishib, darsning oxirida o'zlari mustaqil ravishda "So'z - noyob gavhar" ertagidan xulosa chiqarishga musharraf bo'ldilar. Andishasiz gaplar: jismoniy aybini topib yuziga solish, dag'al gap, o'ylamay gapirish kabi xususiyatlarga oid misollar topishdi, shu



mavzuga taalluqli maqollarni saralashdi. Klasterni tuzishda quyidagi qoida o'quvchilarga dasturilamal bo'ldi. Avvalambor, o'quvchilar andisha so'zi yuzasidan aqliga kelgan barcha fikrlarni yozdilar. G'oya sifatini muhokama qilmay, orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermay, ajratilgan vaqt tugaguncha tuzilgan klaster bolalarda ijodiy fikrlashga zamin yaratdi. G'oyalar soni, ular oqimi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik chegaralanmagandan so'ng o'quvchilar o'z fikrlariga erk berishdi. Darsdagi ko'tarinkilik ruhi o'quvchilarning ijodiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish turli-tuman uslublar orqali amalga oshirish mumkinligi dasturlarda belgilangan. Ammo, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi tadqiqot doirasidagi mavjud ahvol o'rganilganda, maktab o'qituvchilari har doim ham mazkur metodlardan to'laqonli foydalanishmayapti.

Maktablardagi mavjud ahvol o'rganilganda, ilg'or o'qituvchilar o'zlarining o'quv-uslubiy ishlarida zamonaviy metodlar orqali o'quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirishga harakat qilishadi, biroq ularning harakatlarida har doim ham yetarlicha o'quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishga, unda erkin fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga, qo'yilgan masala yechimini ijodiy topishga undash motivi kuzatilmaydi.

Ma'lumki, o'qish orqali bilishga pedagoglar eshitishni, ko'rish, motor-harakat, sezish organlarini, ba'zida esa hid sezishni ham ishtirok ettirib, o'quvchilarni ob'ektiv reallikni bilishga jalb qiladilar, bunda jonli mushohada, abstrakt tafakkur va amaliyot uzviy qo'shilib ketadi. Shuning uchun ham o'qish jarayoni bevosita yoki bilvosita shaklida ta'lim vositalari va pedagogik imkoniyatlar orqali sodir bo'ladigan o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Demak, o'quvchilarning o'quv faoliyati metodlarini ham o'qitishning o'ziga xos sharoitlarida qo'llaniladigan bilish metodlarining turidir, deb hisoblashga hamma asoslar bor.

O'quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o'ziga xos xususiyat shundan iboratki, o'qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarini ijodiy o'zlashtirish vazifasi hal qilinadi. O'qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo'lgan sinab ko'rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha "yengillashtirilgan" sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o'quv faoliyati metodlari bilish operatsiyalari bilan qo'shib olib boriladigan o'quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilgan. O'quv faoliyati metodlarni hosil qilish uchun ko'plab yillar sarflangan o'quv axborotini bilishga qisqaroq yo'lni topib beradi. Ular



o'quvchilarning yosh xususiyatiga bevosita holda bog'liq bo'ladi. O'quv faoliyati metodlarining o'ziga xos xususiyati mana shunda ham namoyon bo'ladi.

Dars berish metodlari o'rganish metodlarini, o'qish-bilish faoliyatining jarayonini faollashtirishga yo'llab, uni kuchaytiradi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Boshlang'ich DTS ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini, baholash tartibini belgilaydi. 1-4-sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan DTS talablari hamda o'quv rejalarida ko'rsatilgan o'quv soatlari asosida o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga bo'lgan talablar turli-tuman ko'rsatgichlar bilan me'yorlanadi [1-ILOVA ]:

Maktablardagi amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, fanlarni o'qitishda o'quvchilarda fikrlar ketma-ketligi va bog'liqligi masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 4-sinfning 4-choragida "O'qish" o'quv predmetida o'rganiladigan Xans Kristian Andersenning "Bolalar gurungi" ertagiga atab chizilgan rasmlar, mini-hikoyalar bolalarda ijodiy tasavvurni kengaytirishga zamin yaratadi. Ushbu ertakning sahnalashtirilgan ko'rinishi esa ularni ijodiy faollikka undaydi.

O'qish darslarida o'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishga mo'ljallangan turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish asosida o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritishga zamin hozirlash mumkin. Quyida shunday topshiriqlarni tashkil qilish shakllaridan namunalar keltiramiz:

### **1.O'quvchilarni ijodiy faollikka chorlash**

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlaydigan o'qituvchi eng avvalambor o'quvchilarda taqdim qilinayotgan o'quv materialiga qiziqtirish uyg'otish zarur. Buning uchun u:




## Asosiy mavzuni bayon etishda o'quvchilarni qanday yo'l bilan qiziqtirishi mumkin?

- Oddiy bo'lmagan ma'lumotlarni so'zlab berish;
- Barcha o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli bo'lganlarni gapirib berish;
- So'zlash jarayonida xolisona va aniqlashtirilgan ma'lumotlarni taqdim qilish;
- Obrazli solishtirishlardan unumli foydalanish

### 2. Keltiriladigan obrazlar, solishtirishlardan unumli foydalanish va ular me'yoriga amal qilish

### 3. Qay tarzda o'quv axborotini tugatish lozim?

O'qituvchi nutqining so'ngida qoyidagilarga amal qiladi:



Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faollikka undash davomida o'qituvchi:

1. O'quvchilarni obrazli fikrlashga undashi;
2. Aniq muammoni burro ifodalashi;
3. Fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylariga urg'u berib ajratgan holda ifoda etishi;
4. Xushmuomalali va ziyrak bo'lishi;
5. Quyidagi so'z birikmalaridan foydalanishi: "faraz qiling", "tasavvur eting", "ijodiy parvoz eting ..." va shu kabilar.



6. Ko'rish kontakti (bog'lanishi)ni saqlashga harakat qilishit-inglovchilarga qarashga harakat qilish (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);
7. Har bir javob va taklifni doimo rag'batlantirishi maqsadga muvofiq bolishini ta'minlashi lozim.

Boshlang'ich ta'limda mehnat darslari ham o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga mo'ljallangan. Bunda tajriba – amaliy o'lchashlar, qog'oz qirqimlaridan yasaladigan turli figuralarni yasash har doim ijobiy natija beradi. Boshlang'ich ta'limda o'quv dasturi asosida rejalashtirilgan ( 3-sinf,3-chorak) «"Kartondan guldona tikish", "Rasm uchun ramka tayyorlash", "Qush inida - qush bolasi"-applikasiya tayyorlash", "Hajmdor gul ko'rinishini yasash", "Harakatli o'yinchoq" yasash, "Bahor" applikasiyasini tayyorlash – bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ijodiy ish sifatida uyga vazifa qilib beriladi. Demak, boshlang'ich ta'lim DTS va o'quv rejalarini tahlil qilish natijasidan ko'rinadiki 3-sinfda mehnat darslarida jami o'qitiladigan 34-soatdan 7-soati ijodiy ish sifatida uyga vazifa qilib belgilanadi; 4-sinflarda belgilangan 38 soatdan - 9 soati ijodiy ishlarni bajarishga mo'ljallangan. Jumladan, "Urug'lardan mozaika tuzish", "rangli qog'ozlardan gullar yasash", "tabiiy xomashyolardan applikasiya yasash", "milliy naqsh tikish" va h.k.

“Yagona o'quv mashg'uloti, o'quv kursi bo'yicha tizimli mashg'ulotlar, evristik yo'naltirilgan faoliyat asosida sodir bo'ladi”<sup>6</sup>.

O'qitishda muammoli ta'limdan foydalanish ham, ijodiy faoliyatni shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarning biror-bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan ta'lim metodlaridan evristik yoki tadqiqotchilik metodlari bilan birga o'quvchilarni ijodiy fikr “laboratoriyasi”ga olib kiradigan jarayon ham asosiy ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim shu jihatdan bir qancha afzalliklarga ega:

1) U o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

2) U o'quv materialini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi.

3) U odatda, ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va

---

<sup>6</sup> Ibragimov X. Abdullayeva Sh. Pedagogika, Toshkent, “Fan”, 2004 y, 110-116 betlar.



kuchiga ishonch tuyg'usini vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni qiziqtiradi, o'quvchilarda ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi.

4) Haqiqat qonuniyatining mustaqil “kashf etilishi” olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tezda qayta tiklash mumkin.

Muammoli ta'limning asosiy maqsadi – “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichi talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o'zlashtirish natijasida bilimlarni amaliyotga tadbiq etilishini kuchaytirishdan iborat.

Demak, muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo'li bilan egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi muammoli ta'lim deyiladi.

Muammoli ta'lim quyidagilarda ko'rinadi:

1. Muammo.
2. Muammoli savol.
3. Muammoli vazifa.
4. Muammoli topshiriq.
5. Muammoli vaziyat.

Muammoning o'zi yunoncha “problem” so'zidan olingan bo'lib, vazifa, topshiriq degan ma'nolarni anglatadi.

Muammoli vaziyat - sub'ektning psixologik holatini ifodalab, muammo bilan duch kelganda, aqliy qiyinchilikni paydo bo'lishi zudlik bilan hal qilishga xalaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarini izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta'minlaydi. Bu esa muammoga psixologik jihatdan yondashishni talab etadi.

Masalan, o'quvchilarining yosh xususiyati, bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o'rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish, chunki o'rganilayotgan har bir mavzu o'quvchilardan tovushlar, so'zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o'z-o'zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O'quvchilarda “Nima uchun?” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug'iladi. Masalan “unli va undosh tovushlar” mavzusi o'rganilayotganda o'quvchi avval unli va undosh tovushlarni to'g'ri nomlashni, keyin qiyoslashni,



unli va undoshlar ishtirokida so'zlar, so'zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O'qituvchi dars mashg'ulotini muammoli savolni o'rta tashlash bilan boshlaydi:

1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko'ring.

Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

2. Oltita unli harf ishtirok etgan so'z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko'ring, qanday o'zgarishlarni sezayapsiz?

3. Undosh tovushlarni talaffuz etib ko'ring. Shovqin ovozdan hosil bo'lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo'lgan undoshlarni alohida yozing.

Agar topshiriqlarni bajarish muayyan qiyinchilik tug'dirsagina, namuna ko'rsatadi.

4. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, "O'zbekiston qovunlari" rasmlari va nomini berib, mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

5. Muammoli vaziyat yaratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'zlarni muayyan uyalarga birlashtirib, umumiy ma'noli so'zning xususiy ma'nosini yoki xususiy ma'noli so'zlarning umumiy ma'nosini topishni talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Masalan, o'quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o'nlab, hatto yuzlab uyadoshlari borki, o'qituvchi umumiy ma'noli so'zni o'quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so'zlarni topishni o'quvchilarga topshiradi.

1. Sabzavotlar: sabzi, ...

2. O'quv qurollari: kitob, ... va hokazolar.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta'limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko'proq e'tibor berilishi lozim. O'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning xarakterli xususiyati ular psixikasining zaif tomonlariga sustlik bilan moslashish emas, balki o'quvchilar maksimal darajada faollashishi uchun ularni aqliy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish tamoyili bo'lmog'i kerak. Tarbiyachi va o'qituvchilar ayrim bolalar qobiliyati o'rtacha ekanligi yoki qobiliyatsizligi va hatto mukammal emasligi haqida paydo bo'lgan



tasavvurni sezdirmasliklari lozim. Bunday o'quvchilar o'zlari tobora tezlashib va murakkablashib borayotgan ta'lim jarayoniga asta-sekinlik bilan moslashib boradilar.

Ta'limda darsni to'g'ri va samarali tashkil etilishi albatta, o'quvchilar bilim olishiga ta'sir etadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim masalalardan yana biri o'qituvchining darsni texnologik jihatdan to'g'ri loyihalashiga borib taqaladi. Interfaol metodlarni qaysi bosqichda, qanday qo'llash darsni loyihalash vaqtidan boshlanadi. Loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshadi.

I – diqqatni jamlashga bosqichi

II- tinglash bosqichi

III- fikrlash bosqichi

Bu bosqichlar interfaol metodlarni to'g'ri, o'z o'rnida qo'llash hamda dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Diqqatni jamlash bosqichi: bunda o'qituvchi bolalarning yangi mavzuga oid dastlabki tushunchalarini aniqlaydi.

Maqsadi:

- dastlabki tushunchalarni aniq, erkin namoyon qilish;
- o'z fikrini ifodalay olish;
- darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish kabilardan iborat;

Anglash bosqichi: bunda o'qituvchi o'quvchilardan olgan dastlabki tushunchalariga qo'shimcha ta'limotlarni jamlab yangi bilim bilan boyitadi. Ya'ni o'quvchining bilgan va bilmagan ma'lumoti to'ldiriladi.

Aniqlash bosqichining maqsadi:

- dastlabki tushunchalardan kelib chiqib, o'quvchi anglash, yangi bilimlar bilan to'ldirish;
- o'quvchilar qiziqishini orttirish;
- tahlil qilishga, taqqoslashga o'rgatish;
- yangi darsni bayon etish.

Fikrlash bosqichi: bu bosqich darsni mustahkamlash qismiga to'g'ri keladi. Unda o'quvchilar dastlabki tushuncha va ma'lumotlarni tahlil qilib fikrlaydilar, bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quvchilar o'tilgan dars, mavzu haqida munosabatlarini bildiradilar.

To'g'ri tashkil etilgan dars o'z samarasini beradi, albatta. Ammo har bir bosqichda qo'llaniladigan metodlarni chuqurroq o'rganmay turib, dars samaradorligini oshirib bo'lmaydi.



Ta'lim standartlari va me'yorlari an'anaviy ravishda ta'lim natijalarini baholash uchun foydalaniladi. O'quvchining natijalari standartga qanchalik yaqin bo'lsa, uning o'quv faoliyati shunchalik yuqori baholanadi. O'quvchi tomonidan haqiqiy egallangan va yaratilgan bilimlar hajmi to'la darajada nazorat qilinmaydi, chunki o'quvchilarning standart doirasidan tashqaridagi shaxsiy bilim yoki boshqa natijalari an'anaviy maktab nazaridan chetda qolib keladi.

Ijodkorlikda o'quv natijalarini baholashga yondashuv o'zgacha. Tashqi berilgan natijalarga erishilganlik darajasi emas, balki ko'pincha undan chetga chiqishlar tekshiriladi. Ijodkorlikni baholashda o'quvchilar ta'limiy natijalarining asosiy parametri - standartlarning minimum talablariga mos kelishi emas, balki o'quvchining shaxsan ta'limiy o'sish darajasidir.

An'anaviy ta'limda o'quvchi ta'lim mazmunini saralashda amalda ishtirok etmaydi. Ijodkorlik faoliyatida esa ta'limda o'quvchi ta'limiy samarasi ta'limning yangi mazmunini saralashda ishtirok etadi; bilimning hajmi, malakasi, faoliyat turlari hamda o'quvchining foydalaniladigan usullari cheklanmagan bo'ladi.

O'quvchilarga beriladigan ta'lim standarti ko'pincha o'quvchi shaxsiga, uning haqiqiy ta'limiy faoliyatiga bog'liq bo'lmagan materiallarni ham vujudga keltiradiki, bu tayyor insholar, referatlar va boshqa yozma manbalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ta'lim mahsulining bunday turini ta'limning maktab tizimi taqozo qiladi. Kompyuter texnologiyasi bu jarayonni yanada qulay va variativ qilib qo'ymoqda. Tayyor kontrol ishlar, referatlar hamda shu kabi internet tarmog'iga joylashtirilgan materiallarning muttasil ko'payib borayotgan to'plamlari o'quvchilarga tayyorgarlik ko'rmay hamda zarur ishlarni bajarmay turib imtihonlar topshirishlarini osonlashtirmoqda.

Ta'lim standartlarini tuzishda ijodiy yondashuv kurs yoki mavzuning o'rganish natijasi sifatida tayyor fan mazmunini bermaydi, biroq o'quvchidan yangi mazmunni, ya'ni uning shaxsan ta'limiy o'sishini talab qiladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda topishmoqlar xalq og'zaki ijodining, kichik va qadimiy janrining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Topishmoqni o'rganish, unga javob topish orqali bolalar predmetlarning kelib chiqishi, uning inson hayotidagi o'rni va roli haqida tasavvurga ega bo'ladilar, ularning qiziqishi ortadi, ongi va tafakkuri o'sadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, tabiat va hayvonot



olamini sevish, ardoqlash kabi hissiyotlari tarbiyalanadi. Topishmoqlardan dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarning nutqi boyiydi, takomillashadi. Ular ifodali, mazmunli o'qishga o'rganadilar.

Topishmoqlarning matn mazmuni bilan bog'liq ravishda o'rganilishi o'quvchilarning bir tomondan matn mazmunini to'liqroq tushunishi va yaxshi esda saqlashiga turtki bo'lsa, ikkinchidan, ularning darsdagi faolligini oshiradi, dam olish muhitini yaratadi, ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptiradi.

Fikrimiz tasdig'i sifatida quyidagi dars matnini keltiramiz.

Dars mavzusi: "Topishmoqlar darsi" yoki "O'yla, izla, top".

Darsning maqsadi: Xalq og'zaki ijodi janri bo'lgan topishmoq haqida o'quvchilarga tushuncha berish, o'quvchilarda to'g'ri o'qish malakasini hosil qilish, matn ustida ishlash jarayonida topishmoq janriga xos nazariy tushunchalarni kengaytirish, ularni mantiqiy fikr yuritishga, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish.

Dars jihozi: topishmoqlarni guruhlashtirgan jadval, javloblari aks ettirilgan rasmlar, maketlar. Har bir o'quvchi uchun topishmoq yozilgan kartochka.

**Dars metodi:** ko'rgazmali, evristik suhbat.

**Darsning borishi:**

**O'qituvchi:** "Bugun biz siz bilan 1-sinfda o'rgangan topishmoqlarimizni yana bir bor esga olamiz hamda ularni quyidagi jadvalga joylashtiramiz " deydi. So'ng doskani bo'r bilan to'rt ustunga bo'ladi:

- 1.Qushlar va hayvonlar haqidagi topishmoqlar.
- 2.Sabzavot, poliz, mevalar haqidagi topishmoqlar.
- 3.Predmetlar, ularning belgisini bildiradigan topishmoqlar.
- 4.She'riy topishmoqlar.

Har bir o'quvchi o'z kartochkasidagi topishmoqni o'qiydi.

Sinf bilan birgalikda uning javobi topiladi hamda jadvaldagi o'rni aniqlanib, shu ustun qatoriga yoziladi.

1-o'quvchi:

-Osti tosh, usti tosh

O'rtasida jondor bosh.

Javobi: toshbaqa (1-ustunga yoziladi).

2-o'quvchi:

-Ichi - buyoq, sirti - tayoq.



Javobi: qalam (3 ustunga yoziladi)

3-o'quvchi:

-Chopsa chopilmas,

Bo'lsa bo'linmas

Ko'msa ko'milmas.

Javobi: soya (4 ustunga yoziladi)

4-o'quvchi:

Palak ostida

Yotar talay tosh

Uni pishirsang

Bo'lar shirin osh.

Javobi: kartoshka (2-ustunga yoziladi)

Shu tariqa har bir o'quvchi qo'lidagi kartochkadan foydalanib, topishmoqni o'qiydi, javob topadi va javobini tegishli guruhlariga ajratib yozadi. Shu holatda o'quvchilar bir necha ta'limiy vazifalarni bajaradilar.

Birinchidan, topishmoqni topish jarayonida uni bir yoki ikki marta, ayrim hollarda esa uch marotabagacha o'qiydilar, ifodali o'qishga, fikrlashga o'rganadilar, o'qitish texnikasini egallaydilar, taqqoslash, solishtirish kabi amaliy ishlarni bajaradilar.

Topishmoqda yashirin berilgan predmetni topishda qiyinchiliklar tug'ilsa, o'qituvchining o'zi ifodali o'qib berishi hamda topishmoqning belgisini bildiruvchi so'zlarga alohida urg'u berishi shart.

Chiq-chiq der yo'q to'xtovi,

Vaqtning aniq o'lchovi.

Javobi: (soat)

Tinmay o'qisang agar,

Ko'p narsani o'rgatar.

Bilsang, uka, o'ylab top,

Bilim koni, u- ...

Javobi: (kitob)

Topishmoqni topishda o'quvchilar qiynalsalar, uning javobi bo'lgan predmetni yoki sabzavot namunalarni 1 qatorga terib qo'yish mumkin.

Shu tariqa mashg'ulot davom ettiriladi.

O'quvchilarning darsdagi holati hisobga olinib, darsga qo'shimcha ma'lumotlar kiritish mumkin. O'quvchilarga kartochkalarda yozilgan topishmoqlardan tashqari, yana qanday



topishmoqlarni bilishlari haqida savollar berish maqsadga muvofiq.  
Masalan: Darslikdagi:

Dum-dumaloq bo'yi bor,

Palovda obro'yi bor.

Javobi- (*behi*).

Xuddi shu topishmoqning boshqa ko'rinishini o'qituvchi misol tariqasida aytishi mumkin:

Yerto'laga ossa bo'lar

Palovga bossa bo'lar, ko'rinishida.

Xullas, topishmoqning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Ularga javob topish ermak uchun emas, balki o'rganilayotgan bilimlar tizimi taraqqiyoti uchun zarurdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo'nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

## **2.2. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning shakl va metodlari**

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda evristik va muammoli ta'limdan tashqari bilishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan ta'lim metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari boshlang'ich ta'limda ishbop, rolli, syujetli o'yinlardan foydalanish tadqiqot doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo'llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o'z samarasini beradi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar, munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo'yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy, texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o'yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng



samarali bo'ladi. ta'lim jarayonida dars shakllarining o'yin usullari sifatida o'qitishning ma'lum bir paytida o'tkaziladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi kattalarning hatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ishbop o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo'ljallangan ishbop o'yinlar takrorlash, mustahkamlash, o'tilganlarning qay darajada o'rganilganligini (diktantlar, musobaqalar, krossvordlar, sirtqi sayohatlar rolli o'yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Ishbop o'yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o'yinlar faqat bilishga oid bo'lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta'sir etishi bilan ham xarakterlidir.

Masalan, boshlang'ich ta'limda "Nima uchun?", "Baliq skeleti", "Kaskad", "Qanday?" kabi innovatsion metodlardan foydalanganda biz asosan ularni ishbop o'yinlar tariqasida o'tkazishga harakat qildik va natijada o'quvchilarda ijodiy faoliyat rivojlanganligining guvohi bo'ldik.

### **"Nima uchun?" sxemasini tuzish qoidalar**

1. Darsda taqdim qilingan o'quv materiali bo'yicha qanday piktogrammadan: aylana yoki to'g'ri to'rtburchakdan foydalanishingizni o'zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalar sxeme-zanjiri turini: chiziqli, nochiziqli, spiralsimon (dastlabki holatni markazga yoki chetga joylashtirib) bo'lishligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Strelka sizning qidiruv yo'nalishingizni belgilaydi: dastlabki **а**стлабки

"Baliq skeleti" sxemasi -muammoning butun doirasi (maydonini)ni ifoda etish va uning yechimini topishga imkoniyat beradi. Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi


Sxemasini tuzish qoidalar bilan tanishadi. "Suyak" yuqori qismiga muammo yoziladi, pastki qismiga esa ushbu muammo ichidagi muammo amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi faktlar yoziladi

Mini-guruhlariga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi


Natijalar taqdimoti



Boshlang'ich ta'limda “Baliq skeleti” metodidan foydalanish



“QANDAY?” iyerarxik diagrammasi



**“Qanday?” diagrammasini qurish qoidalari**



1. Ko'p hollarda sizga muammolar hal etishda "Nima qilish kerak?" haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo asosan "Buni qanday qilish kerak?" qabilida bo'ladi "Qanday?"-muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.
2. "Qanday?" iyerarxiya diagrammasi muammo haqida butunligicha tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savollar mantiqiy zanjiri ko'rinishida bo'ladi.
3. Ketma-ket ravishda "Qanday?" savolini qo'yish qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ukarni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.
4. Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning pastki (quyi) darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos keladi.
5. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim b'yladi.
6. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.
7. Agarda savol sxemada bir qancha "shoxlar"da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi mumkin.
8. Yangi g'oyalarni grafik ko'rinishida qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul xisoblanadi.
9. Agarda siz to'g'ri savol bersangiz va optimistik bo'lsangiz, u holda diagramma (texnika) har qanday muammo yechimini topib berishni kafolatlaydi.

#### "KASKAD"

Tarkibiy-mantiqiy sxema ierarxik g'oyalar tarkibini aniqlash imkonini beradi. Tizimli, ijodiy taxliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.


Sxemani tuzish qoidalarini tanishiladi.  
Yakka (juftlikda) sxema tuziladi.

Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.


Natijalar taqdimoti



## “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxema



## “Piramida” sxemasi



“Nilufar guli” sxemasi  
muammoni hal etish usuli.

O’zida nilufar guli obrazini  
mujassam etgan. Uning asosini  
9 ta katta kvadratlar tashkil etib  
ulirning har biri o’z navbatida  
to’qqizta kichik kvadratdan  
iboratdir.

Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema  
tuziladi: asosiy muammo (masala) markaziy kvadratning markaziga  
yoziladi. Uni hal qilish g’oyalari markaziy kvadrat atrofida  
joylashgan qolgan sakkizta kvadratlariga yoziladi. Har bir ushbu  
sakkizta g’oya markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta kvadrat  
markaziga o’tkaziladi, boshqacha aytgandi nilufar gulidan uning gul  
bargiga o’tqaziladi. Shunday qilib, ular har biri, o’z navbatida yana  
bir muammo sifatida qaraladi.

Juftlarga birlashadi, o’z xsemalarini taqqoslaydi va  
qo’shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi.

Natijalar taqdimoti



### **2.3. O'yinlar vositasida o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish**

Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional – hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi.

O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga harakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni “qoniqish hosil qiluvchi” faoliyat sifatida tadqiq etadi.

L.S. Vigotskiy, A. N. Leont'evlar fikricha, o'yinlarni nazariy jihatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatliligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jhati uning ikki tomonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tomondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq haqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tomondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida mas'uliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolly o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir.

Ishbop o'yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo'lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir.

Ishbop o'yinlarni o'tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o'yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O'yinlarning xarakteriga ko'ra o'quv jarayoni o'yinlari tadqiqotchilik o'yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o'yinlar turiga bo'linadi. O'quv jarayoniga doir o'yinlar o'quv predmetlar bo'yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to'g'ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishga yordam beradi. Ma'lumki, ta'lim hamkorlikka asoslanib,



jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalarini va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos holda amalga oshadi. Ana shu ma'noda ta'limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o'zaro birlashib, o'yin faoliyati shaklida o'quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o'yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot asosida ishtirokchilarni rag'batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsional ruh paydo qiladi.

Didaktik o'yinlar ta'limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo'ladi. Didaktik o'yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Fribil va M.Montisorilar ishlab chiqqan bo'lsa, boshlang'ich ta'lim uchun O. Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang'ich ta'limda emas, umumiy o'rta ta'limda ham foydalanila boshladi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o'yinlar keng tarqala boshlandi.

Ishbop o'yinlarning asosiy xususiyati o'yin rejasining o'quv maqsadiga yo'nalganligidadir. Chunki o'quv maqsadi o'yin vazifalari doirasida joriy etiladi.

Demak, o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o'quvchilar hayotni, borliqni, tevarak-atrofni o'rganadilar va unga moslashadilar. O'yin paydo bo'lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

- o'yin ishtirokchilari bilan bo'lgan muloqotdan qoniqish hissining paydo bo'lishi;
- tabiiylik, emotsional hissiyotning vujudga kelishi;
- o'yin davomida o'yuvchilarning o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o'yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;

- ma'lum ijtimoiy bilimlarni egallash;
- zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtai nazaridan yondashganda, o'yinlar o'quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobiliyatini o'stiradi.

Ma'lumki, bolalar o'yinning sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlarning ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega



o'yinlardan o'quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

Aynan faol o'qitish metodlari ham ana shunday o'yinlarga tayanilgan holda tashkil etiladi. Har bir o'yin bir necha daqiqadan tortib, undan ko'proq vaqt davom etishi mumkin va unda ikkita boladan tortib to o'n o'quvchigacha ishtirok etadi.

Masalan, "ishbop o'yinlar" yoki "boshqaruv" deb yuritiluvchi o'yinlar bilim va ko'nikma hosil qilishga qaratilgan bo'ladi.

Mazkur o'yinlarning nazariy va amaliy jihatdan mohiyatini bir qator olimlar Ya.M.Belchikov, M.M.Birshteyn, V.N. Burkov, YU.V.Geronimus, V.Ya.Platov, B.Qodirov, V.M.Karimova, R.Sunnatova, Z.Nishonova va boshqalar o'z tadqiqotlarida bayon qilib o'tganlar. Ular o'z ilmiy ishlarida guruh sharoitida zamonaviy o'qitishning pedagogik va psixologik texnologiyalari ustida fikr yuritar ekan, xususan, "Ishbilamonlik" o'yinlarini o'tkazish metodikasiga doir bir qator qimmatli fikrlarni bildirdilar. "Ishbop" o'yinlarni faol o'qitish metodlaridagi o'rnini (ayniqsa, kichik maktab yoshidagilar uchun) yaqqol tasavvur etish uchun metodlar majmuini keltirib o'tamiz.

Faol o'qitish metodlarining oddiy klassifikatsiyasini rus olimi N.N.Kozlenko quyidagicha tavsiflaydi:

"Faol o'qitish metodlariga" "Ishbilamonlik" o'yinlaridan tashqari real vaziyatlarni tahlil qilish va rolli o'yinlarni takomillashtirish jarayoni kiradi".

V.M.Karimovanning ta'kidlashicha, "faol o'qitish metodlariga, eng avvalo, bahs, munozara yo'li bilan va malakalar hosil qilish tushuniladi...".

V.Ya.Platov faol o'qitish metodlari quyidagi real vaziyatli o'yinlardan iborat, deb ta'kidlaydi:

1. Rolli o'yinlar;
2. Imitativ o'yinlar;
3. Faoliyatga qaratilgan tashkiliy o'yinlar;
4. "Ishbilarmonlik" o'yinlari.

V.Ya.Platov fikricha "Ishbop" yoki "boshqaruv" deb ataluvchi o'yinlarning quyidagi asosiy qirralari mavjud:

1. Ob'ekt modelining mavjudligi;
2. Rollar mavjudligi;
3. Qaror qilish jarayonida rolli maqsadlarning tafovuti;
4. U yoki bu rollarni bajaruvchi ishtirokchilarning bir-biriga ta'siri.



Rolli o'yinlarda eng avvalo, ishtirokchi shaxs sifatida o'zligini namoyon qila boshlaydi.

Faol o'qitish metodlari tarkibiga kiruvchi imitatsion o'yinlar qatoriga boshqaruv o'yinlarini yoki rollarni taqsimlash vaziyatlarini kiritish mumkin.

“Ishbilarmonlik o'yinlar” mutaxassislarini o'qitishda va ularning kasbiy sifatlarini takomillashuviga xizmat qiladi.

“Kompyuterli ishbilarmonlik” o'yinlari shunday psixologik vaziyatlar majmuiki, bunda o'yin ishtirokchilari bir vaqtning o'zida ham o'yin ishtirokchilari bir vaqtning o'zida ham o'yin ishtirokchisi, ham kuzatuvchi bo'lish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ishbop o'yinlar keng ma'noda shunday usul turiki, bunda turli ishlab chiqarish vaziyatlarida, boshqaruv qarorlarini qabul qilish imitatsiya qilinadi va bu o'yin shartlari bir guruh insonlar orasida EHM bilan muloqot tartibidagi ish rejimida o'ynalishi mumkin.

“Ishbop o'yinlar” - faol o'qitish metodlaridan bo'lib, u real o'rganilayotgan ob'ektni to'g'ri anglash maqsadida tahsil oluvchining u yoki bu vaziyatni o'yin holida talqin qilishga qaratilgan usuldir.

Ishbilarmonlik o'yinlar keng tarqalgan o'yin metodlaridan bo'lib, ular mohiyati jihatdan ma'lum obrazlarga kirish, o'sha obrazga xos bo'lgan hissiyotlarni o'z boshidan kechirishni taqozo etadi. Shunday qilib ishbilarmonlik o'yinlari qo'llash sohalari nihoyatda ko'p. O'quv maqsadlarida kompyuterdan foydalangan holda qo'llaniladigan ishbilarmonlik o'yinlari o'quvchilarning hayotida to'g'ri mavqega ega bo'lishlari, o'zi istagan, orzu qilgan hayotiy vaziyatlarni yaratishga o'rgatadi va undaydi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayonida o'zini erkin muloqotga oson kirishuvchi shaxs, bilimdon mutaxassis sifatida namoyon qilishga zamin yaratadi. Ishbilarmonlik o'yinlarining tuzilishi.

### **1 -bosqich**

Tayyorlanish bosqichida boshlang'ich sinf o'quvchilari har xil holatli masalalarni yechishning nazariy asoslarini o'rganadilar. Ob'ekt sifatida o'yin modeli, o'yin holatlari ishtirokchilari majburiyatlari, o'yin o'tkazish tartib va qoidalar hamda o'quvchilar bilimini baholash tizimi bilan tanishiladi. Ko'rgazmali qurollar, kerakli ko'rsatmali materiallar dars uchun tayyorlanadi. Ayrim masalalar mustaqil o'rganiladi.

**2-bosqich.** Kirish qismi. Ishbop o'yinda guruhlar tashkil qilinadi, liderlar tanlanadi, ishtirokchilarga rollar taqsimlanadi. Xodimlar tanlashda qatnashchilar anketa so'rovi yordamida



aniqlanadi. Lavozimlarga tayinlashda buyruq loyihasi ko'rib chiqilib va yuqoridan tasdiqlanadi. Rol taqsimoti qatnashchilarning shaxsiy jihatlaridan va salohiyatidan kelib chiqqan holda eksperiment usuli yordamida belgilanishi mumkin. Bu bilan qatnashchilarning shaxsiy jihatlar va salohiyatlari belgilangan rollarga mos kelib o'yin yuqori darajada o'tadi.

**3-bosqich.** O'yin jadvalini amalga oshirish, bir tomondan barcha guruhlarini bir xil yuklamalar bilan ta'minlab, ikkinchi tomondan vazifalarni taqsimlab qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi va ularning guruhlarida muhokama qilish ishlari olib boriladi.

**4-bosqich.** Xulosa chiqarish bosqichi, o'yin natijalarini tahlili rahbar tomonidan yoki ishtirokchilar tomonidan olib boriladi. Ishtirokchilar tomonidan baholash jarayoni olib borilganda erkin suhbat shaklida o'tkazilib, o'qituvchi tahlil yo'nalishini boshqarib va tuzatishlar kiritib turadi. Ishbilarmonlik o'yinlarining g'oliblari e'lon qilinadi.

Qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asosiy jihatlar va o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatiladi, bunda katta iqtisodiy samara beradigan, qabul qilingan muhim qarorlar alohida ta'kidlanadi. O'yin guruhlar rahbarlarining tavakkal qilishdan ishbilarmonligi guruh umumiy balini belgilashda hisobga olinadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha maslahatlar beriladi. Ishbilarmonlik o'yinidan olingan natijalar bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha maslahatlar taklif qilinadi.

Ishbop o'yinlarining belgilari:

- boshqaruv ob'ekti va muhitning modeli va mavjudligi;
- rollarning mavjudligi;
- qaror qabul qilishda rollarning faoliyat maqsadlarining farqliligi;
- ishtirokchilarning o'zaro munosabati;
- umumiy maqsadning mavjudligi;
- jamoa bo'lib qarorlar ishlab chiqish;
- o'yin davomida qarorlar tizimini tadbiq qilish;
- qarorlarning ko'p variantlilik;
- hissiy zo'riqishni boshqarish;
- o'yin ishtirokchilarini jamoa tomonidan alohida baholash.

Intellektual-ijodiy o'yinlar ham ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinda shaxsning



kommunikativ sifatlashni rivojlantirish, intellektual savodxonligi, ziyrakligi, qarorlar qabul qilishda zukkolikni rivojlantirish, xalq ijodkorligiga oid bilimlarga ega bo'lishi, sinfdagi salohiyatli o'quvchilarni aniqlash va ularni rag'batlantirishga oid maqsad va vazifalar qo'yiladi.

Teleo'yinlarda namoyish etiladigan "O'yla, izla, top", "Oltin toj" kabilar shular jumlasidandir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning intellektual darajasini rivojlantirish uchun sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda shunday o'yinlarni tashkil qilish mumkin. O'yin yetti turda o'tkazilishi mumkin. Har bir turda o'quvchilar bilimi ballar asosida baholanib boradi. Musobaqaga sakkiztadan ikki guruh o'quvchi kiritiladi. Birinchi turga 5 ball, ikkinchi turga 10 ball, uchinchi turga 15 ball va hokazo tarzda baholanadi. O'ylash uchun har bir savolga 2-3 sekund vaqt ajratiladi. Noto'g'ri javob berilsa, kuzatuvchi o'quvchilar javob beradilar. Har bir to'g'ri javob bali uchun shu ball yozilgan jeton topshiriladi. To'rtinchi turdan so'ng musiqali tanaffus tashkil etish mumkin.

Yettinchi tur oxirida guruhda qolgan o'quvchilar yiqqan ballarga qarab ular rag'batlantiriladi.

1-tur o'yin savollari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Dunyoda eng katta ko'l (Kaspiy dengizi) ;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti (Nukus);
3. O'zbeklarning eng mashhur raqsi nomi (Andijon polkasi);
4. "Sehrli qalpoqcha" romanining muallifi (X.To'xtaboyev);
5. "Shaytanat" romanining bosh qahramoni (Asadbek);
6. O'zbek taomnomasida eng aziz taom (palov);
7. "O'zbekiston" she'rining muallifi (H.Olimjon);

O'yin nihoyasida ballar yig'iladi va g'oliblar taqdirlanadi.

Mazkur o'yin bir tomondan o'quvchilarning bilimini namoyon qilib, uning intellektual salohiyatini aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan guruhlarining jamoa bo'lib birlashishi, aqliy tafakkurning shakllanishi, axloqiy xulq-atvorining tarkib topishiga yo'llaydi. Zero, o'quvchi intellekti individning ilmiy salohiyatining rivojlanishiga asos bo'ladi va uning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Ta'limda rolli o'yinlar keng tarqalgan o'yin metodlari bo'lib, ular mohiyat jihatdan ma'lum obrazlarga kirish, o'sha obrazga xos bo'lgan hissiyotlarni o'z boshidan kechirishni taqozo etadi. Shuning



uchun ham nemis olimi va mutaxassisi Margaret Forvert rolli o'yinlarning 3 asosiy jihatini aniqlaydi:

- o'yinning emotsional jihatdan mukammalligi;
- unda imitatsiya hodisalarining rivojlanganligi;
- boshlovchining alohida, o'ziga xos mavqega ega ekanligi.

Rolli o'yinlarning korreksion va amaliy ahamiyati shundaki, ularda har bir shaxs, bizning holatda kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'z real faoliyatiga yaqin bo'lgan vaziyatlarga tushiriladi va shu orqali uning yo'nalishi o'zgartiriladi. Bunda o'yin ishtirokchisining o'sha vaziyatni hissiy boshidan kechira olishi katta ahamiyatga ega. Rolga kirishishda esa quyidagi talablar mavjud:

- a) kitob tilida gapirmaslik;
- b) muloqotning barcha sirlaridan foydalanish;
- c) v) ovoz xususiyatlariga muntazam e'tibor berish. Bu esa intonatsiyalar, tovushlarning past-balandligi, ovozning emotsionalligi rolni aniqroq idrok qilishga imkon beradi;
- d) mimika va pantomimika elementlarini keng qo'llash;
- e) har bir holatni jonlantira olish;
- f) vaqt va fazoni doimo tushunib, his qilib turish;
- g) j) boshlovchining rolga kirganlar holatlarini aniq tushunishi va ularga mos baho berib turishi.

Rolli o'yinlarda eng avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchisi sifatida o'zligini namoyon qila boshlaydi.

Rolli o'yinlar jarayonida asosiy shaxslardan biri boshlovchidan keyin ijtimoiy psixologik vaziyatlarning markazida turgan shaxsdir. Uning ijtimoiy-psixologik vaziyatdagi muammo hamda ziddiyatlarni hal qilishdagi roli kattadir, chunki u aynan voqealarning markazida turadi. Unga o'z rolining barcha jihatlarini har tomonlama namoyon qilish huquqi beriladi, asosiy muammoni hal etuvchi va boshqalarni o'ziga ergashtiruvchi shaxs sanaladi.

Rollar o'ynab bo'linganidan so'ng uning muhokamasi boshlanadi. Unda barcha guruh a'zolari ishtirok etadilar va ularning har biri o'zi turli rollarga kira olishini sinab ko'radi, ya'ni bunda har bir shaxsning o'zidagi va boshqalardagi ko'rsatmalarni his qilishiga imkoniyat tug'iladi.

Rolli o'yinlarda "rejissyor" rolidagi boshqaruvchi shaxsining ham roli katta. U ham o'yinni "sahnaga qo'yuvchi", ham psixoanalitik rolini o'ynaydi. Butun o'yin davomida u harakatning muvofiqlashtiruvchisi, rollarni aniq obrazlarga, ya'ni ishtirokchilarga



bo'lib beruvchidir. U o'zining boshqaruvchilik rolini ado etib bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy vaziyatni his qilishi va undan chiqish choralari yuzasidan ko'rsatmalar berib boradi. O'yinning har bir qismida rollarni almashtiruvchi tayinlovchi ham hisoblanadi.

Rolli o'yinlardan kutilgan samaraning ijobiy bo'lishini ta'minlovchi bir qancha usullar mavjud. Masalan, ulardan biri "rollar almashtiruvchi" deb atalib, o'yinning har bir qismida rol ishtirokchilarining o'yinlari almashtirilib turiladi. Masalan, birinchi ko'rinishda qo'shimcha personaj rolini o'ynashini, bir ko'rinishda o'qituvchi rolidagi odam, keyin o'quvchi bo'lishi mumkin. Demak, o'sha vaziyatdagi har bir personaj ichki dunyosiga kirish to'la ma'noda o'sha vaziyatni his qilishga va unga moslashishiga yordam beradi. Yana bir usul "O'xshash chehralar" deb atalib, uning mohiyati shundaki, o'yinning yanada ta'sirchan va samarali bo'lishi uchun ikki o'quvchiga oldindan aynan bir xil rol beriladi, birinchi bosqichlarda ularning har biri aynan bir xil harakatlar bilan rolga navbatma-navbat kiradilar, faqat ma'lum bosqichdagina ularga o'zgarishlar kiritishi mumkin.

Yana bir usul, "monolog" deb atalib, bir o'quvchiga ma'qul darajada o'z hissiy kechinmalarini to'liq bayon etishga imkoniyat beriladi. Ya'ni, vaziyat, muammo va senariy boshlovchi tomonidan beriladi, faqat rol o'ynovchi uni o'zicha hissiy kechinmalarini boyitishi va shu orqali har bir individ ruhiy dunyosining boyligini va o'ziga xosligini namoyon qilishi mumkin. Bundan tashqari, har bir rolli o'yin vaziyatiga mos holda uni tashkil etishning o'ziga xos shakllari ham bo'lishi mumkinki, bu ham o'yin metodlarining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Masalan, "sehrli do'kon" o'yini shundayki, unga ko'ra o'yin ishtirokchilari turli xarakter xususiyatlarini ifodalovchi rollarni imitatsiya qiladilar. Masalan: biri- "aql", ikkinchisi - "to'g'riso'zlik" uchinchisi - "odoblilik" va hokazo. Rejissyor "sehrli do'kon"ga kirib o'ziga yetishmaydigan qadriyat, ya'ni sifatni, o'zida bor bo'lgan, unga "qadrsizroq" sifatga almashtirib ketishi mumkin.

O'zini-o'zi tahlil qilib tarbiyalashda bu o'yinning ahamiyati katta. Shunga o'xshash "Notanish odam bilan tanishish", "Kelajakni tasavvur qilish", "Oynadagi aks" kabi o'yinlar ham o'quvchining o'zini-o'zi ruhiy tahlil qilish va o'z xulq atvorini tuzatishda katta ahamiyatga egadir. Bu o'yinlar o'z oldiga qo'ygan maqsad va



mazmuniga ko'ra turlicha bo'lishi va aniq maqsadlarga xizmat qilishi lozim.

Xullas, o'yinlar boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim vositalardan biri sifatida tan olingan.

O'yinlar turiga ko'ra ishbop o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlaridan iborat bo'lib, ular orqali bolaning xulqi erkin shakllanadi, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi va bilishga oid qobiliyati o'zaro aloqada rivojlanuvchi faoliyatni vujudga keltiradi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini jahon talablari darajasiga yetkazish borasida aql-zakovatli, mustaqil fikrlay oladigan, intellektual salohiyatga ega yoshlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berilayapti. Bu o'z navbatida ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratish kerakligi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish o'ziga xos yo'nalishlar kasb etib, turli shakl, metod va vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Ijodkorlik faoliyati uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Bular o'quvchilarning biror bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq evristik va muammoli ta'limdir. Evristik ta'lim esa o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va ilmiy asoslangan faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarni mantiqiy, ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatib borildi. Bu borada ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv o'z samarasini berdi. "Aqliy hujum", "Klaster" jadvali tuzish, she'riy topishmoqlar asosida tashkil etilgan "O'yla, izla, top" o'yin-darslari bunga misol bo'la oladi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda dialog darslar, munozaralar, bahs-suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolarni hal etish darslari, ixtirochilik, modellash, badiiy-texnik ijodkorlik, ramzlar ijod qilish, kashfiyotlar qilish, insholar yozish, solnomalar tuzish shular jumlasidandir. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish shakl va metodlari xilma-xil bo'lib, an'anaviy dars shakllariga qaraganda ta'limga texnologik yondashuv asosida innovatsion metodlarni qo'llash samarali kechadi. Shu bilan birga o'yinlar vositasida shaxsni emotsional-hissiy, intellektual hamda axloqiy rivojlanishida qulay imkoniyatlar mavjud bo'lib, bular ishbop o'yinlar, rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar, kompyuterli o'yinlar tarzida amalga oshadi. Tadqiqot davomida ular tarkibiga amalga oshirilgan intellektual-ijodiy



o'yinlar, ishbop o'yinlar roli o'yinlar katta imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon etdi.

Maktab o'quvchilarining tafakkurini o'stirish uchun ularda avvalombor ijodiy fikr yuritishni o'rganish, idrok qilish jarayonini intensivlashtirish kerak. Mustahkam ta'lim-tarbiya tizimini faqatgina pedagogika-psixologiya fanlarining ilmiy- nazariy asoslari va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Buni albatta, shu sohadagi yangiliklar bilan aloqada amalga oshirishni talab etadi. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish maktab o'quvchilarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qaror toptirishga qaratilgan.

Boshlang'ich ta'limda ijodiy faoliyatni rivojlantirishning eng qulay shakli o'yinlar bo'lib, bular ishbop o'yinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar hamda kompyuterli o'yinlar, intellektual o'yinlar bo'lib, bular bir tomondan muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq holda haqiqiy faoliyat yuritsalar, ikkinchi tomondan bu faoliyat mas'uliyatni his etgan holda vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyati shaxsning shakllanishi bilan o'zaro aloqada real pedagogik jarayonni vujudga keltiradi va bu jarayon turli ta'lim konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilishi va ta'lim muassasalarida tadbiq etilishi maqsadga muvofiq.

Intellektuellik, mustaqil va erkin fikrga egalik, yuksak onglilik va intellektual madaniyatlik kabi xislatlarni shakllantirish hamda o'quvchilarni ob'ektiv va hissiy bilishlarini rivojlantirish uchun maxsus metodika, maxsus pedagogik ta'sir o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Tadqiqot ishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Inson shaxsining yaxlit va har tomonlama rivojlanishi uning atrof-olamga, jamiyatga munosabati, ijodiy faoliyati jarayonida amalga oshadi.
2. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimli, maqsadga muvofiq, yangicha yondashuv asosida tashkil qilinsa, samarali natijalarga erishish mumkin.

## II

Bugungi kungacha bo'lgan vaqt ichida qanchadan-qancha tub o'zgarishlar kelajak ravnaqi uchun qilindiki, yoshlarimizning bugungi zukkoligi, iqtidori, bilimdonligi-yu, istiqbolining barchasi yaratib berilayotgan yangi ilmgohlar, kompyuterlashgan texnologiyalar,



multimediyaali zamonaviy tizim orqali dars berishlar ijobiy natijalarga erishishga olib kelmoqda.

Farzandlarimizning ilk 3 yoshidan boshlab maktabgacha ta'limgohlardan oq ta'lim-tarbiyaning berilishi juda ham yaxshi samaralar bermoqda. Chunki, bugungi yoshlarimizning to'la aqlli va zukko, tezkor fikrlashlarining barchasi bog'chadagi munosabatlar, televideniya dagi bolalar uchun ko'rsatuvlar, kompyuterlarning va aloqa vositalarning, barcha turdagi axborot texnologiyalarning rivojlanishi bilan birgalikda onalarimizning ham oily ma'lumotli bo'lishlarining o'zi ham bolalarimizning iqtidorli bo'lib voyaga yetishiga hissa bo'lib qo'shilmqda. Bunda, albatta har bir kattalarimiz yoshlarimizga to'liq yo'nalishlar berib, nimani o'rganish lozimligi, nimani eshitishi, nimani ko'rishi mumkin yoki mumkin emasligini aytib nazorat qilinsa yaxshi samara beradi.

Axborot texnologiyalarning kuchli rivojlanib ketganligi tufayli ular orqali berilayotgan axborot vositalari orqali insonlarni ayniqsa yoshlarimizning ham kattalarga taqlid qilib, o'zlari hali tushunib yetmagan narsalarga qo'l urishlari yoki hali qandaydir ishlarni qilib, oqibati nima bilan tugashini o'ylab ko'rmasdan bilmagan holda noqulay ahvollarda qolishi, ota-onani ham to'satdan yomon ahvollarga solib qo'yishi ham kutilmoqdaki, biz buni oldini olishimiz juda ham zarur bo'lib qolmoqda. Birinchi navbatda bolani yoshligidan juda katta e'tibor bilan parvarish qilish, ya'ni oilada kattalar farzandiga o'rnak bo'lishi, oilani o'zida bolani zerikishiga yo'l qo'ymaslik, biror bir uyda bo'sh vaqtida o'ziga kelajakda asqotadigan kasb-hunarlardan yoshiga mos ravishda sekin-sekin o'rgatib borish, lozim. Yoshlar juda ham tez o'rganishadi. Biror bo'sh vaqtini unumli o'tkazish yoshlikdan o'rgatib borilsa, kelgusida butun hayoti davomida ham bo'sh vaqtini bekorga o'tkazmasdan doimo foydali ishlar bilan shug'ullanishni odat qilib olishadilar.

Barcha davrlarda ham ta'lim-tarbiyaning yaxshi natijalarga erishishida bolalarimizni ilk yoshlik chog'idan ota-onaning, oila va jamiyatning, bobolariyu-momolarining, ulug'-ulug' insonlarning to'g'ri ko'rsatmalariga qarab ta'lim-tarbiya berilib borilgan. Bizning o'zbek xalqimizning ta'lim-tarbiyasi boshqa xalqlarga nisbatan ko'proq axloqiy negizlari, tarbiya yo'nalishlari bilan farq qiladi. Har bir o'zbek oilasida qizlarimiz oila bekasi ishlarini to'liq oiladan o'rganib borishadi. O'g'il bolalar esa otasining izidan uy yumushlarida erkak kishi qilishi lozim bo'lgan, og'ir mehnatlar, jismoniy ishlar bilan, dehqonchilik, duradgorlik,



chorvachilik kabi ishlar, dala ishlari bilan mashg'ul bo'lishadi. Milliy g'urur, milliy iftixorni saqlagan holda ta'lim-tarbiyalar olishadi. Har bir milliy bayramlarda, tadbirlar orqali ham kuchli ta'lim-tarbiyalar milliy urf-odatlar, qadriyatlar va udumlar orqali berilib boriladi. O'zligini unutmagan holda har bir yoshu-qarilar, oila-yu, ta'limgohlar, tashkilotu muassasalar ham jamuljam, hamjihat bo'lib barcha tadbirlarni, bayramlarni zo'r qiziqishi, zavq bilan o'tkazishadilar. Bizning mamlakatimiz tinch-osoyishta xalqimizning sermazmun mehnati va faoliyati bilan gullab yashnamoqda. Bunda albatta yurtboshimiz I.A.Karimov o'zining oqilona yo'l ko'rsatayotgan har bir ko'rsatmalari orqali O'zbekistonimiz yoshlarini to'g'ri tarbiyalab voyaga yetkazishimiz uchun yoshlar ta'lim-tarbiyasini bundanda yuqori darajalarga ko'tarishimiz uchun 2010-yilni "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilishi va shuning bilan bir qatorda sog'lom turmush tarzini yanada yuqori darajalarga ko'tarish lozimligini uqtirdi. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "... milliy tafakkur salohiyatiga ega bo'lgan iste'dodli yoshlarni tarbiyalash va ularni qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim"<sup>7</sup>.

Pedagoglarimizning ham bugungi kundagi ta'lim-tarbiyasi va oilada ota-onaning ta'lim-tarbiyasi o'ta muhim bo'lgan bir paytda yashayotibmiz. Chunki, bugun axborot texnologiyalarning rivoji, axborot vositalari rivoji yuqori ekan unda, albatta lozim bo'lgan ko'rsatuvlarnigina ko'rishini yoki eshitishini nazorat qilishimiz juda zarur. Chunki, bugun texnika va texnologiyalar shu qadar rivojlanganki, unda mumkin bo'lgani ham, mumkin bo'lmagani ham bor. Ularni albatta insonning sog'lom turmush kechirishiga, ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilmaydiganini o'zlashtirishiga kuchli nazorat o'rnatish lozimdir.

### III

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, ta'lim-tarbiya islohotlari, mamlakatimizning rivojlanishiga juda katta e'tibor qaratilgan.

Aynan bugungi kunda mamlakatimizni kelajagi uchun, unda yashovchi har bir fuqarolarning bilimli va ongli ravishda hayotga, jamiyatda bo'layotgan tub o'zgarishlar, vatanimizni chiroy ochild, yanada go'zallashib borishida amalga oshirishimiz lozim bo'lgan harakatlarni

---

<sup>7</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008y, 147-148 betlar.



birgalikda, hamjihatlikda amalga oshirib borishimiz zarurligini his qilishimiz muhimdir.

Chunki, bugungi kunimiz harakatlari kelajagimizni belgilaydi. Bugungi yoshlarimizni har tomonlama aqlli, zukko va uddaburon bo'lishida, ularni bog'cha yoshidanoq yanada e'tiborliroq holda ta'lim-tarbiyasini mazmunli, aniq bir maqsad, ya'ni kelajakda uni barkamol qilib voyaga yetkazishni his qilgan holda harakatlarni amalga oshirish, ularni kuzatuvchanligini, ma'naviy o'sishida sharoitlar yaratishning mukammalligini hisobga olish juda zarur. Bola aqliy rivojlanishida avvalombor biologik omillar, ularning sog'lom turmush tarzi, o'sishida zarur bo'lgan ratsion oziqlanish, toza havolarning ta'siri, fikr doirasini, aqlini, ma'naviy yuksakligini, ta'lim-tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yilganlik darajasi yuqori holda bo'lishi juda zaruriy hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ko'z bilan ko'rishi, eslab qolishi, ularni o'zi analiz-sintez qilishi, ayrim narsalarga juda e'tiborli bo'lishi, hali ko'proq nimalarni ijobiyroq yoki salbiy ekanligini tushunib yetolmagan bir paytda, oilada va ta'lim-tarbiya maskanlarida mutaxassislarimizni har taraflama e'tiborli bo'lishi yuksak samaralarga olib keladi. Maktab yoshida barcha fikrlar ancha takomillasha boradi. Albatta, bugungi kunda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor, yoshlarni mana shu boshlang'ich sinflarida o'g'il va qiz bolalar badiiy rasmlar ko'rish, musiqiy asarlarni ham eshitishi orqali jamiyatimizda bo'layotgan voqea-hodisalarga bee'tibor emasligini o'zlarining hatti-harakatlarida ham namayon qilmoqda.

O'quvchilarimiz o'rtasida olib borilayotgan o'zaro tanlovlar, olimpiadalar bizning yoshlarimizning aqlli, zukko, harakatchan ekanliklari, jamiyatimizda barkamollik darajasi yuqoriligining dalolatidir. Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari taqlidchan, ko'rgan, kuzatgan narsalariga juda qiziquvchan bo'lishadi. Har bir narsalar, voqealarni tez ilg'ab, uning mohiyatini bilmoqchi bo'lishadi, qiziquvchanlik, ichki munosabatlari ham tezroq bo'ladi. Bu yoshda ularni e'tiborsiz qoldirmaslik, oilada yoki ko'chada, maktablarda ham ularni foydaliroq, juda muhimroq ishlarga jalb etish bugungi kun dolzarb masalalaridan biridir. Shuning uchun ham barcha davrlarda juda murakkab va mas'uliyatli bo'lgan bu masalalarni amalga oshirishda katta e'tibor bilan bilim va tajribalarni ishga solib, amaliy ya'ni ota-onalarning maktab muassasalari bilan hamjihatlikda ish olib borishi juda muhim o'rinda, chunki yoshlar ta'lim-tarbiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining shakllana boorish jarayonida juda katta e'tiborni talab etadi.



“Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo‘l avvalo ta‘lim-tarbiyadan boshlanadi....

Bu yorug‘ olamda har bir odam o‘zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlarga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi...”.<sup>8</sup>

Oilada onalar bolalarining ta‘lim-tarbiyasida o‘qituvchilar bilan hamfikir, hamnafas bo‘lib ish olib borsa-da, oilada ham ko‘proq bolalariga e‘tiborda bo‘lish bu juda ham a‘lo darajalarga erishishiga olib keladi. Har qaysi ota-ona bolalarini sport, musiqa, tadbirkorlikka qiziqtirib, intilishi va harakatini, sog‘lig‘ini yuqori darajaga ko‘tarib borsalar nur ustiga a‘lo nur bo‘lar edi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov o‘z asarlarida belgilab berayotgan tub vazifalar ham shuni ko‘rsatadiki, onalarimiz sog‘lom turmush tarzida bolani sog‘lom tarbiyalashsa kelajakka mustahkam poydevor qo‘ygan bo‘lishadi. Hozirda mamlakatimiz yoshlarini barkamol rivojida to‘garaklar, maktabdan tashqarida qo‘shimcha o‘rganish uchun ochilgan sport, musiqa, duradgorlik, tikuvchilik, hamshiralik, tillar o‘rganish va hakoza muassasalar borki, ular bilan hamkorlik qilish ham samarali natija berishiga olib keladi. Ota-onalar ta‘lim-tarbiyada bolalarini o‘z vaqtida nazorat qilib turishni birinchi vazifalaridan biri deb bilsa va o‘z vaqtida harakat qilsa bu juda yaxshi bo‘lgan bo‘lar edi.

#### IV

Tarixiy taraqqiyotlar shuni ko‘rsatadiki, har davrda oilada bola tarbiyasi, ta‘lim olishi barchasi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini talab etgan. Shuning bilan davlatning ravnaqi, kelajagi bo‘lmish yosh avlodni ham bilimdon, tarbiyalanganlik darajasi yuqori bo‘lishi uchun turli usul va metodlardan foydalanishgan.

Har bir bola 7 yoshgacha oilada to‘g‘ri ovqatlanishi, jismonan chiniqishi, o‘z vaqtida ijobiy fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirib borishga erishish uchun sharoitlar, ya‘ni:

1. Oilada ota-onaning ularga o‘rnak bo‘lishi;
2. Oilada shirin muomala, shirin kayfiyatlarning bo‘lishi;
3. Oilada o‘z vaqtida bolalarni nazorat qilib borishlar yo‘lga qo‘yilishi;
4. Maktab davrida havaskorlik to‘garaklariga ishtirokini ta‘minlash;

---

<sup>8</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch”, Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2008y, 130-131-betlar.



5. Har bir berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini va vaqtdan unumli foydalanishini ham yo'lga qo'yishlar;

6. Ota-onalarning maktab muassasalari bilan birgalikda mustahkam aloqani o'z vaqtida o'rnatilishi o'ta muhim hisoblanadi.

Chunki, farzand ta'lim va tarbiyasi eng muhim bo'lib, unda albatta bola nazorat ostida ham maktabda, ham oilada kuchli nazoratda bo'lmasa, unda ijobiy natijalarga erishish juda qiyin.

O'sish, nazariy va amaliy tafakkur shuni ko'rsatadiki, avvalo har davrda inson ongining o'sishi yuqori darajada bo'lib, fan va texnikaning taraqqiyoti unga ta'sir etmay qolmaydi.

Murakkab masalalar, ayrim muammolarning kelib chiqishiga tashqi kuchlarning ta'siri ham sabab bo'lib qolmoqda. Tashqi kuchlarning insonlarni o'ziga bo'ysindira olishi, har bir insonni avvaldan ayrim kimsalarga, ya'ni yot kishilarning berayotgan, ko'zbo'yamachilik bilan qilayotgan firiblari, aldashlari go'yoki bolalarni qimmatbaho pullar yoki aldovlar evaziga bo'ysindirib olishdek g'arazli harakatlari oson bo'lib qolmoqda.

Agarda, oilada mana shunday aldovlar oqibati nimalarga olib kelishini onalar tushuntira borsa bolalarning ayrim aldovlarga aldanib qolmasligini, o'z vaqtida oq va qora, yomon va yaxshini farqiga borishligini, ko'zbo'yamachilikni oldini olib, yomon oqibatlarni oldini olishni ta'minlagan bo'lar edi.

Ayniqsa, ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan farzandlarimizning ong-u tafakkurini himoya qilishda ilm-u fan va madaniyat jamoatchiligi, ijod ahlining o'rne va roli tobora ortib bormoqda...., bugun jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart".<sup>9</sup>

Albatta ta'lim maskanlaridan tashqari ta'lim va tarbiyaga juda katta e'tibor berish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Yoshlikda bolalarimizni bo'sh qo'ymasligimiz hamda ularning oilada, ko'chada, ko'pchilik ichida o'zini tutishni, muomala madaniyatni to'g'ri o'rgatib, ta'lim-tarbiyani bugungi iqtisodiy ehtiyojdan birinchi navbatga qo'yilib borilsagina yanada ko'proq natijalarga erishishga olib keladi.

Maktablarda va maktabdan tashqarida bolalarni:

a) o'quvchilarda vatanparvarlik dunyoqarashini yanada oshirish;

<sup>9</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008y, 133-134 betlar.



- b) o'quvchilarni milliy g'oya asosida vataniga muhabbat, millatga sadoqat ruhida kuchli tarbiyalash;
- c) o'quvchilarni ijtimoiy-siyosiy faoliyatini, tashabbuskorligini yanada oshirish, ularning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida ongli ravishda ishtirok etishini ta'minlash;
- d) o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatini, mayl va iste'dodlarini aniqlash va o'stirish, bolalarning madaniy, fan, texnika, san'at, jismoniy tarbiya va sport hamda boshqa sohalarga bo'lgan qiziqishini va havaslarini qondirilsa va yanada oshirib borilsa, o'quv yilining boshidan shularni hisobga olinib, oylik rejalarda hamda nazoratda ham o'ta e'tiborli ravishda birdaniga sinflar kollektivlarini birdaniga jalb etilsa ijobiy natijalarga olib keladi, albatta.

O'qituvchi har darsda faollashtiruvchi metodlardan foydalanib dars o'tishi, unda barcha o'quvchilarni jalb qilishi va barcha o'quvchiga ham birdek e'tiborda bo'lishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hammasida ham tafakkurning o'sishi va rivojlanishi bir tekisda, bir xilda bo'lavermaydi. O'quvchilarning individual xususiyatlari ko'p darajada boshqa psixik jaryonlarning – xotira, xayol, nutq, diqqat, irodaning o'sishi bilan belgilanadi. Bu individual xususiyatlar o'quvchilarning qiziqishlariga, ta'lim va amaliy ishlardagi faolliklariga, shuningdek kattalarning nazorat qilib turishiga bog'liq bo'ladi. Bizning maktablarimizdagi barcha ta'lim-tarbiya ishlari o'quvchilarning faol, ongli ishtirokida olib boriladi. Bu jihatdan kelib chiqib, oilada ota-onalar nazorati ham to'g'ri yo'lga qo'yishga katta e'tibor qaratilib borilsa, bugungi kun barkamol avlodlarning safini yanada ko'payishiga va albatta vatanimizni bundanda go'zal bo'lishi, bundanda ziyoda bo'lishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

## V

Ta'lim-tarbiya jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy darajasi va madaniyatini, ma'naviy va mafkuraviy tuzilish mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi.

Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, maktab va ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi. Chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi va kishining ijtimoiy mohiyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Faollashtirish vositalari majmui, ta'limning mazmunini, o'qitish shakl va uslublari maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon



sifatida tashkil qilishni ta'minlashi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ta'limning hamma bosqichlarida talabalarda (o'quvchilarda) o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;
- talabalarning (o'quvchilarning) o'z oldilariga tegishli maqsadlarni qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini takomillashtirish;
- talabalarning (o'quvchilarning) aqliy ko'nikmalarini shakllanishining ta'minlanishida axborotni qayta ishlashga doir ta'limiy va aqliy jarayonlar;
- talabalarning (o'quvchilarning) o'rganish-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy, aqliy, irodaviy kuchlarini oshirish.

Ta'lim-tarbiya jarayonida nazorat va o'z-o'zini boshqarish orqali (o'quvchilar) talabalar o'zlarining o'quv-bilish faolligini baholashini ta'minlash zarur. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta'lim-tarbiya samaradorligi yanada oshishiga erishiladi.

Maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida talabalarning (o'quvchilarning) faolligini tobora oshirib borish faollikka yetaklovchi g'oyalardandir.

Ushbu taraqqiy etgan go'zal, tinch-osoyishta yurtimizda bilimning o'rni yuqori ishonch, uning istiqbolini hayotda zarurligini va ahamiyati ta'lim oluvchilarda aniq maqsad vazifalarni shakllantirishda ularni chuqur anglab yetish natijalari inson o'z bilimi va tafakkuriga tayanib yashashi bundanda ajoyib, bundanda go'zallashib borishiga olib kelishini bog'cha yoshidagi bolalarning ham anglab yetishi - bu bejiz emas.

O'quvchilar (talabalar) diqqatini susaytirmaslik ularga ichki va tashqi ta'sir etuvchi salbiy faoliyatlarni bartaraf etish, mashqlar o'tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijalari to'g'risida ma'lumot berishni kuzatib borishini kechiktirmasdan doimo harakatda bo'lish muhim hisoblanadi.

Agarda ta'lim-tarbiyada faollikni yana bir usulini qo'llab ko'rish bilan ijobiy natijaga erishishiga olib keladigan usullardan deb, uni sinflarda yoki ta'lim muassasalarida ham qo'llansa, ya'ni quyidagicha yo'l tutsalar:

- 1) sinf yoki jamoa 30 ta kishidan iborat bo'lsa, 3 ta kichik jamoga ya'ni 10 tadan iborat guruhga 1 tadan nazoratchi bo'lsa, shu guruh ichki kichik jamolari birdam bo'lib;
- 2) mana shu jamoalar o'rtasida musobaqalar, ya'ni qaysi guruh darsda faol qatnashishi barcha ijodiy ishlarda ham faollik bilan harakatda bo'lishni ta'minlasa;



3) ijodkorlik g'oyalari, qo'lidan keladigan ijodkorlik ishlari bo'yicha ham bellashuvlar bo'lsa;

4) bunda albatta kichik 3 ta guruh 2 hafta oxirida erishgan muvaffaqiyatlarini o'zaro bir-biri bilan taqqoslashlar, ijodiy ishlar, jamoat ishlaridagi faolliklari bugungi barkamol, har taraflama aqlli, zukko yoshlarimizning yanada ko'payishiga olib keladi. Bugungi kunda ijodkor yoshlarni yanada ko'payishi, ularni har bir ishga ijobiy yondashuvlari, bilimga, ilmga intilishlari bizni juda quvontiradi.

Yuqorida aytilgan kichik guruhchalar yoki kichik jamoalarning faolliklari o'z vaqtida jamoa boshliqlari tomonidan, sinf yoki guruh rahbari tomonlaridan nazorat natijalarini aniqlab borilsa, guruhchalar kichik jamoalar harakatda bo'lib, ularning faolliklari yanada oshib boradi.

Bellashuvlar, musobaqalar, o'zaro mulohaza va fikrlarning ijobiy rivojlanishini ko'rsatadi. Har bir ishda, ta'lim-tarbiyada biror bir usul va uslublarni qo'llamasdan turib rivojlanishga erishib bo'lmaydi.

“Hozirgi zamon texnikasi odamlarning muayyan ixtisoslik bo'yicha uyushgan jamoasidan chuqur bilim, yetuk malaka va qattiq intizomni taqozo etadi. Shu tufayli individ tor, cheklangan soha bilimdoni va malakali funkcioner (ish bajaruvchisi) bo'lishga intilib, uning hayotiy ma'nosi va maqsad-muddaosi to'g'risidagi tasavvurlari cheklanib qolmoqda. Biosferaning noosfera bilan uzviy bog'liqlik davrini insoniyat aql-zakovati va uning mevasi, fan-texnika muvaffaqiyatlarini faqat bunyodkorlik, yaratuvchilik tomonga burib yuborishga buyuk ishonch ruhida kamol toptirish, tarbiyalangan yangi avlodni shakllantirib favqulodda ahamiyatli, umummilliy va umumbashariy vazifa bo'lib qolayotgani anglash davri keldi”.<sup>10</sup>

Texnika (yunoncha “techno” so'zidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi san'at demakdir) – odamlarning ehtiyojlari va istaklariga muvofiq ravishda, muayyan narsalarni maqsadli o'zgartirish, ularga shakl berish, jismoniy va aqliy ishlarni iloji boricha ko'pincha moslamalar bajarishiga qaratilgan hamma faoliyat yo'nalishlari ma'nosini anglatadigan bo'lib qoldi.

Har qanday vaziyatda ham o'quvchi yoshlarning bilim va ko'nikma, malakalarini oshirib, tarbiyalanganlik darajasini yuqori sifatga ko'tarish, barcha texnika va texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyoti, kelajagi yoshlar qo'lidadir. “Faollik”, “o'zini tutish”, “amaliyot”, “reproduksiya va

---

<sup>10</sup> Falsafa: qisqacha izohli lug'at, “Sharq”, Toshkent – 2004 304-305 betlar.



ijodiyot” singari tushunchalar ham borki, unda muayyan mafkuraviy yondashuvlarning mavjudligi insonning undan o’zining potensial imkoniyatlarini izlayotganligini ko’rsatadi.

## VI

Biz buyuk o’zbek xalqining farzandi ekanligimizdan, shu xalqning mehnatkashligi, mehmondo’stligi, bolajonligi, mehri daryo, qalbi keng, oqko’ngil, aqlli va donolik kabi boshqa ijobiy fazilatlarga boyligi bilan qancha faxrlansak arziydi. Biz hozirgi davrda shunday ajoyib bir go’zal serquyosh, hur o’lkada baxtli turmush kechirmoqdamiz.

Shunday qisqa vaqt ichida yurtimiz go’zallashib, ajoyib sharoitlar o’zbek xalqining ravnaqi uchun yaratildi. Avvalombor yurtboshimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov yoshlarimizning bilim olishiga katta sharoitlar yaratib berdi. Prezidentimiz qanotida turgan barcha buyuk kishilar o’zlarining astoydil harakatlarini ayamadan, bir qancha ijobiy ishlari bilan el-yurt ichida hurmatga sazovor bo’lib kelmoqdalar. Bizning kelajagimiz uchun yuksak zaminlar yaratib kelmoqdalar. Vatanimizdagi barcha yoshlarga shunday ajoyib sharoitlar yaratib berilmoqdaki, bundan albatta faxrlanish tuyg’usi paydo bo’ladi. Faqatgina faxrlanish bilan chegaralanmasdan, amalda ham biz o’z imkon va bilim darajamizni ishga solishimiz va bugungi avlodni har tomonlama aqlli, bilimdon, yetuk inson bo’lishiga o’z hissamizni qo’shishimiz lozim. Yurtimizning savodxonligini yanada oshirishimizda pedagoglarimizning mehnati cheksizdir. Maktablarda jajji bolajonlarni bilimini oshirish, ularni hayotda ajoyib kasb egalari bo’lishida pedagoglarni tayyorlashda universitetlar va institutlar vazifasi katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi avlod davomchilari, yetakchilari har tomonlama barkamol, yetuk inson bo’lishi bilan bir qatorda ijobiy fazilatlarga boy bo’lishi zarur. Chunki biz yetakchi pedagoglar keng doirali bilimga ega bo’lmasak, kelgusida yoshlarni ta’lim olishida bilimini, ijodiy tarbiyasi darajalarini oshira olmaymiz. Bugungi kun o’ta zukko, barcha huquqiy, tarixiy bilimlarga ega pedagog sifatida o’z ustimizda tinmay ishlashimizni talab etadi. Hozirgi kunda barcha jurnallarimizda ham ajoyib sahifalar chop etilmoqdaki, ulardan o’qib, matbuotda chiqayotgan, televideniyada berilgan ma’lumotlardan to’plab, mujassamlashtirib borsak nur ustiga a’lo nur bo’ladi. Chunki, biz bugungi kun pedagoglarimiz. Har doim biz jajji yoshlarimizning yetakchilari sifatida o’z kasbimizga qiziqib, uni yanada boyitib borsak, foydadan xoli bo’lmaydi. Bugungi davrning talabi ham



shunda. Hozirgi mustaqil, go'zal, erkin, osoyishta zamonda yashab igod qilishning o'zi bir baxtdir. Bugungi rivojlangan ya'ni ilm va fan texnologiyalarning taraqqiyoti bosqichlarida, bugungi kun yosh, boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'quv jarayonida faolligini yanada oshirish yo'llarini izlab, ularning ongini, tafakkurini boyitib hozirgidan ham yuksak darajaga ko'tarish maqsadimizdir. Pedagogik faoliyatda ijtimoiy qurilmalar cheklanmagan holda tuzilishi va bugungi barkamol, har taraflama yetuk shaxsni voyaga yetkazishda o'zining barcha bilimini cheklamagan holda yuzaga chiqarish har bir pedagogga xos xususiyatlardan hisoblanadi.

Bugungi kunda men o'z tajribamga tayanib yosh o'quvchilar uchun ham foydali, ham dunyoqarashini, ongini, bilimini, mehnatsevarligini oshirish usullaridan yana birini qo'llashni tavsiya etmoqchiman. Bu usul 3-4-sinflardan oq bolalarning barchasiga, ya'ni butun sinf bolalariga yon daftarcha tashkil qilib, daftarchaga O'zbekistonning barcha mashhur kishilari tomonidan xalqimiz faravon hayoti uchun amalgam oshirgan ishlari haqida ma'lumotlar, yurtimizda bo'layotgan ajoyib voqea, tadbirlarni qayd qilib borishlarini tavsiya etaman. Bular:

1. O'zbekistonda yashab ijod qilgan mashhur kishilarining amalgam oshirgan ishlari haqida;
2. Yurtimizda bo'layotgan ajoyib voqea, tadbirlar;
3. Yurtimiz haqidagi ma'lumotlar, qahramonlari;
4. Boshqa yurtlarning ma'lumotlari, qahramonlari;
5. Yangiliklar, maqol, rivoyatlar, sherlarni to'plab borishni tavsiya etaman.

Butun xalqning shodligi, tinchligini saqlash uchun yovuz kimsalarni to'g'ri yo'lga, yaxshilikka boshlash yollarini qidirishni, barchaga yaxshilik ulashishni tavsiya qilgan bo'lardim. Har 8 kunda bir o'quvchining shular haqida to'plagan ma'lumotlarini eshitib, ularni rag'batlantirish yo'lini qilib, bilimga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, bu bilan har taraflama bolalar bilimi oshib borishiga erishish mumkin.

Men bu usulni barchaga, nafaqat yosh bolalarga, balki katta yoshdagilarga ham tavsiya qilgan bo'lardim. Ba'zi paytlarda jumboqlarni yechish uchun ham bu bir vosita sifatida xizmat qilsa ajab emas. Chunki, inson birgina mavzuga ta'lluqli qiziqish natijalari bilan cheklanmasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, biz avvalombor bolalarni barcha ijobiy fazilatlarga qiziqitira bilishimiz, ularni vatanga sadoqatlilik, shirinso'zlilik, mehnatsevarlik va izlanuvchanlik fazilatlarini ham to'blab borish va



natijada ko'p tamoyilli har taraflama bilimga ega bo'lishiga erishishimiz mumkin. Agar biz shu usulni ham boshqa usullar qatoriga qo'shib amalda qo'llasak yoshlarni har taraflama qiziquvchanligini oshirgan bo'ladi, albatta. Yana shuni aytib o'tish joizki, bu usul orqali o'quvchilar o'z xalqidan tashqari boshqa xalqlarning ham mashhur kishilari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin.

Ajoyib insonlarning oliyjanob ishlaridan o'rnak olib, o'zlari shunday insonlarning ibratli ishlaridan ham ko'ra ajoyib ishlarni amalgam oshirishga qo'l ursalar va ajoyib ishlari orqali vatanimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'sha oladigan komil inson bo'lib yetishsa, biz pedagoglar mehnatimizning mahsulini ko'rgan bo'lamiz.

### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA IJOBIY FAOLLIKLARGA ERISHUVCHI YO'LLAR**

Ilg'or o'qituvchilar va pedagoglar, pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z natijalarini bermoqda. Pedagoglarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan muvoffaqiyatlar yoshlarimizning teran fikrli, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga katta zamin bo'lib, mamlakatimizning rivojiga rivoj qo'shib kelmoqda. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to'g'ri foydalanish, har bir o'quvchi faqat o'zining mehnati, harakati, intilishi va izlanuvchanligi bilan yuksak samaralarga erishishiga yo'l ochadi. Yangi bilimlarni xotirada mustahkam qolishi va uni amalga tadbiq eta olish imkoniyatini rivojlantirish, uni qayta takrorlash orqali yanada mustahkam bo'ladi. Bunda takrorlash darslarini tashkil etishda xotiraga qayta tiklash bilan bir qatorda :

1. O'tilgan mavzular bo'yicha 3 tadan asosiy mavzuning mazmunini yorituvchi fikrlar aytish;
2. Shu mavzuga oid hayotiy misol keltirish;
3. Oxirida o'quvchi o'zlashtirgan mavzularini o'zi xohlagan tarzda qisqacha tushuntirib berishi.

Shulardan har birini takrorlash, bilim va ko'nikmalarni yanada mustahkamlash darslarida qo'llashimiz, albatta zaruriyatdir. Yosh o'quvchilarning ham butun o'quvchi talabalarning ham har bir mavzu yuzasidan mustahkam fikr yuritishiga olib keladi va ularni yanada faol harakatlantirishga chorlaydi. O'quvchilarni o'z fikr yuritishini, mehnatini nazorat qilishi va baholashga o'rgatilishi ularni ildamlikka, ichki harakatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

Iste'mol jarayonining yuqorilab borish xususiyati, ularning turli-tumanligi va mehnat taqsimotining ta'siriga bog'liq. Ularning oqibati



sifatida jamiyatimiz hayotida faoliyat tarzi muayyan tizim shaklida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar sub'ektlari ma'naviy faoliyati ijtimoiy hayotning jamoaviy jihatga bo'lgan munosabatlarni ishlab chiqadi, shu bilan birgalikda muammolarni yechishda shaxsiy so'rovlarga bo'lgan talabni qondirish muhim o'rin tutadi.

Har qanday maxsus tayyorgalik (ma'lumotlilik), tajriba mutaxassislikni talab etadi. Yangiliklar, muammolar bilan yangilangan jarayonlarning yuqori dinamikasi faoliyat dasturidagi tub o'zgarishlarni bevosita qamrab, ularni muammolarni bartaraf etishga va yangiliklar, zamon talabiga mos ravishda ijobiy tomonga o'sib borish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda ichki motivlarning va tashqi harakatlarda insonning yuksak dunyoqarashi vujudga keladi. U o'z qarashlarida butunlay aql hukmlariga tayanuvchi hamda jamoaning harakatiga hamfikir shaxs bo'lib yetishadi.

Bunda albatta o'qituvchlar to'g'ri yo'nalishlarni, fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini e'lon qilib, baholab boradi. Har qanday vaziyatda ham yosh o'quvchilar (talabalar) o'zlarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga qiziqadilar. Kundan-kunga fikr-mulohaza yuritish sohasi kengayib boradi. Dars mavzusi bo'yicha fikrlashi, erkin mulohaza yuritish darajasi sezilib boradi. Tasavvurlari boyib, ularning keraklisini amaliyotga tadbiq eta olish xususiyati har qanday ma'lumotdan foydalanish ko'nikmalari paydo bo'lishiga olib keladi.

Dars jarayonida tez-tez savollar orqali barcha zaruriy ma'lumotlar mavzuni tushuntirib, takrorlab mustahkamlash uchun juda qisqa vaqtda tirishqoqlik, harakat, ichki moddiy ilmiy usulning ahamiyati, bilish jarayonining xususiyatlari, tafakkurning ilmiy bilishdagi ahamiyati singari masalalarni hal etishga xizmat qiladi.

Metodologik asos vazifani ham dunyoqarashni ham shakilantiradi ilmiy bilish bilan qurollantiradi.

Bugungi kunda yosh o'quvchilar 2-3-4-siniflarda ham ijodkor yoshlarning ko'payishi—ham oilada, ham mahallalar, maktabdan tashqari ta'lim beruvchi muassasalar, tasviriy san'at, fan, madaniyat markazlari kabi muassasalarda yaqqol ko'rinmoqda. Bundan tashqari sport inshootlarining ko'payib borishi va ularda o'z sog'liklarini mustahkamlash maqsadida sport bilan mashg'ul bo'lgan yoshlarimiz sonining kundun-kunga oshib borishi, ota-onalarning ham bu sohaga befarq emasligi, axborot-texnologiyalar, fan-texnikaning ulkan rivojlanib borishi, insonda madaniy, ma'naviy go'zalliklarni o'zlashtirishida muvaffaqiyatlarga erishishiga olib kelmoqda. Yosh-yosh kichik



ijodkorlar, mohir kasb-hunar egalari soninig oshishiga, mamlakatimizning ulkan zafarlarga erishishiga olib kelmoqda. Albatta har bir kasbni egallashda qator qiyinchiliklarga duch kelinadi. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishda insondan katta kuch-qudrat, g'ayrat-shijoat talab etilishi bilan birga o'zining ishonchi va mustahkam irodali, sabr-toqatli bo'lishiga undaydi.

Boshlang'ich sinflarga dars o'tishda yangicha (innovatsion) uslublardan foydalanishdan ijodiy ishlar, ijodkorliklar ko'payib borishida muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa fantaziyalarga boy bo'lgan beg'ubor yoshlarning turli xil savollar berishi har bir kishini yanada kengroq o'ylab, fikrlab javob qaytarishiga undaydi.

## **TARBIYANING TAYANCH NUQTALARI**

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, mehr-oqibat va shu chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Hammasining zaminida tarbiya yotadi". Ana shu ma'naviy-axloqiy negizlarning har birini yoshlarimiz ongida shakllantirish mafkuraviy immunitet hosil qilishning muhim omillaridan biridir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti bevosita ma'naviy-axloqiy negizlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, tenglik, ahil qo'shnicilik va vatanparvarlik hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha asrab-avaylab kelmoqda. Insonparvarlik bu— o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilati.

Xalqning ma'naviy salohiyatini mustahkamlash va uni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning navquron xalqimiz qalbida o'z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan.

O'zbekiston fuqorosining vatanparvarlik his-tuyg'ulari, uning ozodlikka baxt-saodatga intilishi har bir shaxs uchun muqaddas mazmun kasb etayotgan mustaqil O'zbekistonning davlat ramzlarida o'z ifodasini topdi. Davlat ramzlarini e'zozlash o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir.



Ta`lim O'zbekiston xalqi ma`naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi. Kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, keksa ajdodlarning dono o'gitlari anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Bizning davlatimiz yetuk mutaxassislar tayyorlashda jahonning ilg'or tajribasini faoliyatga tatbiq etishni to'liq yo'lga qo'ydi.

## **TA`LIM VA TARBIYA**

Tarbiya qoidasi – pedagogik ta`lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanidigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari – o'qituvchi tarbiyalanuvchilariga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi.

Tarbiya natijasi tarbiya jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachilar ta'sir etishning bola shaxsiyatiga eng maqbul usulini tanlab olish, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratishlari lozim. Tarbiya usullari har bir bolaga har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning murakkab barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi. Bu usul va vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p tomonlari bilan ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Shunday qilib, tarbiya jarayoni inson hayotida rivojlanib, takomillashib boradi. Yuqorida ta'riflab berilgan ayrim tarbiya tamoyillari va umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib, uning qoidasi va usullari ham takomillashib boraveradi. Tarbiyaning samarasi bu qoida va usullarining to'g'ri qo'llanishiga, bu vosita va usullar muayyan ijtimoiy guruhda tarbiya tizimidan qanchalik o'rin olganiga, ularning tarbiya vazifalari va maqsadlariga qanchalik javob berishiga bog'liqdir.



## **MAKTABDA KOMPYUTER SAVODXONLIGINI O'QITISHNING MAZMUNI VA VAZIFALARI**

Insonning butun hayoti axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'langan. Shuning uchun axborotlar bilan ishlaganda ularni to'plash, uzatish, saqlash, bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tkazish kabi jarayonlar amalga oshirilishi mumkun.

Axborot (informatsiya) so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, xabar degan ma'noni anglatadi. Uchta muhim sifati bor: to'liqlik, axborot qimmatli bo'lishi, ishonchliligi. Axborotlarning ko'pligi va murakkabligi tufayli kompyuterlardan foydalanish zaruriyati tug'uladi. Kompyuterning muhim xususiyati shundaki, ular katta miqdordagi axborotlarni qisqa vaqtda va tez qayta ishlaydi va o'zida saqlay oladi.

Fan va texnikaning rivojlanishi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish kabi jarayonlarni amalga oshirishda asosiy o'rinni kompyuter texnikasi va boshqa turdagi vositalarga yuklamoqda.

20-asrning 50-yillarida yangi fan - informatikaga asos solindi. Informatika inson faoliyati barcha jabhalaridagi axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va foydalanish masalalari bilan shug'ullanuvchi fandır. Informatika o'rganadigan uchta asosiy tushuncha bor: bular axborot, algoritim va EHM lardir.

Maktabda o'quvchilarga informatika fanidan hamda hisoblash texnikasidan bilimlar berish XX asrning 80-yillari oxirida yo'lga qo'yildi.

Informatika va hisoblash texnikasi asoslari fanining asosiy maqsadlaridan quyidagilarni ta'kidlash mumkun:

- o'quvchilarning informatika fanining dastlabki elementlarini tushuntirish;
- o'quvchilarni hisoblash texnikasi asoslari bilan tanishtirish;
- o'quvchilarning EHMda ishlash ko'nikmalarini tarkib toptirish;
- kompyuterlardan turli sohalar masalalarini yechishda qo'llash malakalarini shakllantirish.

Umuman bir so'z bilan aytganda, o'quvchilar kompyuter savodxonligini ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi.

Informatika va hisoblash texnikasidan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni muvofiqlikda olib borish, kompyuter bilan muloqot qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Unda quyidagi asosiy vazifalar ko'rsatilgan:



- axborotlarni qayta ishlash haqida ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish;
- zamonaviy kompyuter texnikasining tuzilishi, tarkibi, ishi va qo'llanishsh imkoniyatlari bilan tanishtirish;
- kompyuterlar bilan amaliy ish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- axborot texnologiyalari haqida bilimlar berish hamda ular bilan ishlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- kompyuterda masalalar yechish tartiblari bilan tanishtirishning asosiy bosqichlari haqida aniq tasavvur hosil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- kurs davomida dastur ta'minoti tarkibi, vazifalari va ularni o'z o'rnida qo'llash imkoniyatlarini aniqlay bilish;
- ushbu bilim va ko'nikmalardan o'quv masalalarini yechishda foydalana olish;
- yangi axborot texnologiyalarini jamiyatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi muhim ahamiyati va faoliyatning turli jabhalariga ta'siri haqida tasavvurlar hosil qilish.

Informatika ta'limining tayanch qismi; axborot, kompyuter, axborot texnologiyalari, kompyuterda masalalar yechish yo'llari, axborot texnologiyalarining istiqboli bo'limlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlarini dadil qo'yayotgan hozirgi davrda, axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizda barcha sohalarni texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan ta'minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiyali va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi.

Informatika vositalari jamiyatimizning barcha jabhalariga kirib borayotgani, axborotning tez va sifatli qayta ishlanishi, o'sib kelayotgan yoshlarning turmush talabiga aylanayotganini ko'rsatmoqda. Axborotning qimmatbaho tovarga aylanib borayotgani, informatika fanining nufuzi va ahamiyati o'sib borayotganidan dalolatdir.

XX asrda fan va texnikaning rivojlanishi natijasida inson mehnatini yengillashtiruvchi, mehnat unumdorligini oshiruvchi va juda ko'p



qulayliklar beruvchi texnik vositalar ishlab chiqarildi. Ular sirasiga telefon va kalkulyatordan boshlab zamonaviy kompyuterlargacha, avtomobildan boshlab samolyotgacha bo'lgan vositalarni sanab o'tish mumkin.

Axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, barcha sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga mustahkam zamin yaratilmoqda. Endilikda mamlakat iqtisodiyoti, insonlar hayoti va jahon hamjamiyatidagi o'rni axborot texnologik rivojlantirishning holatiga bog'liq bo'lib bormoqda.

### **O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda “faollik”, “intellekt”, “qobiliyat” atamaları deyarli yonma-yon ravishda uchraydi. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida shunday yaxlit ta'lim-tarbiya tizimini joriy qilish kerakki, zero eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ta'lim mazmuni quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- mustaqilligimizni his eta oladigan, o'zligini anglab yetadigan fuqarolarni tarbiyalash;
- jamiyat, davlat va oila oldidagi mas'uliyatni anglaydigan yetuk, aqli, intellektual, kreativ fikrlaydigan shaxsni shakllantirish;
- axloqiy pok, jismoniy barkamol, vatan tuyg'usini yuksak anglaydigan fidoiy insonni, izlanuvchan, tashabusskor sog'lom avlodni tarbiyalash.

Ilmiy adabiyotlarda faollikning bir qancha tavsiflari mavjud.

Bizning fikrimizcha, amerikalik olim D.Beksler tavsifi eng qulay tasniflardan biridir.

“Faollik o'quvchi shaxsining shunday hatti-harakatiki, unda kichik maktab yoshidagi bolaning uddaburonligi, darsni o'zlahstirish tezkorligi, jamoat topshiriqlaridagi faolligi tushuniladi va narsa hamda hodisalar mo'hiyatidagi o'ziga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi”<sup>11</sup>.

---

<sup>11</sup>Бекслер Д. Интеллект и креативность как составляющее.-М.:УП, 2001,2226



Kuchli ta'sirchan va mustahkam ta'lim-tarbiya tizimini faqatgina fan o'rnatgan ob'ektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish innovatsion pedagogika bilan bog'liqdir.

Innovatsion pedagogikani, ko'pincha, an'anaviy, alternativ deb ataydilar. Uning qanqay tug'ilishi hech kimga bog'liq emas. Faraz qilaylik rivojlanish strategiyamiz "rivojlantiruvchi o'qitish" yo'naltirishlaridan, eng avvalo, o'z intilishlarini maktabda iqtisodiy tushunchalarni qaror toptirish, iqtisodiy bilimdonlikni va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. "Bolalarni, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, yuqori darajaga erishihs, o'ziga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z hayotini munosib o'tkazishi, maktabga bog'liqdir",-deb ta'kidlaydi A.Munavvarov. Bugungi kunda gumanistik pedagogika uni maktabdagi munosabatlar markaziga qo'yishni va kerakligicha rivojlana olishi uchun hamma ishni bajarishni talab qiladi.

Insonparvarlik pedagogikasi o'z navbatida shaxsga qaratilgan. Uning belgilari:

- iqtisodiy ma'lumotlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalarni yuzaga keltirish o'rniga psixik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishga diqqatning qaratilishi;
- kuchlarni erkin, mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvch shaxsni shakllantirish uchun jamlash, har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarida asosli qarorni tanlab qabul qila oladigan insonparvar fuqaroni yetishtirish;
- o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirilishiga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan ta'minlash. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda avtoritar pedagogikadan, pedagogik bosimdan voz kechib, o'quvchi va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish. O'quvchi faoliyati va shaxsi asosiy ahamiyat kasb etuvchi, shuningdek, shaxs tarbiyasiga qaratilgan pedagogikani tushinishi kerak.

Insonparvarlik nuqtai nazaridan tarbiyaning asl maqsadi har bir tarbiyalanuvchining munosabatlari, o'zlashtirish faoliyati, to'la huquqli sub'ektning mustaqil, erkin shaxs bo'lib yetishtirishdan iboratdir. Tarbiya jarayoning insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma tarbiyaviy imkoniyatlarini, shu jumladan iqtisodiy bilimdonlikni ochib bera bilishi, uning



erkinlikka qobiliyati, ijodga mas'uliyatini ochib berishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi bilan belgilanadi.

O'quvchilarning faolligini oshirish, muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish, jamiyatda jarayonlar dinamikasining o'sib borayotganini tushunish natijasida vujudga keladi. Bizning adabiyotlarimizda kreaktiv muammolar ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rganib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayotiy faoliyatining hamma sohalarida chunonchi pedagogik o'zgarishlar asosida sifat xarakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi. Ammo bu o'zgarishlarni faqatgina umumiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Kreaktiv jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur, unda kreaktiv tahlili faqatgina fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o'z ichiga olmay, balki boshqarish, ta'lim, huquq, iqtisodiyot va boshqa sohalarini ham qamrab oladi.

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА НАБЛЮДЕНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ.**

Наблюдение—один из основных методов, используемых в педагогической практике. Оно представляет собой, метод длительного и целенаправленного описания психических особенностей, проявляющихся в деятельности и поведении учащихся на основе их непосредственного восприятия с обязательной системизацией получаемых данных и формулированием возможных выводов.

Для того чтобы наблюдение было научным, оно должно удовлетворять следующим требованиям:

1. целенаправленность — наблюдение проводится не за учеником вообще, а за проявлениями конкретных личностных особенностей.
2. планирование — до начала наблюдения необходимо наметить определенные задачи (что наблюдать), продумать план (сроки и средства), показатели (что фиксировать), возможные просчеты (ошибки) и пути их предупреждения, предполагаемые результаты.
3. Самостоятельность-наблюдение должно являться самостоятельной, а не попутной задачей. Например, не лучшим способом выяснения качеств учеников будет поход в лес экскурсию, потому что сведения, полученные таким путём, будут



случайными, так как основные усилия внимания будут направлены на решение организационных задач.

4. Естественность - наблюдение должно проводиться в естественных для ученика условиях.

5. Систематичность - наблюдение должно вестись не от случая к случаю, а систематически, в соответствии с планом.

6. Объективность - учитель должен фиксировать не то, что он «хочет увидеть» в подтверждение своего предположения, а объективные факты.

7. Фиксация - данные должны фиксироваться в ходе наблюдения или сразу после него.

Таким образом, наблюдение - метод трудоёмкий. В нем практически невозможно исключить влияние случайных факторов, а также невозможно всё фиксировать, поэтому можно упустить существенное и отметить несущественное. Наблюдение даёт информацию, которую сложно подвергнуть количественному анализу.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

### 1. Kitob va turkum nashrlari

#### 1.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to'plami:

##### a)

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", Toshkent, O'zbekiston, 1997y.
2. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", Toshkent, O'zbekiston, 1999y.
3. Karimov I.A "Ma'naviy yuksalish yo'lida", Toshkent, O'zbekiston, 1998y.
4. Karimov I. A. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin", Toshkent, Sharq.
5. Abdulla Avloniy. "Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom", Toshkent, Fan, 1994y.
6. Abu Ali ibn Sino. "Tadbiri manzil", Dushanba: Irfon, 1980y.
7. Adizov B.R. "Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari", Toshkent, Fan, 1997y.
8. Azizxodjayeva N.N. "Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo", Toshkent, Fan va axborot texnologiyalari, 2006y.
9. Bikbayeva N.I, Angabayeva Ye.Y, Matematika 3-klass, Toshkent, 2004 y.
10. Brushlinskiy A. "Novie pedagogicheskiye texnologii". Moskva, Prosvesheniye, 1999y.
11. Bepalko V. P. "Slagayemie pedagogicheskoy texnologii", Moskva, Pedagogika, 1989y.
12. Vigotskiy L.S. "Pedagogicheskaya psixologiya pod ped. V.V.Davidova", Moskva, Pedagogika, 1999y.
13. Golubeva E.A. "Sposobnosti i individualnost", Moskva, Znaniye 1999y.
14. Gurevich K.M. "Psixologicheskaya korreksiya umstvennogo razvitiya uchashixsya", Moskva, 1990y.
15. Dubrovina I.V. "Individualniye osobennosti shkolntkov", Moskva, Pedagogika, 1991y.



16. Davletshin M.G. “Zamonaviy maktab o’quvchisining psixologiyasi”, Toshkent, O’zbekiston.
  17. Dik N. F. “Vospitivayem lichnost”, Feniks, 2005y.
  18. Zak A.Z. “Kak operedelit uroven razvitiya mishleniya shkolnikov”, Moskva, Znaniye, 1991y.
  19. Karimova V. “Psixologiya”. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002y.
  20. Ikromova R., G’ulomova X., Yuldosheva SH., Shodmonqulova D. “Ona tili” 4-sinf, Toshkent, O’qituvchi, 2007y.
  21. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar, “Mustaqil fikrlash, Akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma, Toshkent, Sharq, 2000y.
  22. Karimova V, Nishonova Z. “Mustaqil ijodiy fikrlash va shaxsning hissiy, irodaviy va intellektual hislatlari orasidagi bog’lanish” Jizzax. Xalq ta’limi, 2001y.
- b)**
23. Koroleva A.A. “Vnutrenniye potrebnosti-kak sredstvo motivatsiya obucheniya”, Moskva, Pedagogicheskaya tekhnologiya 2005y.
  24. Klarin M.V. “Pedagogicheskaya tekhnologiya v uchebnom protsesse”, Moskva, Znaniye, 1989y.
  25. Kulyutkin Yu.N. “Tvorcheskoye mishleniye v professionalnoy deyatel’nosti uchitelya”, Voprosy psixologii. Moskva, 2004y.
  26. Munavvarov A. Q. “Oila pedagogikasi”, Toshkent, O’qituvchi, 1994y.
  27. Keyran L. F. “Obrazovatelnye metody v uchebnom protsesse”, . Logos, 2003y.
  28. Rubinshteyn L. S. “Psixologiya lichnosti”, Moskva, Prosvesheniye, 1991y.
  29. Farobiy Abu Nasr. “Fozil odamlar shaxri”, Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993y.
  30. Xayrullayev M. “Abu Ali ibn Sino”, Ma’naviyat yulduzlari, Toshkent, Abdulla Qodiriy, 2001y.



31. Sharipov A. “Abu Rayxon Beruniy”, Toshkent, Fan, 1999y.
32. G’oziyev E. “Tafakkur psixologiyasi”, Toshkent, O’qituvchi, 1994y.
33. Leontev A.N. “Deyatelnost, soznaniye, lichnost”, 1995y.
34. Leontev A.N. “O formirovaniye sposobnosti Voprosi psixologii, 1989y.
35. Levitov N.D. “Sub’ekt. Ob’ekt. Poznaniye”, Moskva, Znaniye, 1999y.
36. Lerner I.YA. “Uchebniy predmet, tema, urok”, Moskva, MGU, 1995y.
37. Mavlonova R, To’rayeva R, Xoliqberdiyev K. “Pedagogika”, Toshkent, O’qituvchi, 2002y.
38. Mahmutov M.I. “Problemnoye obucheniye: osnovniye teorii”, Moskva, Pedagogika, 1991y.
39. Matchonov S. “Kitob o’qishni bilasizmi? ”, Toshkent, O’qituvchi, 1993y.
40. Matchonov S., Shojalilov A., G’ulomova X., Sariyev SH., Dolimov Z. “O’qish kitobi”, 4-sinf , Toshkent, Yangiyo’l poligrafservis, 2007y.
41. Nemov R.S. “Psixologiya”, Uchebnoye posobiye dlya uchashixsya ped . uchilish, studentov ped. in-ov, i rabotnikov sistema podgotovki, povisheniya kvalifikatsii i perepodgotovki ped. kadrov, Moskva, Prosvesheniye, 1990y.
42. “Odarennie deti”, Pod red. G.V. Burmenskogo i V. S. Slutskogo, Pedagogika, 1991y.
43. “Osobennosti psixologicheskogo razvitiya detey 6-7 letnego vozrasta”, Pod. red. D.B. Elkonina , I.A. Vengera, Moskva, Pedagogika, 1988y.
44. “Osnovi vozrastnoy pedagogiki”, Moskva, Akademiya. 2000y.
45. Ochilov M. “Yangi pedagogik texnologiyalar”, O’quv qo’llanma, Qarshi, Nasaf, 2000y.
46. “Pedagogicheskiye osnovi formirovaniye lichnosti uchashixsya v sredney obsheobrazovatelnoy shkole Respubliki Uzbekistan na sovremennom etape”, /kollektiv avtorov /. Pod. red. dok.ped.nauk V.I. Andriyanovoy, Toshkent, Fan, 2005y.
47. “Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar”, Moskva, Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya, 2003y.



48. Xoliqov E., Xudoyqulov X. J. va boshq, “Ta’lim jarayonida yangi pedagogok texnologiyalardan foydalanish”, O’quv-uslubiy qo’llanma foydalanish. Toshkent, T.D.A.I, 1999y.
49. Xutorskiy A.V. “Razvitiye odarennosti shkolnikov: metodika produktivnogo obucheniya”, . Moskva, Vadis, 2000y.



## MUNDARIJA

|                                                                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 1. Mustaqillikka erishganimizdan keyingi qadamlarimiz                                                                         | 2  |
| 2. Uzluksiz ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalashda axborot texnologiyalarining o'rni                                  | 6  |
| 3. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada yuksaltirishda "kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning o'rni             | 8  |
| 4. Yoshlarni ma'naviy yetuklikka erishishga undovchi yo'llar                                                                  | 10 |
| 5. Shoir va mutafakkir, buyuk adabiyotshunos, o'zbek tilimiz asoschisi bobomiz mir alisher navoiy                             | 12 |
| 6. Buyuk mutafakkir abu nasr Farobiy asarlarining hozirgi zamonda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va ma'naviy kamolotidagi ahamiyati | 14 |
| 7. O'quvchilarda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish tushunchalarini shakllantirish                                    | 17 |
| 8. O'zbek tilimiz - buyuk xazina                                                                                              | 19 |
| 9. Til - buyuk ne'mat                                                                                                         | 22 |
| 10. O'smirlarning ma'naviy qiyofasini sotsiokorreksiyalash                                                                    | 23 |
| 11. Sharq mutafakkirlarining kasbga yo'naltirishdagi pedagogik-psixologik qarashlarining ahamiyati                            | 25 |
| 12. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari   | 27 |



|                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 13. Ta'lim jarayonida integratsiyalab<br>o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari                      | 28  |
| 14. Ta'lim-tarbiya jarayonining murakkab yechimlari                                                    | 30  |
| 15. Yoshlarda kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini<br>uyg'otishda psixologiya fanining ahamiyati        | 32  |
| 16. Yoshlarimizning bugungi kamoli                                                                     | 34  |
| 17. Obod va ozod vatan fuqarosi bo'lganligimdan<br>faxrlanaman                                         | 36  |
| 18. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faolligini<br>oshirish yo'llari                            | 38  |
| 19. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini<br>rivojlantirish modeli                      | 52  |
| 20. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini<br>rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari | 53  |
| 21. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini<br>boshqarish                                | 61  |
| 22. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini<br>rivojlantirish yo'llari                    | 67  |
| 23. Ijodiy faollikni shakllantirishning abstrakt-deduktiv<br>metodi                                    | 76  |
| 24. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini<br>rivojlantirishning shakl va metodlari      | 87  |
| 25. O'yinlar vositasida o'quvchilar ijodiy faoliyatini<br>rivojlantirish                               | 92  |
| 26. Boshlang'ich sinflarda ijobiy faolliklarga erishuvchi<br>yo'llar                                   | 112 |
| 27. Tarbiyaning tayanch nuqtalari                                                                      | 114 |
| 28. Ta'lim va tarbiya                                                                                  | 115 |
| 29. Maktabda kompyuter savodxonligini o'qitishning                                                     | 116 |



|                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------|-----|
| mazmuni va vazifalari                                        |     |
| 30. O`quvchilarning faolligini oshirish masalalari           | 118 |
| 31. Ispol`zovanie metoda nablyudeniya v uchebnom<br>prosesse | 120 |
| 32. Foydalanilgan adabiyotlar                                | 122 |
| 33. Mundarija                                                | 126 |



**Dildor NUMONOVA**

**Barkamol avlodni tarbiyalashda ta`lim-tarbiyaning roli**

(Ilmiy maqolalar)

**Muharrir:**

Jahongir Umirzoqov

**Texnik muharrir:**

O`lmasali Astanayev

**Musahhih:**

Nuriddin Rajabov

**Kompyuterchi dizayner:**

Fozil Mustafoev

Alisher Navoiy nomli nashriyot,  
14.08.2009 y.da berilgan litsenziya AI-155,  
210100, Navoiy sh,. A. Temur ko`chasi, 4-uy.

Bosishga ruxsat etildi .....  
Qog`oz bichimi 60x84. Times New Roman garniturası.  
Nashr tobog`i...Adadi...Buyurtma ...  
Bahosi kelishilgan narxda

“АДА сервис Навоий” МЧЖ  
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.  
Bosmaxona manzili:  
210100, Navoiy shahri, Umid qo`rg`oni, Ma`rifat 47.









